

Bashorat Baxriddinova

HOZIRGI O'ZBEK TILI



O'QUV QO'LLANMA

Toshkent - 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**


QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

B.M. BAHRIDDINOVA

HOZIRGI O‘ZBEK TILI (GRAMMATIKA)

AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN QO‘LLANMA

Oliy ta‘lim filologiya yo‘nalishi talabalari uchun amaliy, seminar
mashg‘ulotlarni bajarishga mo‘ljallangan



Toshkent - 2020

UO'K 811.512.133(075.8)

KBK 81.20'zb-923

B 37

Baxriddinova, Bashorat.

Hozirgi o'zbek tili [Matn] : darslik / Bashorat Baxriddinova. - Toshkent : Shafolat Nur Fayz, 2020. - 168 b.

Ushbu o'quv qo'llanma 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv rejasidagi “Hozirgi o'zbek tili” fanining “Morfologiya” va “Sintaksis” bo'limlari yuzasidan amaliy, seminar mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim topshiriqlari, shuningdek, kurs ishlarini bajarishda yordam berish maqsadida tayyorlangan.

Undan oliy filologik ta'limning boshqa yo'nalishlari, shuningdek, akademik litseylarning ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarida o'qitiladigan “Hozirgi o'zbek tili” fani bo'yicha amaliy va seminar mashg'ulotlarni olib borishda ham foydalanilishi mumkin.

Muallif: B.Mengliyev - Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Taqrizchilar:

M. Saparniyozova - Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

N. Musulmanova - Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi.

O'quv qo'llanma Qarshi davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. (25-iyun 2018-yildagi 5-bayonoma)

ISBN: 978-9943-6306-8-0

© Baxriddinova Bashorat

© “Shafolat nur fayz” nashriyoti, 2020

SHARTLI QISQARTMALAR

AHVO	alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat
GK	grammatik kategoriya
GM	grammatik ma'no
LMG	lug'aviy mazmuniy guruh
LSQ	lisoniy sintaktik qolip
OGM	oraliq grammatik ma'no
UGM	umumiy grammatik ma'no
UMIS	umumiylilik, mohiyat, imkoniyat, sabab
XGM	xususiy grammatik ma'no
SYQ	So'z yasalish qolipi
SY	So'z yasovchi
SHY	Shakl yasovchi

SO‘Z BOSHI

Bugungi kunda oliy filologik ta‘lim oldiga o‘zbek tili va adabiyoti-ning o‘ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog‘liq masalalarni chuqur o‘rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta‘lim-tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘zbek tili va adabiyoti fanini o‘qitishning hamda ushbu soha bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, bu vazifaning a‘lo darajada amalga oshirilishi ta‘lim beruvchiga ham, ta‘lim oluvchiga ham, ta‘lim vositasiga ham yangi-yangi talablarni qo‘ymoqda. Fan-texnika keskin rivojlanayotgan, axborot-kommunikatsiya vositalari o‘ta shiddat bilan taraqqiy etayotgan, hayot sur‘atlari beqiyos tezlashgan ayni paytda ta‘lim oluvchining nafaqat soat sayin yangilanib borayotgan bilimlarni tezlik bilan o‘zlashtiradigan, balki ular ichidan eng mukammalini ajratib oladigan, to‘g‘risini izlab topa biladigan, ta‘lim beruvchining o‘ta izlanuvchan, yangilikni tez o‘zlashtirib olayotgan, aniq xulosalargagina ishonadigan o‘quvchining talablariga to‘la javob bera oladigan, ta‘lim vositasining esa o‘quvchini o‘ziga jalb qiladigan, hatto tajribasiz o‘qituvchining kamchiliklarini ham bartaraf qiladigan darajada mukammal bo‘lishi talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmonida o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha filolog mutaxassislar, ilmiy-pedagog kadrlar, yuqori malakali tarjimonlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, soha xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ayni shu yo‘nalishlarda ilmiy va o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish bo‘yicha tayanch oliy ta‘lim muassasasi bo‘lishi maqsad qilingan mazkur universitetning asosiy vazifalari sanalar ekan, “o‘zbek tilining asl tabiati va xususiyatlarini to‘la aks ettiradigan mukammal akademik va o‘quv grammatikalarini yaratish, uning tovushlar tizimi va ularning yozuvda aks etishi, joriy imlo qoidalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar tayyorlash, turli mavzu va yo‘nalishlar bo‘yicha lug‘at va qomuslar, risola va darsliklar yaratish, unumta‘lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta‘lim muassasalarida o‘zbek tili va adabiyoti fanini o‘qitishning yangi va samarali metodlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish”ga alohida e‘tibor qaratiladi.

"Hozirgi o'zbek tili" kursi oliy filologik ta'limda o'qitiladigan lingvistik predmetlar ichida eng asosiy fan bo'lib, umumiy o'rta ta'limning "Ona tili", akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili", kasb-hunar kollejlarining "Ona tili va adabiyot", ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning "O'zbek tili" darsliklarining ilmiy asosini qamrab oladi. Ushbu qo'llanma talabalarning "Hozirgi o'zbek tili" fanining "Morfologiya" va "Sintaksis" bo'limlari bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmasini o'stirish hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u amaliy va seminar mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim topshiriqlari, shuningdek, kurs ishlarini bajarishga mo'ljallangan.

Qo'llanma oliy ta'limning 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) hamda 5111200 – o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishlarida "Hozirgi o'zbek tili" fanining malaka talablari, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida, milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarimizga mos yaratilgan bo'lib, fanga tegishli bilimlarni talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirib olishga, ularda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, kerakli o'quv materialini mustaqil izlash va topish, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo'yicha zarur ko'rsatmalar berishga xizmat qiladi.

Qo'llanmani yaratishda "Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi" (OO'MTVning 02.08.2013-dagi 278-sonli buyrug'i) da nazarda tutilganidek "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida respublikada joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, fanlarda mavzular izchilligiga, oddiydan murakkabga, xususiylikdan umumiylikka o'tib borishga hamda mavzularning takrorlanmasligiga alohida e'tibor" berildi.

Qo'llanmaning maqsadi o'zbek tilidan amaliy foydalanish samaradorligiga erishish, o'zbek tili grammatik qurilishini hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan tahlil qilishga doir bilimlarni mustahkamlashdan iborat. Qo'llanma hozirgacha ushbu fan yuzasidan yaratilgan boshqa vositalardan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

1. O'zbek tilining morfemik, derivatsion, morfologik va sintaktik qurilishini lison va nutq farqlanishi asosida tahlil qilishda ilmiy tamoyil birligiga putur yetkazmaslik, metodik ko'rsatmalarga amal qilish, ifoda usulining tog'ri bo'lishi hamda grammatik qonuniyatlarning izohlanishi uchun keltirilgan misollarning hozirgi o'zbek tili uchun ahamiyatli

bo'lishiga e'tibor berildi. Nazariy va amaliy topshiriqlar tizimini shakllantirishda o'zbek tilshunosligining istiqlolgacha bo'lgan va so'nggi yillarida qo'lga kiritgan yutuqlariga tayanildi.

2. Qo'llanma zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashga moslashtirildi. Mashq va topshiriqlar ilg'or pedtexnologiyalar asosida ishlab chiqildi. Amaliy topshiriqlarni bajarishda har bir mavzu bo'yicha avval yangi mavzuga yaqinlashtirish, fikrni jamlash, diqqatni tortishga qaratilgan kuzatish mashqlari, keyin oldingi mavzu bilan bog'lashga qaratilgan izlanish, fikrlash mashqlari, so'ngra alohidaliklarni sharhlash, qiyoslash, umumiylik va farqlarni aniqlash, tasnif etish, xulosalash va, nihoyat, o'zlashtirilgan ko'nikmalarni mustaqil qo'llash bilan bog'liq topshiriqlar tizimidan iborat algoritmnini shakllantirish, shuningdek, talabalarning o'zbek tilshunosligining istiqlolgacha va istiqloldan so'ng qo'lga kiritgan yutuqlariga doir o'zlashtirgan bilimlarini sintez qilgan holda amalda qo'llay olishiga alohida e'tibor qaratildi.

Qo'llanmani yaratishda filologiya fanlari doktorlari, professorlar N.Mahmudov, A.Nurmonov, H.Ne'matov, B.Mengliyev, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova kabi olimlar va ularning izdoshlarining tadqiqotlari ilmiy-nazariy hamda metodologik jihatdan asos vazifasini o'tagan.

Mazkur qo'llanma o'rta umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun ham yordamchi qo'llanma vazifasini o'tashi ko'zda tutilgan.

I BO‘LIM. KIRISH. MORFOLOGIYA

Tayanch tushunchalar: grammatika, morfologiya, sintaksis, grammatik shakl, grammatik ma’no, so‘z turkumlari, grammatik shakllangan so‘z, morfologik va sintaktik ma’no, umumiy, oraliq va xususiy grammatik ma’no, kategorial, yondosh va hamroh ma’no.

Aqliy hujum uchun savollar:

1. “Grammatika” so‘zi qanday ma’no anglatadi?
2. Morfologiyaning o‘rganish obyekti nima?
3. Grammatik ma’no qa leksik ma’noning farqi qanday?
4. Grammatik shakl deganda nimani tushunasiz?

1-mashq. Matni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Ketgim kelmayapti onajon...

Shamollar uyg‘ondi – barg hayajonda.

Hatto yer ostida qo‘zg‘aldi ilon,

Dunyo ko‘zlarini ochayotganda

Ketgim kelmayapti, onajon.

O‘ngirlarda kezar muzdek havolar,

Ishqalab qobog‘in ko‘tarar osmon.

Mana shu bog‘larni ko‘rmasdan turib,

Ketgim kelmayapti, onajon.

Qizlarning ovozi kelyapti munis,

Ishq desam – daftarga sachrab ketdi qon.

Suymasa suymabdi bir chiroyli qiz,

Dunyoda qiz kammi, onajon.

Begunoh bittadir, u ham osmonda.

Qo‘lga chivin qo‘ndi – quvmoqqa yo‘q jon,

Chivinlar, chumchuqlar yurgan jahonda

Menga joy yo‘qmidi, onajon?

Garchand mungli qo‘shiqlar aytdim,

Garchand azob ko‘rdim mudom bepoyon,

Men hali dunyodan to‘ygan yo‘q edim,

Dunyo to‘ydimikan mendan, onajon? (K. Bahriyev)

Topshiriqlar:

1. Matn tarkibidagi soʻzlarni ifodalayotgan kategorial maʼnosiga koʻra guruhlarga ajrating. Leksemalarning lugʻaviy va sintaktik shakllarini farqlang.

2. Morfologik jihatdan oʻzgaradigan va oʻzgarmas, gap boʻlagi boʻlib kela oladigan, sintaktik aloqa vositasi boʻlishga xoslangan hamda soʻz-gap boʻlib kela oladigan soʻzlarni guruhlang.

KREATIV TEST

Savol	A	B	C	D
Morfologik paradigma:	morfologik kategoriya	soʻz turkumlari	nokategorial shakllar	soʻzning morfologik shakllari
UMIS:	umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab	umumiylik, muhimlik, imkoniyat, sabab	universallik, mohiyat, imkoniyat, sabab	umumiylik, mohiyat ixchamlik, sabab

OʻZBEK TILI MORFEMIKASI

Tayanch tushunchalar: morfema, soʻz tarkibi, asos, qoʻshimcha, soʻz yasovchi qoʻshimcha, derivatsion morfema, grammatik morfema, lugʻaviy shakl hosil qiluvchi morfemalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar, shakldosh morfema.

Blits-soʻrov

1. Morfemalarga anʼanaviy yondashuv deganda nimani tushunasiz?
2. Morfemalar turlari deganda nimani tushunasiz?
3. Qaysi shakllarga nisbatan shaxsiy baho shakllari deyiladi?
4. Morfemalarning maʼnoviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari deganda nimani tushunasiz?

1-mashq. Gaplar asosida quyida berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Dunyoni qizgʻanma mendan, azizim, Sen ichgan buloqdan ichmasman aslo. (A.Oripov) 2. Avaz oʻrnidan qushday yengil turdi. Oppoq boʻlib yorishgan yangi tong havosidan, bezovta koʻnglida tugʻilgan yangicha bir tuygʻular navosidan jon-jahoni yayradi. (S.Siyoyev) 3. Dimoqqa qizigan asfalt hidi uriladi. (Oʻ.Hoshimov) 4. Oʻrtasiga qor uyib qoʻyilgan katalakdek hovli. (Oʻ.Hoshimov) 5. Nazoratchilarimiz

jamoatchilik topshiriqlari bilan birga o'z ish-vazifalarini ham vijdonan, halol ado etib, alohida ibrat ko'rsatmoqdalar. (Gazetadan) 6. U titrab ketayotgan barmoqlari bilan og'zini to'sdi. (O'.Hoshimov) 7. Vatan tarixini biling. Uni tuhmat va axlatlardan tinimsiz tozalang. Shavkatli tariximizni zamonaviy, mahobatli, tarixiy ishlar bilan boyitishga harakat qiling. 8. Sen bo'lmasang so'zlarning bag'ri ming tilim bo'lar, Onajon, ona tilim, mening shohona tilim. 9. So'zning yumshog'i g'azabni so'ndiradi, so'zning qattig'i esa odamni o'ldiradi. 10. Bolalikdan boshlangan do'stlik insonning keyingi ulg'aygan va kamol topgan davrida orttirgan barcha do'stlari orasida alohida ahamiyatga ega.

Topshiriqlar:

1. Gap tarkibidagi so'zlarning ma'noli qismlarini aniqlang.
2. Asos va qo'shimchalarni ajratib, qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra turini ayting.

2-mashq. So'zlarni ma'noli qismlarga ajrating. Morfemalarni funksional belgisiga ko'ra guruhlariga ajrating.

adabsizlarcha, aljiramoq, asabiylashtirmoq, anglamoq, shaxsiyatiga, aqlsizlik, kechikmoq, aksirmoq, kemtilgan, mardikorchiilik, kelishmovchilik, bilimdonlarimizning, so'roq, yutug'ini, ko'nglidagi, yuragimdan, ulg'aytirgan, chanqoq, og'zaki, yumshoq, o'ynab, uyum, uyim, issiq, tilim, uylanmoq, o'ylanmoq, terim, changi, haybarakallachi, qarichilik, tushunmovchilik, sarg'ayma, sirtmoq, quymoq, qaltiroq, guldurak, do'mbira, gulduros.

3-mashq. Matnni ko'chiring. Sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalarning gap qurilishidagi rolga e'tibor qiling. So'zlarni bog'lashga, so'zlarga alohida sintaktik vazifa belgilashga va so'zlarni ham bog'lash, ham gap tarkibida ma'lum sintaktik vazifaga xoslaydigan shakllarni ajratib, qavs ichida izohlang.

Hikoyat

Hind dengizida bir savdogar bor edi. U savdo-sotiq ishlarida juda mohir edi. Uning dimog'iga savdo moyasi o'rnashib olib, suvga g'arq bo'lish xayoliga ham kelmasdi. Bir mamlakatda o'n kun turmas, savdosi tugagach, yana suv sari yo'l tutar edi. U dengizni har xil ofatlardan xoli deb o'ylab, yillar shu yanglig' safar qildi. U Makka atrofini suvda necha bor aylanib o'tgan bo'lsa-da, uning yaqiniga yetgach, o'z farzini ado etmay qaytardi. Kishilar unga hajni ham bajarish kerak, deb aytar edilar. Ammo pul hirsini savdogarni u tomon borishga yo'l qo'ymas edi.

Bir kun dengizda bo‘ron ko‘tarildi. U tushgan kema goh osmonga sapchir, goh pastga tushib ketar edi. Savdogar savdo ishlariga g‘arq bo‘lganidek uning kemasi ham dengizda g‘arq bo‘ldi. Dengizda suzish xayoli haj sari yo‘l bermadi. Oxir-oqibatda u katta bir baliqqa yem bo‘ldi. (“Lison-ut tayr”dan)

4-mashq. Berilgan gaplarni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tarkibidagi lug‘aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchilarning so‘zning atash va vazifa semasiga ta‘sirini izohlang.

1. **Yemas** yerga o‘t bitar, **ichmas** yerga suv bitar. 2. Suvni sep **singar** yerga, so‘zni qil **sig‘ar** yerga. 3. **Ko‘rinmas** balo - oyoq ostida. 4. **Yotgan** ilonning quyrug‘ini bosma. 5. Bilimsiz mulladan ustiga yuk **ortilgan** eshak yaxshi. 6. **So‘zlay-so‘zlay** gapchil bo‘larsan, **ishlay-ishlay** epchil bo‘larsan. 7. **Toma-toma** ko‘l bo‘lur. 8. Oqsoqol **tayinlab-tayinlab** aytuvdila. 9. Loyga **belanib** ketmon chopgandan ko‘ra, tabelchi bo‘lsangiz yomonmi!... 10. Bobom saharlab eshak **minib** dalaga chiqib ketadi. 11. **Kelmoq** – ixtiyor bilan, **ketmoq** – ijozat bilan. 12. Pulni **topish** oson, uni sarflay **bilish** qiyin.

5-mashq. So‘zlarni ko‘chiring. Morfemalarning so‘zga qo‘shilish tartibini tushuntiring. Sodda va qo‘shma (murakkab) morfemalarni ajrat-ing. Birdan ortiq affiksning yaxlitlanish jarayonini izohlang.

1. kitobxonlarimizning, bilimdonlardan, keldingizlarmi, o‘qitish-maydi, aytmabmidim, ketmoqchiman, kitobchasiga, sarg‘imtirrog‘ni, o‘ntachasini, boryapmiz.

2. chorvachilik, temirchilik, mardikorichilik, oliftagarchilik, zargar-chilik, afsuslanmoq, uylanmoq, o‘ylanmoq, gulduros, sharros, yigitchasiga, mardlarcha, ulfatchilik, salomlashmoq, arazlashmoq, gazlashtirish, bahslashmoq, oylab, ishlab, saharlab, xayolan, shaklan, lazzatlan.

6-mashq. So‘zlarni ko‘chiring. Shakldosh, ma‘nodosh, zid ma‘noli, ko‘p ma‘noli affikslarni ajratib, ma‘nolarini namunadagidek izohlang.

Namuna: egik -ik, omonim af. (bit-ik, ot yas.; sin-iq, sifat yas.; zo‘r-iq, fe‘l yas.)

aqli, boshlang‘ich, ishchi, o‘chirg‘ich, aybdor, ehtiyotkor, uyushma, terim, tilim, boyi, tinchi, umidsiz, to‘lat, suzma, sportchi, paxtachilik, oqar, mevali, shirali, o‘roq, qo‘rqoq, qo‘zichoq, maqtanchoq, uzay, changi, sizsiz, o‘quvchimiz, unumli, savala, izla, ko‘pchilik, kelayotir, serhosil, bebaraka.

1. Tilimi tilimni ming tilim qilgan, Qirqmalar bog'ladi yukin qavg'aga. 2. Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukik, sening ziyoratingga keldim, sultonim. (Fitrat) 3. Bola edik, tanlar olov, qalb qaynoq, ko'zlar o'tkir, dillar sof, erkin-erkin o'ynardik. (H.Olimjon) 4. Bunim yo'q, unim yo'q, Uyimda unim yo'q. Ishimda unum yo'q, Aytishga unim yo'q. (Kamiy)

7-mashq. Gaplarni ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibida qo'llangan morfemalarning dialektal, poetik, tarixiy, fonetik va individual variantlarini toping.

1. Ming **yillarkim**, bulbul kalomi, O'zgaraydi, yaxlit hamisha. Ammo sho'rlik **to'tining** holi, O'zgalarga taqlid hamisha. (A.Oripov) 2. **Ko'rgali keldingmu** yor, **kuydirgali keldingmu** yor. (Qo'shiqdan) 3. **Oddiylik** – daholik **alomatidir**. (J.Sand) 4. Kuch **adolatdadur**. (A.T) 5. **Daryodan daryoni talab aylagil**. (A.Oripov) 6. Senga balki ayon, balki noayon, Bir hayot **hadisin** aylayin bayon... (A.Oripov)

8-mashq. So'zlar tarkibidagi derivatsion morfemalarni farqlang. Mashqlar asosida so'z yasovchi morfemalarning farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarini tiklang.

Ixtirochi, gulchi, tashkilotchi, xizmatkor, suratkash, mahsido'z, saharlik, qimmatchilik, og'riq, buyruq, qavariq, chiqim, eslatma, yig'in, cho'kindi, kuyundi, maqto'v, qarsak, jizza, sergap, bebosh, barkamol, say-ro'q, zaruriy, bahori, og'zaki, angla, ho'pla, afsuslan, salomlash, ulg'ay, sarg'ay, ko'kar, o'yna, qiyna, o'rnash, birik, changi, tinchi, saharlab, uycha, yigitcha.

9-mashq. Gaplarni ko'chiring. So'zlar tarkibidagi lug'aviy shakl yasovchilarning so'z lug'aviy ma'nosiga qay (aniqlashtirish, muayyanlashtirish, toraytirish va h.) darajada ta'sir etayotganligini aniqlab, qavs ichida yozing. Qaysi turkum so'zlari bilan ishlatilishiga diqqat qiling. Mashqlar asosida lug'aviy shakl hosil qiluvchilarning birlashtiruvchi belgilarini tiklang.

1. Zum o'tmay no'xtadan changallagan kuyi jar bo'yidan kelayotgan odam g'ira-shira ko'rindi. 2. Lazakat xola piyolaning og'zicha keladigan kulchani beshik boshiga qo'ydi. 3. Mening o'g'illarim bekorga o'lib ketadigan bolalarimas. 4. Chiqmagan jondan umid (maqol). 5. Qo'rqaman deb yig'lashimga qaramay meni yolg'iz qoldirdi. 6. Shundoq otang falaj bo'lib yotsa-yu, traktor haydashga balo bormi. 7. Kichkinaligimda tol

bargak taqishni yaxshi ko'rardim. 8. Odam esdan og'ishi hech gap emas ekan. 9. Iltijoli termulishini qara. 10. Kechalari yostiq quchoqlab yotish joniga tekkandir. 11 Uydagi sirni ko'chaga olib chiqishning nima keragi bor (O'.Hoshimov)

10-mashq. Ko'chiring. O'zakka affiks qo'shiluvida yuz bergan fonetik o'zgarishlar ta'sirida o'zak va affiks tarkibidagi sifatiy va shakliiy o'zgarishlarni namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: chanqog'ini, chanqa+q+i+ni ot yasovchi qo'shilganda tovush almashinuvi, egalik shakli qo'shilganda jarangsizning jarangli-lashuvi yuz bergan. O'zgarish o'zak va affiksdan kuzatilmoqda.

qiyog'iga, uyim, uyum, qorni, qo'yni, qayroq, yamoqqa, maqtov, gulduros, unga, seni, shahri, burnim, mavqeyi, obro'yi, singlisi, ko'nglim, qishlog'i, qishloqi, angla, o'yna, qiyna, ulg'aymoq, pasaymoq, yashamoq.

11-mashq. Matn tarkibidagi ajratilgan so'zlarni namunadagidek morfem tahlil qiling. Morfema haqidagi tushunchalaringizni xulosalang.

Xavotir

Qo'rqaman, ertaga men o'lib ketsam,

Yotar bo'lsam qumga botib ko'zlarim,

Ko'nglimni ko'chiday bosadi bir g'am –

Yig'lashni ham bilmas mening qizlarim...

Eng yaqin **do'stlarim** g'iybatim qilar,

Eng zaif dushmanim ustimdan kular.

Ular-ku, ne qilsa **o'zlari** bilar,

Yig'lashni ham bilmas mening qizlarim...

Shoir o'lsa kim ham kuyinar deysiz,

Madhiyaboz hozir suvarakday ko'p.

Ular misli qishda **tarnovdagi** muz,

Barmoq tegsa yerga to'kilar to'p-to'p...

Tildan qolsam ko'zda qotib **yoshlarim**,

Ko'nglimdan boshqa bor axir, ne zarim?

Yerlarga egilgan kuni boshlarim,

Yig'lashni ham bilmas mening qizlarim...

Ular yosh. O'limdan qo'rqaman yomon,

Chunki, dardiga hech quloq **solmadim**.

Qabrimning ustida **yig'lasin** debon,

Qizlarim **ko'zyoshin** asray olmadim! (M.Yusuf)

Morfem tahlil tartibi va namunasi

1. O'zak va morfemalarni aniqlash.
2. Morfemalarni funksional-semantik xususiyatiga ko'ra turini aniqlash.
3. Morfemalarni tuzilishiga ko'ra, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, o'zbekcha yoki o'zlashma ekanligini aniqlash.
4. Morfema variantlari.
5. O'zakka morfema qo'shiluvida yuz bergan fonetik o'zgarishlar.

be-g'ayrat-lig-i-dan

g'ayrat – o'zak morfema, be-, -lik, -i, -dan ko'makchi morfemalar
be-sifat yasovchi, -lik ot yasovchi, -i -III shaxs, birlikdagi egalik
shakli, -dan -chiqish kelishigi sh.

be-, -lik, -i, -dan – tuzilishiga ko'ra sodda; be- sinonimlari no-, -siz
(beumid, noumid, umidsiz), antonimlari ba / bo-, -li, -dor (beodob -
boodob, beaql - aqli, beunum - unumdor); be- fors-tojikcha, -lik, -i, -dan
– o'zbekcha; -i – shakldoshlari: 1. tinch+i – fe'l yasovchi, 2. do'zax+i –
alfaz yasovchi

-lig –fonetik variant, asli -lik, -dan -tan/nan – dialektik variantlari.

-lik morfemasida egalik shakli ta'sirida jarangsizning jaranglilashuvi
yuz bergan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston madhiyasi matnida qo'llangan yasama so'zlarni aniqlang.
2. Matnda eng ko'p tarkibiy qismga ega bo'lgan so'zlarni toping.
3. Matnda qo'llangan lug'aviy va sintaktik shakl yasovchilarni aytib yering.
4. Morfema haqidagi fikrlaringizni xulosalang.
5. Morfemalarning funksional tasnifini bering.
6. Sodda va murakkab morfemalarni tasniflang.
7. Yordamchi leksemalar va morfemalar orasidagi munosabat.
8. Lug'aviy shakl yasovchilarning UGMsi haqida gapiring.
9. Sintaktik shakl yasovchilarning UGMsi tog'risida so'zlang.
10. Lug'aviy-sintaktik shakl yasovchilarning UGMsini tavsiflang.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Tarkibida birgina qo'shimcha mavjud bo'lgan so'zni toping.

A. atamoq B. aylanma S. ho'plam D. haydovchi

2. Qaysi so'zlar tarkibida bir tovushdan iborat so'z yasovchi qo'shimcha mavjud?

1.kurak 2.sanoqsiz 3.sabotli 4.achchiq 5.badavlat 6.unumli

7. bo'yoqsiz 8. qaynoq 9. gulduros

A. 1,2,6,7,8 B. 1,2,4,7,8,9 S. 2,3,4,5,7,8 D. 1,2,4,8

3. Ma'noli qismlarga ajralmaydigan so'zlar qatori:

A. angla, bo'yoq

B. safsatavoz, ajrat

S. tupuk, jizza

D. dag'dag'a, lo'ttivoz

4. Bir xabar ber undan menga guldurak, Bir xabar bersangchi, tinimsiz yomg'ir.

Misralardagi so'z yasovchilarning miqdori?

A. 2 ta

B. 5 ta

S. 1 ta

D. 4 ta

5. Tarkibida ikkita qo'shimcha mavjud bo'lgan so'zni toping.

A. so'zlashmoq B. arralashmoq S. qiqirlashmoq D. janjallashmoq

6. Qaysi so'z ma'noli qismlarga ajraladi?

A. unut

B. oshkor

S. unum

D. qo'yin

7. Tub so'zlarni toping.

A. kemptik, qo'nim B. nodon, so'lim S. bodroq, kesim D. tayoq, kiyim

8. Salim aka bu yerlarni unumdor yerga aylantirish istagidami? Gapdagi qo'shimchalarning miqdori va ularning vazifasiga ko'ra turlari?

A. 2 ta SY, 3 ta lug'aviy SHY, 1 ta sintaktik SHY

B. 3 ta SY, 3 ta lug'aviy SHY, 4 ta sintaktik SHY

S. 2 ta SY, 2 ta lug'aviy SHY, 3 ta sintaktik SHY

D. 3 ta SY, 3 ta lug'aviy SHY, 3 ta sintaktik SHY

9. Mehmonlarning quvnoq qahqahasidan Mahmudning mudroq ko'zlari katta ochildi. Gapda nechta yasama so'z bor?

A. 2 ta

B. 3 ta

S. 4 ta

D. 1 ta

10. Birdan osmon guldirab, sharros yomg'ir quydi-yu, tinchidi. **Gapdagi bir tovushdan iborat yasovchi qo'shimchalarning miqdorini aniqlang.**

- A. 2 ta B. 1 ta S. 4 ta D. 3 ta

11. Tuyalar suvsizlikka chidamliligi bilan boshqa cho'l hayvonlaridan ajralib turadi. **Gapdagi qo'shimchalarning miqdori va ularning vazifasiga ko'ra turlari?**

- A. 2 ta SY, 3 ta lug'aviy SHY, 1 ta sintaktik SHY
B. 3 ta SY, 3 ta lug'aviy SHY, 4 ta sintaktik SHY
S. 5 ta SY, 4 ta lug'aviy SHY, 5 ta sintaktik SHY
D. 4 ta SY, 4 ta lug'aviy SHY, 3 ta sintaktik SHY

12. O'rnimdan turib uy eshigini ochsam, o'g'lim bilan o'rtog'i sovuqdan qulog'i, burni qizarib ketgan holda kutib turardi. **Gapda qo'shimcha qo'shilganda nechta so'zda fonetik o'zgarish yuz bergan?**

- A. 6 ta B. 3 ta S. 7 ta D. 5 ta

O'ZBEK TILI DERIVATSIYASI VA SO'Z YASALISHI

Tayanch tushunchalar: so'z yasalishi, so'z yasalish qolipi, shakl yasalishi, derivatsiya, asos, qo'shimcha, so'z yasovchi qo'shimcha, grammatik shakl, grammatik ma'no, unumdor qolip, unumsiz qolip, mahsuldor va kammahsul qoliplar, yasama so'z, ixtisoslashish, soddalashish, tublashish, leksemalashish, transpozitsiya, konversiya va polifunksionallik.

Aqliy hujum uchun savollar:

1. Derivatsiyaning til qurilishi tizimidagi o'rni qanday?
2. So'z yasashda zamonaviylik va tarixiylik nima?
3. So'z yasash qolipi deganda nimani tushunasiz?
4. So'z yasalish zanjiri nima?

1-mashq. Quyidagi matn asosida berilgan topshiriqlar tizimini bajaring.

Tomsuvoq

Qishloqda kuz pallasi **tomsuvoq qilish** udumi bo'lardi. Uning yozilmagan qoidasi bor. Birinchidan, hech kim tomini yolg'iz o'zi

suvamaydi: hamma hasharga keladi. Ikkinchidan, beva-bechora, qo'li qisqa xonadonning uyi eng avval tomsuvoq qilinadi, keyin, navbatmanavbat davom etaveradi...

O'qituvchimizning hashariga, ayniqsa, ko'p odam yig'ildi. Uyi katta yo'l yoqasida edi. Shundoq ko'cha chetidan **loyhandaq** qazilgan ekan. Somon katta yo'lining **ko'pchib** yotgan tuprog'iga qovushib, obdon yumshabdi. O'qituvchimizning Azim aka degan qo'shnisi **ishboshi** bo'ldi. Birov handaqaqa tushib loy soberib turdi, birov paqirlab loy tashiydi, yana birov tomدا turib, **ilgak** bilan tortib oladi, boshqasi hafsala bilan suvaydi...

Erta peshindayoq hamma ishni qoyil qilib tashladik. Hovli o'rtasidagi tut tagida **ovqatlanib** o'tirsak, **o'qituvchinning** keksa onasi kelib qoldi. (Keyin eshitsak, **bir hafta** avval ko'zi yorigan qizirikiga ketgan ekan). Kampir hassasini **do'qqillatib**, to'ppa-to'g'ri o'qituvchimizning oldiga bordi.

– Nima qilding? – dedi o'g'lining salomiga **alik ham olmay**. – Nima ish qilib qo'yding?!

Hammamiz hayron bo'lib qoldik. Muallim **o'quvchilarining** oldida, ayniqsa, mulzam bo'ldi, shekilli, qizarib ketdi.

– Nima qipman, oyi? – dedi ko'zlarini **pirpiratib**.

– Dard! – kampir hassasi bilan yerni nuqidi. – Sanga qachon aql kiradi, nodon bola! – Keyin Azim akaga **yuzlandi**.

– Bu-ku **ahmoqlik** qilishga qipti, siz qayoqda edingiz? Nega ko'chadan loy qildilaring?! Ko'chaning tuprog'iga tegib bo'ladimi, nobakor! **Ko'pchilikning** haqi-ku bu! – Bir zum **harsillab** turdi-da, **to'satdan yig'lab** yubordi.

– Man yurtning haqiga suvalgan tom tagida turmayman! – Shunday dedi-yu, supa labiga borib, ters o'tirib oldi...

... Hammamiz qaytadan tomga chiqdik... **Suvoq** qilishdan ko'ra loyni ko'chirish qiyin bo'larkan. Bitta qoldirmay, **qirtishlab**, tomдан tushirdik. **Paqirlab** tashib, ko'chadagi loyhandaqni to'ldirib qo'ydik...

... Oradan yillar o'tib, kampir ko'z yumganida tumonat odam uni o'sha ko'chadan **so'nggi** manziliga ko'tarib bordi...

Ko'cha tuprog'i **iliq** edi... Mayin edi... (O'.Hoshimov)

Topshiriqlar:

1. Matnda ajratilgan so'zlardagi ma'noli qismlarni aniqlang. Ularni mustaqil qo'llanadigan va mustaqil qo'llanmaydigan ma'noli qismlarga ajrating. Mustaqil qo'llanmaydigan ma'noli qismlarni yangi lug'aviy ma'no hosil qiluvchi va yangi lug'aviy ma'no hosil qilmaydigan turlarga ajrating.

2. So'z yasovchi morfemalardagi umumiylik va farqlarni aniqlang.

2-mashq. Quyidagi so'zlarni ko'chiring. Yasalish qolipini aniqlang. Qoliplarning shakliy va mazmuniy tomonini tavsiflang. So'z yasash asosi va yasalma o'rtasidagi mazmuniy muvofiqlikka diqqat qiling.

suhbatlashmoq, asabiylashmoq, sensiramoq, kechikmoq, chiniqmoq, boyimoq, kamimoq, ozimoq, ranjimoq, boshqarmoq, suvsamoq, gapirmoq, ko'zikmoq, to'lin, to'kin, sog'in, ichikmoq, sevinmoq, chaqmoq, uyushiq, bog'lama, sifatdosh,


3-mashq. Yasama so'zlarni ko'chiring. Sodda va qo'shma so'z yasash qolipi hosilalarini farqlang. Qo'shma so'zlarning so'z birikmasi, frazeologik birikma, yordamchi so'zli qurilmalardan farqini bayon qiling.

1. Tangrim, meni do'stlardan panohingda saqla, dushmanlarni o'zim eplayman. (Volter) 2. Tuzsiz she'rlarim deb shirindan shirin Bolalarim yurar oyoq uchida... (M.Yusuf) 3. Daraxtni yaxshi parvarish qilsang, mevasi yaxshi va shirin bo'ladi. ("Qobusnoma"dan) 4. Mirkomil aylana stol atrofida uzoq o'tirib qoldi. 5. U fursatdan foydalanib olmasini sotib oldi. 6. Ichi qora odamdan yaxshilik kutma. 7. Tibbiy ko'rikdan o'tgach, barcha nomzodlar to'satdan tanlovga ishtirok etishdan bosh tortishdi. 8. Muzlagan qorni g'arch-g'urch bosgancha qadamimizni tezlashtirdik. (O' Hoshimov) 9. Sunnatjon yangi mashina sotib oldi.

4-mashq. Berilgan so'zlarning unumli yoki unumsiz SYQ hosilasi ekanligini aniqlang. Unumsiz qolip hosilalarining qaysi yo'l bilan hosil qilinishini bayon eting.

bo'g'iz, botqoq, urushqoq, kamsitmoq, izg'imoq, izchil, qisqa, sog'lom, qishloq, kelin, kelishmoq, qopchiq, sevinmoq, ko'rishmoq, so'lashmoq, boqmoq, qarashmoq, o'qituvchi, urishmoq, sotuvchi, o'tirish, kirish, qizilcha, ko'kcha, belanchak, kuyunchak, kelinchak, chaqmoq, kechirmoq, sog'inmoq, surishtirmoq, uyg'otmoq, solishtirmoq, to'ldirmoq, kelishmovchilik, seskanmoq, cho'mich, ichak, qattiq, suyinmoq, ko'chat, erkak, zumda, birga, birda, birdan.

5-mashq. Ot, fe'l, sifat va ravish yasalishining unumli sodda va qo'shma SYQlarini aniqlang. Qoliplarning shakliy va mazmuniy tomoni hosilalarda qanday xususiylashganini aniqlang. Qo'shma so'zlarning imlosi haqida fikringizni bayon qiling.



kishanla, dodla, sizla, hozirla, salomlash, afsuslan, yaltira, o'yna, qiyna, qoray, oqar, gumonsira, yo'liq, kechik, tinchi, abgor qilmoq, ado bo'lmoq, ayyuhannos solmoq, tartibga keltirmoq, oh urmoq, tush ko'rmoq, qo'nim topmoq, tomchi, suyunchi, ninachi, obunachi, tajovuzkor, mahsido'z, mantipaz, arizaboz, kekirik, yonilg'i, qo'nim, kechirim, dimlama, bo'g'in, savag'ich, sevinch, g'urrak, g'arg'ara, uvvos, sharros, kechuv, toshko'mir, karnaygul, qoraqurt, mingoyoq, qo'ziqorin, sochpopuk, piyozdog', O'rta Chirchiq, kaltakesak, Markaziy Osiyo, Sho'rko'l, ko'ksulton, qoradori, Oltiariq, uchburchak, mingoyoq, iskabtopar, ishlab chiqarish, savacho'p, gavdali, yeyishli, aloqador, nasldor, sergo'sht, beg'ubor, yashovchan, urinchoq, qizg'anchiq, yeyarmon, yig'loqi, so'lg'in, ko'chma, arziri, jirkanch, imloviy, ichki, dahanaki, badhazm, izchil, terskay, gapdon, qaram, sog'lom, qisqa, devqomat, kafangado, sho'rpehona, sho'rtumshuq, xudobezor, kamgap, cho'rtkesar, o'zboshimcha, tilyog'lama, o'zbilarmon, qirqyamoq.

6-mashq. Soddalashish, ixtisoslashish va tublashish natijasida leksemalashgan birliklarga barcha so'z turkumlari doirasida misollar keltiring.

Derivatsion (so'z yasalishi) tahlil tartibi va namunasi

1. Qolipi aniqlanadi.
2. Qolip hosilasining nutqiy, lisoniylashayotgan yoki lisoniylashganligi aniqlanadi.
3. So'z yasovchi morfemalar aniqlanadi.

Bilimdonlik

[sifat + lik] = asosdan anglashilgan belgi bilan bog'liq holatni bildiruvchi ot yasalyapti. Lisoniylashgan. Unumli lisoniy qolip. *-im* ot yasovchi, *-don* sifat yasovchi, *-lik* ot yasovchi qo'shimcha.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Unumli va unumsiz SYQlari haqida ma'lumot bering.
2. Yasama so'zlarda ixtisoslashish, soddalanish, tublanish jarayonlari xususida to'xtaling.
3. Atamaviy tizimlardagi SYQlari xususida ma'lumot bering.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Qaysi qatordagi soʻzlar -iq qoʻshimchasi bilan yasalgan?

- A. boʻgʻriqmoq, qiziqmoq B. chiniqmoq, tiniqmoq
S. oshiqmoq, siriqmoq D. zoʻriqmoq, zoriqmoq

2. Tarkibida ikkita yasovchi qoʻshimcha mavjud boʻlgan soʻzni toping.

- A. chanqoq B. shildiroq S. isitma D. oʻtroq

3. Qaysi soʻz tarkibida soʻz va shakl yasovchi qoʻshimcha mavjud?

- A. qaynatma B. yoʻqlama S. Toʻplam D. qoʻlyozma

4. Zaynab oʻzining xatosini angladi va gapirolmay gʻuldirab javob berdi.

Gapdagi soʻz yasovchilarning miqdori?

- A. 2 ta B. 3 ta S. 1 ta D. 4 ta

5. -oq qoʻshimchasi bilan yasalgan soʻzni toping.

- A. uzoq B. uygʻoq, shildiroq S. suvoq D. qoloq

6. Salimning xoʻrsinib gapirganini koʻrgan doʻsti uning bu uyda qiynalib yashaganini angladi. Gapdagi soʻz yasovchilarning miqdori?

- A. 2 ta B. 5 ta S. 1 ta D. 4 ta

7. Yasama soʻzni toping

- A. pishirmoq B. oʻchirmoq S. ichirmoq D. tupirmoq

8. Terimchilarga soʻzi uchun yasovchi asos toʻgʻri koʻrsatilgan qatorni toping.

- A. terim B. terimchi S. ter D. terimchilar

9. -q qoʻshimchasi bilan yasalgan soʻzni toping.

- A. yonoq B. qoʻrqoq, S. qochoq D. oʻtoq

10. Soʻz yasovchi qoʻshimcha shakl yasovchidan soʻng qoʻshilgan yasama soʻzni toping.

- A. agʻdarma B. yarqiramoq S. ivitma D. yoʻqlama

HOZIRGI O'ZBEK TILI GRAMMATIKASI. GRAMMATIK SHAKL VA GRAMMATIK MA'NO

Tayanch tushunchalar: grammatika, morfologiya, sintaksis, shakl yasalishi, grammatik shakl, grammatik ma'no, morfologik va sintaktik ma'no, umumiy grammatik ma'no, oraliq grammatik ma'no, xususiy grammatik ma'no, kategorial ma'no, yondosh va hamroh ma'no.

1-mashq. Berilgan gaplardagi ajratilgan shakllar asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Kutubxonadan **Xushnidaga** ikkita kitob oldim. 2. U **o'qishga** kelgan. 3. A'loxon yana dars **tayyorlamaganiga** uyaldi. 4. Muhabbat **bog'iga** kirmadim bir bor, Suyib bir **gulga** qo'l urmadim bir bor. (M.Yusuf) 5. Uning yuzlari **quvonchdan** yorishib ketdi. 6. Ko'nglim qolsa **bulbuldan** ham, guldan ham, Qolar bo'lsam bir kun axir tildan ham, Agar bir zot yig'lasa chin **dildan** ham, Onam yig'lar... (M.Yusuf) 7. Mohinur **divandan** stolgacha yurib bordi. 8. U yolg'on **gapirganidan** uyaldi. 9. Sunnatjon hammadan ham **singlisini** ko'proq yaxshi ko'radi. 10. U **telefonda** uzoq gaplashdi. 11. Uning suyaklari **mehnatda** qotgan. 12. Kuch – **adolatda**.

Topshiriqlar

1. Berilgan gap tiplaridagi ajratilgan so'zlaning leksik va grammatik ma'nolarini aniqlang.

2. So'zlarning lug'aviy ma'nosini modifikatsiyalovchi (aniqlashtiruvchi, muayyanlashtiruvchi, toraytiruvchi va h.) va so'zlarga sintaktik mavqe belgilovchi, biror grammatik kategoriyaga mansub bo'luvchi, grammatik kategoriya tarkibiga kirmaydigan grammatik shakllarni turli jihatlariga ko'ra alohida-alohida sharhlang.

2-mashq. Gaplar tarkibida ishlatilgan son shakllarining xos va umumiy ma'nolarini aniqlang. Umumiy va xos ma'nalarga tayanib son kategoriyasining umumiy, xususiy va oraliq (kategorial, yondosh, hamroh) ma'nolarini tiklang.

1. Onajonim kechalari kirib chiqar tushimga. Qo'llarida oq yelpig'ich oy nurida yaltirar, Onajonim imlab meni qoshlariga chaqirar. Keltirarlar goho beshik, Ko'zlarida hayajon... (A.Oripov) 2. Nechun menga g'amli termulding, Nigohingdan qizardi yuzlar. Bu yerlarga sen nega kelding, ma'sum ko'zlar, ma'suma ko'zlar. (A.Oripov) 3. O'zlari kim bo'libdilarki, menga qichqiradilar. 4. Bolaning shunchalar qiynalganini eshitib yuraklarim ezilib ketdi. 5. Oyi, Azizalarnikiga bormaymizmi? 6. Yana kelibdilarda,

kismlari 6. Akamlar keldilar. 7. Akalarim kelishdi. 8. Undan buyon qancha suvlar oqib ketdi. 9. Do'konga suvlar keldi.

3-mashq. Matnni ko'chiring. So'zlarning grammatik shaklini hosil qilgan ko'rsatkichlarni (lug'aviy, sintaktik, lug'aviy-sintaktik) aniqlang. So'zning grammatik shaklini olgan va olmagan holatlaridagi farqlarni bayon qiling. Namoyon bo'lgan belgilar asosida grammatik shakllarni ta'riflang.

Sen bahorni sog'inmadingmi?

Uyg'onguvchi bog'larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yonog'ingdan rang olgan dedim -
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o'zingni,
- Sen bahorni sog'inmadingmi?

Uzoqlarda zalvorli tog'lar
Xayolimni keldilar bosib.
Kechdi qancha intizor chog'lar,
Vasling menga bo'lmadi nasib,
Sensiz men ham, bahor ham g'arib,
- Sen bahorni sog'inmadingmi?

O'ngirlarda sakraydi ohu,
Na'matakda sa'va mittijon.
Qorliklardan sipqarilgan suv,
Daralarda uradi javlon.
Nigohimdan faqat sen pinhon,
- Sen bahorni sog'inmadingmi?

Mana, bugun navro'zi olam,
Do'stlaringa gullar tutarman.
Qaylardasan, sevgili erkam...
Qo'limda gul, seni kutarman,
Umrim bo'yi chorlab o'tarman,
- Sen bahorni sog'inmadingmi? (A.Oripov)

4-mashq. Gaplarni ko'chiring. Sintetik yoki analitik yo'l bilan hosil bo'lgan morfologik shakllarni aniqlang.

1. Deraza ochilishi bilan Yo'lchi boshini ko'tardi. (Oybek) 2. Hashamatli mehmonxona mehmonlar uchun bezatildi. 3. Bu hol kun sayin takrorlanib turardi. 4. Ikki yildan buyon dom-darak yo'q. 5. Tingla, bu abadiy sado bo'ladi, Gadoning dushmani gado bo'ladi. Ikkovi bir-birin yegunicha to O'rtada bu dunyo ado bo'ladi. (A.Oripov) 6. Ra'no yer tagidan Rahimjonni kuzatdi. 7. Yetti yoshdan tortib yetmish yoshgacha shu yerda to'plangan edi. 8. Ulug'bek endi ketmoqchi edi. 9. Umida kecha ham darsga kechikib kelgan ekan. 10. Mukammal ko'rmoqchi bo'ldik dunyoni, Yetuk bo'lolmadik o'zimiz biroq. Oh yillar armoni, yillar armoni, Armon ko'rmadim men sizdan buyukroq. (A.Oripov) 11. Siddiqjon ostonada uzoq turib qoldi. (A.Qodiriy) 12. Shu tariqa yashnab-yayrab maydonni kesib o'tishdi. (P.Q.) 13. O'qigan o'qdan o'zar. 14. Aytolgan va aytolmagan so'zlarim uchun uzr. 15. Kelavering, o'zim kutib olaman.

GRAMMATIK KATEGORIYALAR

Tayanch tushunchalar: morfologiya, grammatik shakl, grammatik ma'no, grammatik kategoriya, morfologik kategoriyalar, sintaktik kategoriyalar, kesimlik kategoriyasi, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, taniflovchi kategoriyalar, lug'aviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar

Blits - so'rov

1. Morfologiya va sintaksisning dialektik birligi deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek tili morfologiyasining asosiy tamoyillarini sanang.
3. Grammatik ma'no ifodalovchi vositalarni sanang.

1-mashq. Gaplar tarkibida ishtirok etgan morfologik kategoriya shakllarini aniqlang. Shaklning morfologik-semantik yoki morfologik-sintaktik kategoriyaga mansub ekanligini izohlang.

1. Men ketarman bir kuni, navolarim, zorim qolur... (M.Yusuf) 2. Sovuq, ammo rutubatsiz havoda u o'zini ancha yengil his etdi. (Shuhrat)
3. Ayolga baxt bering, saodat bering, Demang yuribdi-ku, kulib, jilmayib. (Z.Mo'minova) 4. Anor, sening yuzlaring suluv... (M.Yusuf) 5. Men sizga armon bo'lay, zolim begim...(H.Xudoyberdiyeva) 6. Biz hali hammadan o'tamiz, qizim!.. (M.Yusuf) 7. Ko'p jahongir ko'rgan bu

dunyo, Hammasiga guvoh – yerosti. Lekin, do'stlar, she'r ahli aro Jahongiri kam bo'lar, rosti. (A.Oripov) 8. Sevgi, menga bo'ylama, Mehring bilan siylama. (M.Yusuf); 9. Sevgi! Sening shirin tilingdan Kim o'pmagan, kim tishlamagan? (U.Nosir) 10. Ey maqtanchoq va o'zi bilarmon odamzot! Loaqal oyog'ing ostida toptaluvchi oddiy chuvalchangni yaratib ko'r-chi! (Jan de Labryuyyer)

2-mashq. Gaplar tarkibida qo'llangan barcha kelishik shakllarining nutqiy voqelanishiga tayanib kelishik kategoriyasining xususiy va oraliq grammatik ma'nosini aniqlang. Xulosalar asosida har bir kelishik shaklining UGMsini tiklang.

Tilak

Har kimning ham sochlariga oq tushsin,
Ajin tushsin yuzlariga, dog' tushsin.
Har kimning ham quvvat ketib belidan,
Qo'llariga aso – bir tayoq tushsin.

Imoni sof, yuzga kirib yorug' yuz,
To'ylar ko'rib yelkasidan tog' tushsin.
Jismiga so'nggi safar oldidan
O'z bolasin qo'lidan tuproq tushsin...(M.Yusuf)

Morfologik tahlil tartibi va namunasi

1. Ifodalaydigan kategorial umumiy ma'nosiga ko'ra qaysi turkumga mansubligi.
2. Shu so'z turkumining qaysi lug'aviy-mazmuniy guruhga mansubligi aniqlanadi.
3. Grammatik shakli – lug'aviy va sintaktik shakllari.
4. Tuzilishiga ko'ra.
5. Gapdagi vazifasi.

*Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Tuproq'in ko'zimga aylab to'tiyu.* (A.Oripov)

tuproq'in – ot, turdosh ot, III shaxs birlik, tushum kelishigining qisqargan poetik varianti, sodda, vositasiz to'ldiruvchi.

ko'zimga – ot, turdosh ot, I shaxs birlik, jo'nalish kelishigi, sodda, to'ldiruvchi.

aylab to'tiyo – fe'l, harakat fe'li. qo'shma fe'l – to'tiyo aylib - so'z tartibi poetik talabga ko'ra o'zgargan. Ravishdosh shakli, bosh nisbat, xabar mayli, bo'lishli, o'tgan zamon shakli, ravish holi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

4. Grammatik ma'no haqida ma'lumot bering.
5. Son kategoriyasi misolida OGM, XGM va UGM tushunchasini izohlang.
6. UGMni ochish yo'llari (paradigmatik munosabat) haqida ma'lumot bering.
7. Falsafada kategoriya tushunchasi. Grammatik kategoriya haqida ma'lumot bering. Morfologik-semantik (tasniflovchi) va morfologik-sintaktik (vazifaviy) kategoriyalar haqida gapiring.
8. O'zbek tili GKlari tasnifini bayon qiling.
9. Morfologik shakl va uning yasalish usullari haqida gapiring.
10. Yirik leksik-grammatik kategoriyalar haqida ma'lumot bering.
11. So'z turkumlarining ma'noviy, morfologik va sintaktik tasnifi haqida gapiring.

HOZIRGI O'ZBEK TILIDA MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARI

Tayanch tushunchalar: morfologiya, so'z turkumi, mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar, oraliqdagi so'zlar, o'zgaruvchi so'zlar, o'zgarmas so'zlar, atash ma'nosi, grammatik ma'no, fe'l, ot, sifat.

1-mashq. Matn tarkibidagi so'zlarni mustaqil, yordamchi va alohida so'zlar guruhiga ajratib yozing. Har bir so'z turkumining umumiy grammatik xususiyatlari haqidagi qarashlaringizni umumlashtiring.

Laylak

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g'o'r edi, bola go'dak edi... Kunlarning birida ona-bola qishloqqa – uzoq qarindoshlarinikiga boradigan bo'lishdi. Ona qaddini g'oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang qilib atrofdagi manzaralarni tomosha qilar edi.

Qishloq guzarida yarmini yashin uchirib ketgan bahaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni ko'rib angrayib qoldi: chinorning tarvaqaylab o'sgan shoxida supradek kattakon uya qorayib ko'rinar, uyada esa oyog'i, tumshug'i uzun bir qush turar edi.

Bola mo'jiza ko'rgandek taqqa to'xtab qoldi.

– Anavi nima, oyi? – dedi o’sha tomondan ko’z uzmay.

– Laylak, o’g’lim, laylak! – ona o’g’lining boshini silab qo’ydi. – Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko’rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to’xtab qoldi.

– Nima u, oyi? – dedi tag’in chinor uchiga ko’z tikib.

– Laylak, o’g’lim, laylak.

– Nimaga bir oyoqda turibdi?

Ona kuldi:

– Bir oyog’i charchagandir-da. Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko’rmagan edi. Qush negadir bo’ynini cho’zib tumshug’ini osmonga qaratib silkitar, shunda “taraq-taraq” degan ovoz eshitilardi.

Bola tag’in to’xtab qoldi.

– Nima o’zi u, oyi?

Uning ko’zlarida quvonch bor edi. Hayrat bor edi. Ona shoshib turardi. Mingta yumushi bor edi. Hali shaharga qaytishi kerak.

– Laylak dedim-ku, jinnivoy,- deb ohista egilib, o’g’lining yuzidan o’pdi. – Senga salom beryapti-da!

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi.

... Oradan o’ttiz besh yil o’tdi. Bola yigit bo’ldi. Ona keksayib qoldi. Oyog’idan mador, ko’zidan nur ketdi.

Kunlardan birida ona-bola ittifoqo yana o’sha qishloqqa borib qoldilar. Yigit qaddini g’oz tutib tez-tez yurib borar, ona esa toliqqan oyoqlarini, og’ir-og’ir ko’tarib bosganча harsillab kelardi. Guzardagi yarmini yashin uchirib ketgan chinor hali ham bor ekan. Buni qarangki, chinorning tarvaqaylab o’sgan shoxida hamon supradek kattakon uya qorayib ko’rinar, uyada esa oyog’i, tumshug’i uzun laylak turardi. Yigit laylakka bir qarab qo’ydi-yu, qadamini tezlatdi. Orqada kelayotgan ona nursizlanib qolgan ko’zlarini chinorga, chinor shoxida qorayib turgan uyaga tikdi. Shoxda osilib turgan narsa ko’ziga g’alati ko’rindi.

– Anavi nima, o’g’lim? – dedi to’xtab.

– Laylak, oyi, laylak!

Ona yaxshi eshitmadi. Uch-to’rt qadam yurib yana to’xtab qoldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarib ko’rinyapti. Qiziq...

– Nima, o’g’lim? – dedi ko’zlarini pirpiratib. O’gil taqqa to’xtadi. G’ashi keldi. O’zi shoshib turibdi: mingta ishi bor! Odam qariganidan keyin ezma bo’lib qolarkan-da!

– Laylak! – dedi jerkib. – Laylak deyapman-ku, karmisiz!

Shunday dedi-yu, jahl bilan tez-tez yurib ketdi. Nachora, yigit yosh, yigit navqiron. Uning yumushi ko'p. Hali shaharga qaytishi kerak... Uning yumushi ko'p. Hali shaharga qaytishi kerak... Uning g'o'r, go'dak bolalari bor... (O'.Hoshimov)

FE'L SO'Z TURKUMI

Tayanch tushunchalar: harakat fe'li, holat fe'li, mustaqil fe'llar, yordamchi fe'llar, to'liqsiz fe'l, ko'makchi fe'l, fe'ning lug'aviy shakllari, fe'ning munosabat shakllari, o'timli va o'timsiz fe'l, tuslangan va tuslanmagan fe'llar, nisbat kategoriyas, bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi, o'zgalovchi kategoriya, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, harakat tarzi kategoriyasi.

Blits-so'rov

1. Fe'llardagi o'timli-o'timsizlik haqida ma'lumot bering.
2. Fe'llarnig LMGlari va uning markaziy leksemalarini sanang.
3. Fe'l yasalish qoliplari haqida gapiring.
4. Fe'ning tasniflovchi lug'aviy shakllari xususida ma'lumot bering.

1-mashq. Berilgan matn asosida quyida keltirilgan topshiriqlarni bajaring.

Taomning eng yaxshi qaylasi – nafsni tiyish. (Suqrot)

Ochko'zlik zaharlanishga olib keladi. Har bir yangi zaharlanish umrni qisqartirish sari qo'yilgan yangi bir qadamdir. O'zingizni ortiqcha ovqatlanish bilan zaharlamang. Bu sizni muddatidan oldin qabrga yetaklaydi. Inson sanchqi va qoshiq bilan o'ziga qabr qaziydi. (Pol S Bregg)

Hayot – bu ovqatlanish fojiasidir. (Arnold Ernest)

Agar me'yordan chiqib ketilsa, to'qlikning ham, ochlikning ham, boshqa narsalarning ham xosiyati bo'lmaydi.

Parhez taomlarning ta'siri davomli, dori darmonlarning ta'siri esa o'tkinchidir. (Gippokrat)

Uzoq yashamoqchi bo'lsang, kamroq ovqatlan. (B.Franklin)

Hazm bo'lmagan taom uni yegan odamning o'zini yeydi. (Abul Faroj)

Ertangi ishlar uchun salomatliging yaroqli va kuch-quvvating yetarli bo'lishini istasang, kundalik taoming yetarli va sifatli bo'lsin. (Ezop)

Taomni noto'g'ri tanlab bemavrid tanovul qilgan odam halokatga yuz tutadi, to'g'ri ovqatlanish evaziga esa umruzoqlik, salomatlik, kuch-quvvat va huzur-halovatga erishadi. (Nagarjuna)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Gaplar tarkibidagi harakat bildiruvchi so'zlarni ajrating.

2. Qayd qilingan so'zlarni mustaqil holda harakat bildiradigan, nisbatlanadigan, tuslanish paradigmasiga ega bo'la oladigan va mustaqil harakat bildirmaydigan, tuslanish paradigmasiga ega bo'la olmaydigan guruhlariga ajratib alohida yozing va izohlang.

3. Mustaqil va nomustaqil fe'llardagi umumiylik va farqlarni aniqlang.

4. Mavzu yuzasidan testlar tuzing.

2-mashq. Berilgan gaplardagi fe'llarni LMGlarga birlashtiring. Markaziy va qurshov leksemalarning voqelanishlarini aniqlang.

rahmi kelmoq, xushomad qilmoq, xayol surmoq, yurmoq, quvg'in bo'lmoq, qurmoq, hosil bo'lmoq, vaqillamoq, gandaraklamoq, tepkila-moq, tisarilmoq, solmoq, xulosaga kelmoq, holsizlanmoq, kuymoq, kuchlanmoq, zaiflashmoq, ko'tarilmoq, urilmoq, chizmoq, kambag'al-lashmoq, shapaloqlamoq, chimchilamoq, chertmoq, qorasi o'chsin, ho-vuchlamoq, chapak chalmoq, gapirmoq, demoq, esankiramoq, g'azab-lanmoq, yo'rg'alamoq, barpo qilmoq, arralamoq, sayqal bermoq, yemoq, o'chirmoq, fikrlamoq, ko'z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, yaxshi ko'rmoq, e'zozlamoq, o'rnidan turmoq, raqsga tushmoq.

3-mashq. Gaplarni ko'chiring. Fe'llarning o'timli-o'timsizligini aniqlang. O'timli fe'llarni o'timsiz, o'timsiz fe'llarni o'timli fe'llarga aylantiring. O'zgarishni vujudga keltiruvchi vositalarni aniqlang. Qurshov-da yuz bergan semantik-sintaktik farqlarni izohlang.

1. Bir mahal G'ulomjon tuynukdan erinib chiqayotgan tutunga qarab so'zlandi. (M.Ismoilij) 2. So'ng uzun do'nglik ortiga o'tib, ko'rinmay ketdi. (P.Qodiriy) 3. Yigit ko'zini yashirishga joy topolmay qiynaldi. (S.Ahmad) 4. Davlatbekovning tug'ilgan qishlog'i Bodomzor bu yerdan o'n bir chaqirim pastda. (P.Qodiriy) 5. Yuzlari semizlikdan tirsillagan Arabboy kerilgan bir holda so'radi. (P.Tursun) 6. Bu qishloqda Avazning eng ochilib gaplashadigan tengdoshi shu Zamonali edi. (P.Qodiriy) 7. Bu yerda chetan bilan o'ralgan mol qo'rasi bor edi. (P.Qodiriy) 8. Boboxo'ja domla ishdan bo'shatildi. (P.Tursun) 9. Bu ko'cha bilan ikki-uch yuz

odim yurilgach, qishloq guzariga yetiladi. (H.Sharipov) 10. Rasmi, yomon xotindan qochiladi, zamona shum bo'lsa, yaxshi xotindan ham qochar ekan kishi. (A.Qahhor) 11. Anchagina yurgach, o'ng tomonda paxsa uy ko'zga tashlanadi. (S.Nurov) 12. Bu dori spirtida ivitilib, qiyom qilib ichiladi. (N.Safarov)

4-mashq. Matn asosida quyida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Bemor

Osmon yiroq, yer qattiq (maqol).

Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi - bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi, betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi, baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib, tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi. Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxonona bor. Bu doktorxonona to'g'risida Sotib oldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va oq imorat: shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayin Abdug'aniboy omborida qulab ketgan qoplar ostida qolib uladigan bo'lganida bu doktorxonona bormay Simga ketgan edi.

Doktorxonona deganda Sotiboldining ko'zi oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi. Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa, hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

— Devonai Bahovaddinga hech narsa ko'tardingmi? G'o'avsula zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi — har xil savatchalar to'qishni o'rgandi. U ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko'milib savat to'qiydi. To'rt yashar qizchasi qo'lga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo'riydi, ba'zan, qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g'ing'ilaydi. Bemor inqillaydi, har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshutiladi: “Hey do'st, shaydullo ba nomi Olo, sadaqa raddi balo, ba qavli rasuli xudo...”

Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga birov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo'shnisi – bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq bu yog'ini siladi, so'ngra ... o'tirib yig'ladi.

– Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni! – dedi.

Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi. Keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatgan duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan kunga battar, oxiri o'sal bo'ldi. "Ko'ngilga armon bo'lmasin" deb "Chilyosin" ham qildirishga to'g'ri keldi. Sotiboldi to'qigan savatlarini ulgurji oladigan baqqoldan 20 tanga qarz ko'tardi. "Chilyosin"dan bemor tetik chiqqanday bo'ldi, shu kechasi hatto ko'zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

– Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang.

Yana ko'zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi – saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin... (A.Qahhor)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Gaplar takibidagi harakat va uning bajaruvchisi orasidagi munosabatni bildiruvchi shakllarni aniqlang.

2. Gaplardagi har bir nisbat shaklining ma'noviy xususiyatlarini alohida sharhlang.

3. Nisbat shakllarini o'zaro qiyoslang. Nisbat shakllari qo'shilishi natijasida yuz bergan sifatiy(so'z yasash) va sifatiy bo'lmagan (grammatik shakl hosil qilish) o'zgarishlarni aniqlang.

4. Barcha nisbat shakllari uchun umumiy bo'lgan tomonlarni aniqlang.

5. Nisbat shakllarining bir-biridan farqli tomonlarini aniqlang.

6. Klaster asosida nisbat kategoriyasi haqida umumlashma xulosa chiqaring.

5-mashq. O'zlik va majhul nisbat shakllarini farqlashda sintaktik qurshovning rolini aniqlang.

Namuna: Operatsiya uchun xona tayyorlandi – majhul nisbat (harkat kimdir tomonidan bajarilgan). Abituriyent test sinovlariga puxta tayyorlandi – o‘zlik nisbat (harkat o‘z ustida bajarilgan)

1. Operatsiya uchun xona tayyorlandi. 2. Abituriyent test sinovlariga puxta tayyorlandi. 3. Yo‘l chekkasidagi gullar ochildi. 4. Xonani tozalashdan oldin eshik-derazalar ochildi. 5. Mohinur xayolga berildi. 6. Intizomli, a‘lochi talabalarga mukofot berildi. 7. Masala ikki yo‘l bilan ishlandi. 8. Bahorda yerlar ishlanib, chigit qadaldi. 9. Yerning unumdorligi ko‘tarildi. 10. Parda yopilishi bilan qarsak ko‘tarildi. 11. Qizcha nariroq surildi. 12. Ish ancha ilgari surildi. 13. Qaror o‘qildi. 14. Daryo chayqaldi. 15. Nutq plyonkaga yozildi. 16. U “Yosh havaskorlar” to‘garagiga yozildi. 17. Qush o‘ljasiga o‘qdek tashlandi. 18. Uning ayblari ochib tashlandi. 19. Yormatni, ayniqsa, Gulsumbimini o‘ylab, ularga achindi. (Oybek)

6-mashq. Bir necha nisbat shaklining bir so‘z tarkibida qo‘llanish sabablarini aniqlang.

chiqartirdi, yotqizildi, oldirtirishdi, go‘zallashtirildi, kiyintirishdi, jonlantirildi, kelishtirishdi, yozdirtirdi, uxlatildi, o‘ylantirishdi, yurdirtirishdi, surishtirildi, soddalashtirildi, bezantirishdi.

7-mashq. So‘z tarkibida yaxlitlangan nisbat shakllarini ajrating. Nisbat shakllarining o‘timli-o‘timsizlikka ta‘sirini aniqlab, qavs ichida izohlang.

tortinmoq, qarashmoq, ko‘rishmoq, yarashmoq, kelishmoq, yetishmoq, cho‘qinmoq, botinmoq, achinmoq, sevinmoq, kechirmoq, o‘ynashmoq, to‘ldirmoq, sog‘inmoq, kelin, yig‘in, kirish, tuzat, yupat, surishtir, uyg‘ot, uyg‘on, solishtir.

8-mashq. Fe‘llarning bo‘lishli-bo‘lishsiz shakllarini ajrating. Ularning tasdiq/inkor shakllaridan farqini bayon qiling.

1. Sevgi, menga bo‘ylama, Mehring bilan siylama. (M.Yusuf.) 2. Bu yerlarga nega keldim men, qiziqmasam unut chiroyga. (A.Oripov) 3. Ketishi ham, ketmasligi ham noma‘lumligini aytdi. (Mirmuhsin) 4. Majlis yarim soat o‘tmay tugadi. (O.Muxtor) 5. Uzoqdan Navoiyning qorasi ko‘ringunga qadar u amirning kelishiga ishonmagan edi. (Oybek) 6. Na xotin, na farzand ko‘rmagan, kimsasiz bechora bir yigit. (Uyg‘un) 7. Mening farzandim yo‘q, gulbog‘larim yo‘q. (S.Nur) 8. Ertoev bir nimani sezmasa, bunchalik talvasaga tushmas edi. (O.Yoqubov) 9. Bil-

mayin bosdim tikanni... 10. Bilmam adashdimmi, yo to'g'ri qildim... 11. Bilmalik ayb emas, bilmaganini tan olmaslik ayb. 12. U hozir hammaning kallasini g'ovlatgan shum xabarni yo hech o'ylamayapti, yoki bu gapning menga sira daxli yo'q, deb ko'rsatmoqchi. (A.Muxtor) 13. Domlaning yer olgani rost, buni Saidiyga bildirmoqchi emas edi. (A.Qahhor) 14. Barno yo'q ekan, biroz kutdi, kelavermagach, o'tirishga sabri chidamay, idoradan chiqdi. (O. Yoqubov)

9-mashq. Berilgan gaplardagi harakat tarzi shakllarini aniqlang. Shaklning lug'aviy ma'noga qay darajada ta'sir etayotgani va paradigmatic munosabatlarini bayon qiling. Harakat tarzi shaklining yasali sh qolipini qavs ichida bering. Quyida berilgan topshiriqlar asosida harakat tarzi kategoriyasining UGMsini oching.

1. Faqat aytdim-ku, uyimizda biron yig'inmi, to'ymi – umuman, sarf-xarajat ko'paysa, bir ko'ngilxiralik chiqmay qolmasdi. (X.Do'stmuhammad) 2. Men sizni o'ylayman shomu saharda, Ona, sog'insam ham bora olamayman, Tunlari charog'on shunday shaharda Hech kinga ko'nglimni yora olmayman. (M.Yusuf) 3. O'rinda ham gaplashaveramiz, sen juda charchab ketgansan. (I.Rah.) 4. Suv endi yerga singmay, muzlab qolgan edi. (A.Qahhor) 5. Hali kelishgani yo'q, o'zim ham xavotir olib o'tiribman. (A.Qahhor). 6. Ilmni o'rganib, so'ng uni boshqalarga o'rgatmaslik go'yoki mol-u dunyoni yig'ib, uni sarf qilmay, ko'mib qo'yish bilan barobardir. ("Hadis"dan) 7. Quyosh-ku falakda kezib yuribdi, umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.(G'.G'ulom) 8. Qaysi bir xalqning ichida jinoyat va gunoh ish qiluvchilardan ko'ra qilmaydiganlar ko'p va kuchli bo'la turib ularni tiyib qo'ymasalar Tangrining ofati hammalariga barobar bo'ladi. ("Hadis"dan) 9. O'zbek qizlari sevgisini aytib qo'ymaydi, bir umr pinhon tutadi. (Sayyor). 10. Bolang uch-to'rt qiynaladi, keyin o'rganib ketadi. (A.Qahhor)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Gaplar takibidagi harakat tarzi shakllarini kuzating.
2. Lug'atlardan va nutqiy zaxirangizdan foydalangan holda harakat tarzi shakllariga misollar keltirib sirani boyiting.
3. Gaplardagi har bir harakat tarzi shaklning ma'noviy xususiyatlarini alohida sharhlang.
4. Barcha harakat tarzi shakllari uchun o'xshash va farqli tomonlarni aniqlang.

5. Berilgan harakat tarzi shakllarini yetakchi va ko'makchi fe'ning birikish usuli va ma'noviy xususiyatlariga ko'ra tasniflang.

6. Klaster asosida harakat tarzi kategoriyasi haqida xulosa chiqaring.

10-mashq. Lug'aviy va sintaktik shakllarning harakat tarzi shakllarida voqelanishini aniqlang. Qo'shimchalarning ko'makchi yoki yetakchi fe'l tarkibida qo'llanishiga diqqat qiling.

kiyintirib qo'ymoq, urishishib qolishdi, o'ylantirib qo'ydi, ishlatib yubordi, ovqatlantirib qo'ydi, aytib yuborishdi, kiyinib oldi, ayirib tashlandi, unutib yuborildi, o'ranib olmoq, bilib qo'yishsin, gapira qolmadi, aytmay qo'ymadi, kirmay turishdi, aytishib qolish, qichqirib yuborib, ketib qolgan, aynib qolmas.

11-mashq. O'zgalovchi kategoriyasi shakllarining fe'lni nutqqa olib kirishini berilgan misollar asosida tushuntiring. Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllarining gapdagi sintaktik vazifasini aniqlang.

1. Yuzni yerga qaratish bundan ortiq bo'ladimi? (O'.Hoshimov) 2. Uning esiga haligi mish-mishlar tushib, yuragi bigiz sanchganday og'ridi. 3. Tergamay - tergamay boshiga chiqarib oldi. 4. Yurtimizda alanga porlar, sevmoq uchun sevilmoq uchun (qo'shiqdan). 5. Kumush Otabek nomini eshitgach, sekingina ko'tarilib qo'ydi. (A.Qodiriy) 6. Erkalatgach onasi, taltayadi bolasi. (Maqol) 7. Biroq arava yaqinroq keldanda poxol shlyapasini bostirib olgan semiz odamni ilg'adim-u, hammasini angladim. (O'.Hoshimov) 8. Biz chiqqan arava No'g'ayqo'rg'ondan Ko'tarmaga yetguncha qorong'u tushdi. (O'.Hoshimov) 9. Otasi kelavermagach, bolalar vahimaga tusha boshladilar. 10. Ketar odamga yo'l yaxshi. 11. O'lar ho'kiz boltadan qaytmas 12. Aytar gapni ayt, aytmas gapdan qayt. 13. Mol topmas yigit bo'lmas, o'g'il tug'mas ayol bo'lmas. 14. Kelin bo'lmish qiz qo'shni qishloqdan ekan. 15. Otabek qo'llarini bo'shatuvchi qo'rboshining bunchalik titrab, qaltirashidan o'z raqiblaridan bittasi shu ekanini payqadi (A.Qodiriy)

12-mashq. Sifatdosh va ravishdosh shakllarining fe'lni o'zidan keyingi so'zga tobelab bog'lashi, shu bilan birga, fe'ning atash semasiga ham sezilarli ta'sirini izohlang.

Venn diagrammasi chizing va unda lug'aviy-sintaktik shakllar - ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shaklining o'rnini aniqlang.

1. Yetmish yulduz yog'ilib yarim oycha to'lolmas, yetti yanga yig'ilib bitta ona bo'lolmas. (Qo'shiqdan) 2. Kekkayish sahroda yurgan norga yarashadi. 3. Ko'p yegan odamlar bo'lmas tandurust, Tandurustlik topgan odamdir durust. (Abulqosim Firdavsiy) 4. Toshkentdan ataylab ko'rgani borsam, Olimjon akam xursand bo'ladi. 5. Mening bu olamda o'z aytar so'zim, Va o'zim sig'inar mozorlarim bor. (A.Oripov) 6. Ra'noni egasiga topshirmaguncha u quyilmaydiganga o'xshaydi. (A.Qodiriy) 7. Bemorni ko'rgani borganda uning peshanasiga qo'lni qo'yib hol-ahvol so'rash barkamol ziyorat hisoblanadi. Qo'l berib ko'rishib salomlashish mukammal bo'ladi. ("Hadis"dan) 8. Rahm qilma kimki bo'lsa bo'kuvchi, Bo'kuvchi bo'ladi obro' to'kuvchi. (Jaloliddin Rumiy) 9. Dunyoda o'limdan og'ir narsa bor, Suymagan yor bilan yashamoq qiyin. (Qo'shiqdan)

13-mashq. Harakat nomi va sifat-dosh shakllarining egalik, kelishik shakllariga munosabatini mashqlar asosida bayon qiling.

1. Og'izga kelganni demak – nodonning ishi, Ollig'a kelganni yemak – hayvonning ishi. (Alisher Navoiy) 2. Kishida ko'p illat ko'p demakdandir, Kasallik, uqubat ko'p yemakdandir. (Abulqosim Firdavsiy) 3. O'z nafsini mag'lub etolgan marddir, G'iybatdan uzoqroq ketolgan marddir. (Abu Abdullo Rudakiy) 4. Taomni ko'p yema noo'rin, nosoz, O'sha ko'p yeganing seni yeydi boz. (Fariddin Attor) 5. Inson farzandi yaratilganda yonida o'limning 99 sababi ham birga yaratiladi. Agar u shu o'limlardan xalos topib yashasagina, unga qarilik nasib etadi. ("Hadis"dan) 6. Foydali ilmlarni o'rgatuvchi odamning gunohi kechirilishini so'rab, har bir narsa, hatto dengizdagi baliqlar ham istig'for aytadilar. ("Hadis"dan)

14-mashq. Ravishdosh, sifat-dosh, harakat nomi shakllarining lug'aviy va sintaktik shakllarga munosabatini aniqlang. Topshiriqlar asosida kategoriya UGMsini oching.

1. Oyim harsillab nafas olganча qorong'ida tugunchani titkilaydi. 2. Keyin entikib-entikib yig'lab yubordi. – Rangi o'chgan kuyi lablari titrab, yuzimga qarab turdi-turdi-da, Omonni ko'tarib uyga kirib ketdi (O'.Hoshimov) 3. Xazinachilar sipohlar orqasidan ikki otni yetaklashib hudaychi yoniga yetdilar. (A.Qodiriy) 4. Xo'rak orasi Otabek Zaynabdan so'rab, Kumushning uxlab yotganini bildi. (A.Qodiriy) 5. Fojianing yigirmanchi kunida yana xatmi qur'on qilinib, butun yurtga osh berildi. 6. Sizdan o'zimni chaqdirgali kelgan emasman! – dedi yig'lagan kuyi

Zaynab...(A.Qodiriy) 7. Arava omborga borib-kelguncha, lavlagini xirmon qilib o'yib tashlaymiz (O'.Hoshimov) 8. O'rik gullashi bilan qora sovuq bo'lib hammayoqni qaqshatib ketdi. 9. Inson bo'lish kurashchi bo'lmoqlikdir. (I.Gyote) 10. Sevmoq uyat emasdir, Har kimda bor bu savdo...

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Har bir sifatdash, ravishdosh va harakat nomi shaklini alohida-alohida sharhlang.
2. Sifatdash shakllarini ajratib, o'zaro qiyoslang, umumiy va farqli tomonlarni aniqlang.
3. Ravishdosh shakllarini ajratib, o'zaro qiyoslang, umumiy va farqli tomonlarni aniqlang.
4. Harakat nomi shakllarini ajratib, o'zaro qiyoslang, umumiy va farqli tomonlarni aniqlang.
5. Klaster asosida sifatdash, ravishdosh, harakat nomi shakllari haqida hukm chiqaring.

15-mashq. Sodda va qo'shma fe'l yasalish qoliplarini tuzishga harakat qiling. Qolip hosilalarini namunadagidek yozing.

Namuna: [ot, sifat, olmosh, undov, taqlid, ravish + -la] = asosdagi ma'no bilan bog'liq harakatni bajarish]

Qolip hosilalari: ishla, oqla, senla, ohla, ho'pla, tezla va h.

[fe'l bo'lmagan so'z (ot, sifat, taqlid, undov) + yordamchi fe'l] = yasalish asosi va yordamchi fe'l anglatgan ma'no bilan bog'liq harakat.

Qolip hosilalari: savol bermoq, yaxshi ko'rmoq, inkor etmoq, qilt etmoq, dod solmoq, oh demoq, uf tortmoq.

16-mashq. Fe'l so'z turkumi haqidagi fikrlaringizni xulosalang. So'z turkumining UGMsini tiklang.

Fe'l turkumi bo'yicha tahlil tartibi va namunasi

1. Mustaqil yoki yordamchi fe'lligini aniqlash.
2. Qaysi lug'aviy mazmuniy guruhga mansubligini aniqlash.
3. Morfologik tarkibi.
4. O'timli-o'timsizligi.
5. Lug'aviy shakllari.
6. Sintaktik shakllari.
7. Tuzilishiga ko'ra turi.
8. Gapdagi vazifasi.

Keyingi yillarda rivojlangan zamonaviy meditsina ko'pgina yurak-qon tomir kasalliklarining kelib chiqishida ovqatlanish ratsionining buzilishini sabab qilib ko'rsatmoqda.

Mustaqil fe'l; harakat fe'li; buz-il-ish-i-ni; o'timsiz; -il majhul nisbat, -ish harakat nomi; -i egalik shakli, -ni tushum kelishigi; sodda; vositasiz to'ldiruvchi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nisbat shakllarining so'z yasalishi, lug'aviy shakl yasalishi va sintaktik shakl yasalishiga munosabatini yoriting.
2. Nisbat shakllarining sintaktik qurshovga ta'siri haqida gapiring.
3. Fe'ning vazifa shakllari, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllarining lug'aviy-sintaktik shakllik xususiyatini yoriting.
4. Fe'llarning egalik, kelishik shakllariga munosabati haqida to'xtaling.
5. Harakat tarzi shakllarining yasalish qoliqlari, sintaktik qurshovga ta'siri va lug'aviy ma'noni modifikatsiyalashi xususida ma'lumot bering.
6. Fe'llarda zamon, mayl, shaxs-son, tasdiq/inkor shakllarining voqelalanishi xususida fikrlaringizni bayon qiling.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Qaysi gapda ravishdosh alohida gap bo'lagi bo'lib kelgan?

- A. Bu yangilikdan Diyor qotib kuldi. B. U she'r yozmay qo'ydi.
S. Salimni ko'rishi bilan qotib qoldi. D. Xatni birpasda o'qib tashladi.

2. Qaysi javobda yetakchi fe'l juft so'z bilan ifodalanmagan?

- A. Shubha va qo'rquv bilan atrofga qarab-qarab qo'ydi
B. Kiyimi yirtilgan, yuzi qizarib-bo'zarib ketgan edi
S. Birovga aytib-netib o'tirmang.
D. Yig'ilishda uni qo'llab-quvvatlab gapirdi

3. Berilgan gaplarning qaysi birida yetakchi fe'l birdan ortiq?

- A. Ular ortiqcha mahsulotni quritib ham, muzlatib ham, tuzlab ham, tuyib ham oldilar.
B. Hozircha o'qib yura tur-chi!
S. O'g'lingiz katta bo'lib qolibdi-ku!
D. Gap bilan ovora bo'lib kechikib ham qoldim.

4. Qaysi gapda ravishdosh shakli ko'makchi fe'lga qo'shilgan?

- A. Oqib turgan daryo to'xtaydimi?
- B. Akbar o'rtog'iga tura solib tashlandi.
- S. Qochib qolish niyatingiz yo'qmi?
- D. Sovib qolgan ovqatni nari surib qo'ydi.

5. Qaysi gapda ikkita ko'makchi fe'lli qo'shilma mavjud?

- A. Yotib qolguncha otib qol
- B. Seni maftun bo'lib sevib qolganim.
- S. O'ylab ko'rib javob beraman
- D. Gapirishdan oldin o'ylab oling.

6. Qaysi gapda o'zlik nisbat shaklidagi gap berilgan?

- A. Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi
- B. Belbog'imga bitta kulcha tugilgan
- C. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko'chirdi
- D. Yo'lga chiqqan bahodirga ota-onasi yoki suyuklisi non tishlatgan

7. Qaysi so'zlardan bir xil grammatik shakl bilan ham majhul, ham o'zlik nisbat hosil qilish mumkin?

- A. Kiymoq, taramoq, bermoq
- B. Sevmoq, ko'rmoq, tayyorlamoq
- S. Olmoq, o'qimoq, bormoq
- D. Qoqmoq, yozmoq, to'plamoq

8. Majhul nisbat shaklidagi fe'l ishtirok etmagan gapni toping.

- A. Yerlarga don sepildi.
- B. Sinovlarga yaxshi tayyorgarlik ko'rildi.
- S. U ko'rpachaga cho'zildi.
- D. Mahallalarda sumalaklar pishirildi.

9. Quyidagi keltirilgan fe'llardan qaysilari orttirma nisbat shaklida?

- 1) bitirmoq; 2) qizarmoq; 3) qochirmoq; 4) tushirmoq; 5) solishtirmoq;
- 6) surishtirmoq; 7) uyg'otmoq; 8) yupatmoq; 9) oshirmoq
- A. 3, 6, 7, 9
- B. 1, 3, 4, 9
- S. 1, 4, 5, 9
- D. 2, 8, 9

10. Ota o'g'lini o'zga yurtga safarga otlantirib, oq fotiha berarkan, "balo-qazolardan saqlaydi" degan ma'noda farzandining qo'lga non tutqazgan. Ushbu gapda qaysi nisbatdagi fe'llar ishtirok etgan va ularning sonini toping?

- A. 2 ta aniq va 2 ta orttirma
- B. 1 ta aniq va 3 ta orttirma nisbat
- S. 1 ta aniq 2 ta orttirma nisbat
- D. 3 ta orttirma nisbat

OT SO'Z TURKUMI

Tayanch tushunchalar: ot, kichraytirish shakli, erkalash shakli, son kategoriyasi, atoqli otlar, turdosh otlar, aniq otlar, mavhum otlar.

1-mashq. Gaplar tarkibidagi atoqli va turdosh otlarni aniqlang. Atoqli otning turdosh otga, turdosh otning atoqli otga aylanishiga misollar keltiring. Havola etilgan matnga tayanib, berilgan topshiriqlar tizimini bajaring.

O'zbekim

Tarixingdir ming asrlar

Ichra pinhon, o'zbekim,

Senga tengdosh Pomir-u

Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.

So'ylasin Afrosiyobu

So'ylasin Urxun xati,

Ko'hna tarix shodasida

Bitta marjon, o'zbekim.

Al Beruniy, Al Xorazmiy

Al Farob avlodidan,

Asli nasli balki O'zluq

Balki Tarxon, o'zbekim.

Qaysari Rum nayzasidin

Bag'rida dog' uzra dog'

Chingiz-u Botu tig'iga

Ko'ksi qalqon, o'zbekim....

Menga Pushkin bir jahonu

Menga Bayron bir jahon

Lek Navoiydek bobom bor

Ko'ksim osmon, o'zbekim. (E.Vohidov)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Matnni kuzatib, predmetlik bildiruvchi so'zlarni aniqlang. Ularni atoqli va turdosh otlarga ajrating. Turdosh otlarni aniq va mavhum, sanaladigan va sanalmas, shaxs yoki narsa oti ekanligini aniqlang

2. Atoqli va turdosh otlar xususiyatlarini alohida-alohida bayon qiling.

3. 1. Atoqli va turdosh otlarni shaxs, narsa va o'rin-joy otlariga ajrating, guruhlarini o'zaro qiyoslang.

4. 1. Atoqli otlar guruhiga kiruvchi otlardagi umumiylikni toping. 2. Turdosh otlar guruhiga kiruvchi otlardagi umumiylikni toping.

5. Atoqli va turdosh otlarning semantik va sintaktik farqini bayon qiling.

6. Mazkur soʻzlarni mustaqil qoʻllab yordamchi mashqlar tuzing.

2-mashq. Berilgan gaplardagi otlarning birlik yoki koʻplik shaklida ekanligini aniqlang. Koʻplik shaklining sintaktik qurshovga semantik-sintaktik taʼsirini izohlang. Xulosalaringiz asosida birlik va koʻplik shaklining umumiy, xususiy va oraliq grammatik maʼnolarini tiklang. OGMlarni farqlovchi omillarni va XGMLardagi zotiy va begona hodisalarni ajrating.

1. Men ham sen singari yigirma ikki yoshimda qaynab, toshib yurgan kezlarim edi. (M.Ismoilijon) 2. ...sirqirab yotibsiz toshlar oralab, bokira suvlarim, goʻzal suvlarim. (Sh.Rahmon) 3. Badanim oʻt boʻlib yondi, boshim ogʻrib, koʻzlarim tindi, – dedi Hojixola. (M.Ismoilijon) 4. Dushman qursin, eslarimni shoshirdi, Mirza Mahmud oyogʻiga bosh urdim. (“Yusuf va Ahmad”) 5. Boquvda yotgan har qoʻylarimiz borki, oʻrnidan turlamaydigan boʻlib ketgan. (“Mushtum”) 6. Oltin uzuk barmogʻimni buradi, Bir yigit bor yoʻllarimda turadi. (Qoʻshiqdan) 7. Menga tinchlik bermay qiynar, Mana endi tushlarimda Enasoyning bugʻulari. (M.Yusuf) 8. Lutf-u karamingiz nuridan koʻngullarimiz charogʻon oʻlib, layli nahor duoyi joningizni qilmoq ila xurram-u shodmiz, davlatpanoh! (S.Siyoyev) 9. Yonmagan qorlar yonar, Tushlarim oʻngga doʻnar. (“Sharq yulduzi”) 10. Buqinib, nafaslarimizni yutib turib, hayajon bilan bittadan tosh otamiz. (Oybek) 11. Senga gapiraverib tillarim charchadi, quloqlarim bitdi, yuraklarim ezilib ketdi, koʻzlarim tindi. 12. Buvimlar keldilar. 13. Doʻkonga kitob kelibdi. 14. Asablar, asablar, asablar... Sababsiz sochilgan gʻazablar. (E.Vohidov)

3-mashq. Quyida berilgan otlarning LMGLariga misollar keltiring.

Aniq otlar	Mavhum otlar	Atoqli otlar	Turdosh otlar	Oʻrin-joy otlari	Mahsulot nomlari	Voqea-hodisa nomlari	Shaxs otlari

4-mashq. Berilgan yasama otlarning yasalish qoliplarini aniqlang. Qolipning ish jarayoni haqida maʼlumot bering.

shaxmatchi, terimchi, yordamchi, isyonchi, respublikachi, buzg'unchi, o'lkashunos, sholikor, tajovuzkor, paxsakash, hazilkash, kitobxon, mahsido'z, majlisboz, norinxo'r, maslahatgo'y, chitfurush, hamshahar, tezlik, otalik, o'qituvchilik, kiyimlik, muzlik, botqoqlik, pishiqlik, maynabozchilik, o'zbekchilik, ajriqzor, qumloq, kuldon, qabulxona, kekirik, o'roq, to'shak, chopqi, unum, dimlama, tutqun, bo'g'in, yig'indi, eritkich, sevinch, bizbizak, g'arg'ara, kirish, chiqish, kechuv, oybolta, ko'kqarg'a, qoraqurt, mingoyoq, qo'ziqorin, ota-ona, qozon-tovoq, qizilishton, savacho'p.

5-mashq. Ko'chiring. Leksema tarkibida yaxlitlangan egalik, kelishik, kichraytirish, ko'plik, shaxsiy munosabat shakllarini izohlang.

olcha, ko'kcha, ko'rpacha, qizilcha, Qizlarxon, Beklar (mahallasi), tezda, birga, birdan, birda, to'satdan, zimdan, kechasi, kunduzi, birvarakayiga, yoppasiga, tunlari, kunda, Onaxon, Olmaxon, Oyxon, qopchiq.

6-mashq. Matnda qo'llangan otlarni LMGlarga birlashtiring. Gapdagi sintaktik vazifasini aniqlab, tagiga chizing.

Birinchi muhabbatim

Kecha oqshom falakda oy bo'zarib botganda,
Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda,
Ruhimda bir ma'yuslik, sokinlik uyg'otganda,
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim.
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.

O'tdi yoshlik zavq bilan, gohi to'polon bilan,
Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan,
Ayri ham tushdim ba'zan qalb bilan, imon bilan,
Lekin seni yo'qotdim, birinchi muhabbatim,
Mangu g'aflatda qotdim, birinchi muhabbatim.

Dunyo degan shundayin anglab bo'lmas sir ekan,
Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan.
Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan...
Nechun bilmovdim avval, birinchi muhabbatim,
Parvo qilmovdim avval, birinchi muhabbatim.

Holbuki orzulardan judo ham bo'lganim yo'q,
Yulduzday kulganim yo'q, oy kabi to'lganim yo'q.
Erta xazon gul kabi sarg'ayib so'lganim yo'q,
Seni eslab yig'layman, birinchi muhabbatim,
Eslab bag'rim tig'layman, birinchi muhabbatim.

Yo'lin yo'qotsa odam – muhabbatga suyangay,
G'ussaga botsa odam – muhabbatga suyangay.
Chorasiz qotsa odam – muhabbatga suyangay,
Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim.
Faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.

Nido bergil, qaydasan, sharpangga quloq tutdim,
Sirli tushlar ko'rib men bor dunyoni unutdim.
Tongda turib nomingga ushbu she'rimni bitdim,
Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yolg'iz Oллоhim mening, birinchi muhabbatim. (A.Oripov)

7-mashq. Ot so'z turkumi haqidagi fikrlaringizni xulosalang. So'z turkumining UGMsini tiklang.

Ot turkumi bo'yicha tahlil tartibi va namunasi

1. Qaysi lug'aviy mazmuniy guruhga mansubligini aniqlash.
2. Morfologik tarkibi.
3. Lug'aviy shakllari.
4. Sintaktik shakllari.
5. Tuzilishiga ko'ra turi.
6. Gapdagi vazifasi.

Keksa dilingizga tushmasin titroq,
Otarlar, chayqalib turibdi olam...(A.Oripov)

Turdosh ot, narsa oti, muayyan ot; dil-ingiz-ga; -ingiz II shaxs ko'plik, -ga jo'nalish kelishigi; sodda ot, to'ldiruvchi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Otning tasniflovchi lug'aviy shakllari xususida to'xtalng.
2. Otning asosiy LMGlarni sanang.
3. Atoqli va turdosh otlarning semantik va sintaktik farqi, ular orasidagi o'tish hodisasi (atoqli otning turdosh, turdosh otning atoqli otga aylanishi) haqida fikrlaringizni bayon qiling.
4. Ot yasalishining sermahsul va tarixiy qoliplari haqida gapiring.
5. Otlarning vazifa semalari xususida ma'lumot bering.
6. Otlarning kichraytirish, erkalash, shaxsiy munosabat shakllarini tavsiflang.
7. Ot so'z turkumining sintaktik shakllarga munosabati haqida fikrlaringizni bayon qiling.
8. Barcha otlar uchun birlashtiruvchi belgilarni umumlashtiring.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Ko'chada, xiyobonlarda baqir-chaqir, yugur-yugur, ur-yiqit boshlanib ketgan edi. Ushbu gapdagi otlar sonini aniqlang.

- A. 4 B. 2 C. 5 D. 3

2. Qo'shma otlar imlosiga oid quyidagi fikrlardan qaysi biri noto'g'ri?

- A) Qorbo'ron, beshiktebratar, ko'ksulton kabi qo'shma otlar qo'shib yoziladi. B) Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan turdosh otlar qo'shib yoziladi. C) Ikkinchi qismi turdosh otdan iborat bo'lgan atoqli otlar ajratib yoziladi. D) Ikkinchi qismi atoqli otdan iborat bo'lgan qo'shma otlar ajratib yoziladi.

3. Berilgan misollardan qaysi birida ot va sifat yasovchi qo'shimchalar orasida shakldoshlik (omonimlik) hodisasi yuz bermagan?

- A. chiziq-tiniq, sezgi-qadimgi
B. otashin-yashirin, tilak-elak
C. barchasida ot va sifat yasovchi qo'shimchalar o'zaro omonimlik hosil qilgan
D. bosqin-sotqin, qirg'in-so'lg'in

4. Qaysi qatordagi otlar mavhum otlarga mansub?

- A. jamol, chiroy B. bulut, chana
C. ovunch, o'kinch D. gul, iz

5. Bilimdon, madaniyatli odam bilan johil, nodon, savodsiz o'rtasida katta farq bor. Bu dunyoning go'zalligi, boyligi, betakror saxovati ilm-hunar, san'at tufaylidir. Ushbu gaplarda ot va sifat yasovchi qo'shimchalar soni nechta?

- A. 4 B. 2 C. 8 D. 3

6. Turdosh otlar haqida aytilgan qaysi fikr xato?

- A. Turdosh otlar bir turdagi narsa-hodisani umumiy nomini bildiradi
B. Atoqli otlarning bir qismi turdosh otlardan, turdosh otlarning bir qismi atoqli otlardan hosil bo'ladi
C. Turdosh otlar kichik harf bilan yoziladi
D. Barcha turdosh otlar nima? so'rog'iga javob bo'ladi

6. Qaysi qatordagi qo'shma ot tarkibida fe'l turkumiga oid so'z mavjud emas?

- A. beshotar
- B. iskabtopar
- S. ko'rsichqon
- D. Barcha qo'shma otlar tarkibida fe'l turkumiga oid so'z mavjud

SIFAT SO'Z TURKUMI

Tayanch tushunchalar: sifat, lug'aviy-grammatik guruhlari, asliy va nisbiy sifatlari, daraja kategoriyasi, kuchaytirma va ozaytirma sifatlari.

Blits-so'rov

1. Sifatlarning turg'un belgilarni ifodalash xususiyatini yoriting.
2. Asliy va nisbiy sifatlari xususida fikrlaringizni bayon qiling.
3. Sifatlarning ma'noviy guruhlarni sanang.
4. Sifat yasallishining umumiy qoliplari haqida ma'lumot bering.

1-mashq. Berilgan she'riy matn asosida quyida havola etilgan topshiriqlarni bajaring.

Bahor kunlarida kuzning havosi,
Tanimni junjitar oqshom shamoli.
Nega buncha g'amgin nayning navosi,
Nega qalbim to'la o'kinch va malol?

Barglar orasiga tinmasdan sira
Oshno yulduzlardan to'kiladi nur.
Bilmayman, qiynaydi qaysi xotira,
Titroq yulduz kabi muzlagan shuur.

Atrofimda yotar g'arib bir viqor,
Bilmam, nega uchdi qalbim safosi.
Nima ham qilardim, na ilojim bor.
Bahor kunlarida kuzning havosi. (A.Oripov)

Topshiriqlar:

1. Gaplarni kuzatib, matndan asliy va nisbiy sifatlarni aniqlang.
2. Asliy va nisbiy sifatlari xususiyatlarini alohida-alohida bayon qiling.

2-mashq. Sifat darajalarini aniqlang. Daraja shakllarining qaysi usul bilan hosil bo'layotganini qavs ichida bayon qiling.

1. Samimiy do'stlari bo'lmagan odam haqiqatdan ham yolg'izdir. (F.Bekon) 2. Ufq qizg'ish tusga kirib, tong yorishardi. (Sh.Rashidov) 3. Yaxshi fikrlar ham eng yaxshilariga joy bo'shatib bermog'i lozim. (V.Shekspir) 4. Qizlarning ichida eng kichigi Aziza edi. 5. Bog'imizda sertuk, sershira shaftoli navlari bor. 6. Bolalar yolg'izoyoq yo'ldan juda sekin o'tdilar. 7. Bir otim bor ajabgina, dumlari gajakkina, Hali kelsa ko'rasiz, kula-kula o'lasiz. (chayon)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Gaplar tarkibidagi sifatlarni kuzating.
2. Oddiy, ozaytirma va kuchaytirma darajadagi sifatlarni ajratib har birini alohida-alohida sharhlang.
3. Oddiy, ozaytirma va kuchaytirma darajadagi sifatlarni o'zaro qiyoslang.
4. Oddiy, ozaytirma va kuchaytirma darajadagi sifatlarning umumiy tomonlarini toping.

3-mashq. Berilgan sifatlarni sifatga xos LMGlarga birlashtiring.

bardam, yoqimtoy, oq, xafa, badjahl, boy, iliq, muloyim, toza, dilakash, yangi, yaxshi, tinch, yomon, jim, ichki, loqayd, badavlat, ozoda, yozgi, qishki, ertachi, chillaki, ertapishar, novcha, go'zal, shirin, achchiq, jimjit, xushbo'y, mo'min, kuzgi, o'ktam, sariq, zangor cho'loq, salqin, sovuq, taxir, uzunchoq, nam, namxush, bukir, baquvvat, tetik, g'amgin, qora, qizil, ma'yus, yosh, keng, sokin, uzun, xursand, kambag'al, issiq, tashqi, devoriy, qishloqi, badbo'y, qo'lansa, yaqin, katta, og'ir, g'o'r, puxta, ko'hna, juldur, musaffo, isqirt, kir, eski, ho'l, quruq, osoyishta, bezovta, xom, pishiq, dumaloq, yapaloq, aylana, pushti, sho'r, rasimli, do'ppili, kuchli, o'tirishli, aybdor, nasldor, sersuv, bedin, sersaviat, noinsof, nomunosib, unutulchan, kuyinchak, uyushqoq, qopag'on, yeyarmon, yig'loqi, yorug', turg'un, qisqartma, ko'chma, arzirli, jirkanch, imloviy, ommaviy, hozirgi, qozoqi, o'zbekcha, odamsimon, vatanparvar, zo'raki, badbashara, jahonshumul, izchil, terskay, gapdon, achimsiq, hazilkash, qaram, sog'lom, qisqa, palovbop, dilorom, dilozor, kafangado, otashnafas, sohibjamol, sho'rpehona, kaltafahm, shirin-suxan, sho'rtumshuq, balandparvoz, jig'ibiyron, tepakal, xonavayron, xudobezor, otabezori, kamqon, ertapishar, cho'rtkesar, yebto'ymas, tinchliksevar, o'zbilarmon, ikkiyuzlamachi, qirqyamoq.

- xarakter, xususiyat, xossa bildiruvchi sifatlar:
- holat bildiruvchi sifatlar:
- shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlar:
- rang-tus bildiruvchi sifatlar:
- maza-ta'm bildiruvchi sifatlar:
- hid bildiruvchi sifatlar:
- miqdor bildiruvchi sifatlar:
- o'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar:
- o'lchov bildiruvchi sifatlar:

4-mashq. Berilgan gaplar tarkibida qo'llangan yasama sifatlarni aniqlang. Sifat yasalishining sodda va qo'shma sermahsul so'z yasalish qolipi hosilalariga misollar keltiring.

1. Samin aka hazilkash, shirin so'z odam. 2. Ko'z oldimdan ichakuzdi qiliqlar qilayotgan qiziqchilar ketmasdi. 3. Hunarli o'lmas, hunarsiz kun ko'rmas. 4. Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchiqligini bilsa kerak. 5. Hindubek turkiy, forsiy tillarni mukammal o'rgangan ilmli, ma'rifatli, dilkash kishi bo'lgani uchun Boburning eng yaqin beklari qatoriga kirgan edi. 6. Yo'lning ikki betidagi qoramtir, oq, qizil daraxtlarning tanga-tanga barglari iliq quyosh nuridan marvariddek tovlanardi. 7. Avaz dahlizdan rangdor vassal, sertokcha uyga kirdi. 8. Tokchadagi shamlar shu'lasida uning bir-biriga tutashgan o'siq qoshlari, cho'zinchoq, qoramtir yuzi, chambarak qalpoqchasi tagidan bo'rtib chiqqan do'ng peshonasi, uzun qiyg'ir burni – butun qiyofasi qandaydir juda shiddatli ko'rinar, zotan, dong'i ketgan allomalardan ko'ra suronli janglarda toblangan lashkarboshiga o'xshab ketardi.

5-mashq. Matn tarkibidagi sifatlarni aniqlang va ularning sintaktik vazifasini belgilang.

Uyqudagi qiz

Qaro yerga qo'yib bosh,

Bir qizgina uxlaydi.

Ko'zlariga to'lib yosh,

Hur qizgina uxlaydi.

Yotar qurib darmoni,

Mangu uxlar gul yanoq.

Ko'ngli to'la armoni,

Qo'yni to'la qizg'aldoq.

Bu dunyoda hech sendek
Qiz yo'q edi, tur, singlim.
O'zing orzu qilgandek,
To'y qilamiz, yur, singlim.

Oy yuzingga bir nafas,
Harir ro'moi o'rarsan.
Gulgul yonib muqaddas
Chimildiqqa kirarsan. (M.Yusuf)

6-mashq. Gaplar tarkibidagi sifatlarning qanday so'zga bog'lanayotgani va sintaktik vazifasini aniqlang. Hech qanday vosita qabul qilmagan va kelishik bilan turlangan sifatlarning tobelanuvchi, egalik, kesimlik shakllari bilan o'zgargan sifatlarning tobelantiruvchi xususiyatiga diqqat qiling. Xulosalaringiz asosida sifati so'z turkumining UGMsini tiklang. Ajratilgan sifatlarni tahlil qiling.

Farzandlarimga o'gitlar

Uchrashuvlarda bir savolni ko'p berishadi: "O'zingiz uchun eng qimmatli asar qaysi?"

Ko'pincha yarim hazil bilan javob qilaman: "Mening ikkita qimmatli "asarim" bor: biri -o'glim, biri - qizim!"

Senlar menga Xudo bergan eng bebaho boylik... Shu bois diqqat bilan eshit!

* * *

Bir narsani orzu qilaman. Bu dunyoda men qilgan yaxshi ishlardan aqalli bitta ko'proq yaxshilik qilsang... Bu dunyoda men qilgan xatolardan aqalli bitta kamroq xato qilsang...

* * *

Hech qachon Osmonga tupurma! Osmon qahrli. Tupuging yuzingga qaytib tushadi! Hech qachon Yerga tupurma! Yer mehrlil: tupuging yuzingga sachraydi. Ammo shu Yer seni ko'ksida ko'tarib yuradi!

* * *

Yomonning yaxshisi bo'lgandan yaxshining yomoni bo'l. Yomondan - yomonlik yuqadi. Yaxshidan - yaxshilik.

* * *

Rost gapir. Rostgo'y odam jasur bo'ladi.

* * *

Dushmaningdan qo'rqma, dushmanga aylangan do'stingdan qo'rq. Dushman bilsa bitta o'jiz tomoningni biladi. Dushmanga aylangan do'st esa mingtasini.

* * *

“**Oshsiz** uy bor, urishsiz uy yo‘q” deydilar. Oilangda janjal chiqsa, eng avval farzandlaringni o‘ylab ish qil! (O‘.Hoshimov)

7-mashq. Venn diagrammasi texnologiyasi asosida ot va sifatlarni qiyosiy o‘rganing.

Sifat turkumi bo‘yicha tahlil tartibi va namunasi

1. Asliy yoki nisbiy sifatligini aniqlash.
2. Qaysi lug‘aviy mazmuniy guruhga mansubligini aniqlash.
3. Morfologik tarkibi.
4. Lug‘aviy shakllari.
5. Sintaktik shakllari.
6. Tuzilishiga ko‘ra turi.
7. Gapdagi vazifasi.

O‘g‘illarni berib, kir-chirlaridan ham qutildim...

Asliy sifat; holat belgisi; kir-chir-lar-i-dan; -lar ko‘plik shakli; -i egalik shakli, -dan chiqish kelishigi; juft sifat; to‘ldiruvchi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sifatlarda daraja kategoriyasi va uning yasalish qoliplari haqida gapiring.
2. Sifatlarning sintaktik shakllarga munosabatini yoriting.
3. Sifatlarning sintaktik qurshovdagi o‘rni va vazifasi haqida gapiring.
4. Barcha sifatlar uchun umumiy bo‘lgan belgilarni sanang. Sifat turkumining UGMsini tiklang.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. O‘rttirma darajadagi sifatlar berilgan qatorni toping.

- A) Ular yolg‘izoyoq yo‘ldan nihoyatda sekin borishardi.
- B) Quvvatsizlikdan juda tez charchab qolardi.
- C) Dunyoda eng orzumand xalq o‘zbek bo‘lsa ajabmas.
- D) Barcha javoblar to‘g‘ri.

2. Qizil qalpoq, jigarrang kurtka kiygan bu bolaginning tim qora ko'zlari, dum-dumaloq lo'ppi yuzi negadir g'amli, ma'yus edi. Ushbu gapda sifat turkumiga mansub nechta so'z bor, ularning nechitasi orttirma darajada?

- A) 7 ta sifat, 2 tasi orttirma darajada
- B) 6 ta sifat, 1 tasi orttirma darajada
- C) 7 ta sifat, 1 tasi orttirma darajada
- D) 6 ta sifat, 2 tasi orttirma darajada

3. Tarkibida juft sifat ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A) Barcha javoblar to'g'ri
- B) Bu masalani uzil-kesil hal qilish vaqti kelmadimi?
- C) Uyga kelib qarasa, hamma yoq ag'dar-to'ntar bo'lib yotibdi.
- D) Shag'al to'kilgan o'ydin-chuqur yo'ldan yurish it azobi bersada, Yigitali chidadi.

4. Takroriy sifatlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) Tabassumdan gul-gul yondi qizning yanog'i.
- B) Kimdir yelpib-yelpib barra-barra go'shtlardan kabob pishiryapti.
- C) O'z onamni elas-elas xotirlayman.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

5. Choyxonachi patnisda qand-qurs, kabobpaz kabob olib keldi. Ushbu gapdagi mustaqil so'zlar sonini aniqlang.

- A) 8
- B) 6
- C) 9
- D) 7

6. Temur yuksak insoniylik xususiyatlariga ega bo'lgan buyuk shaxs edi.

Ushbu gapda qatnashgan sifatlar haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.

1) asliy sifat; 2) nisbiy sifat; 3) tub sifat; 4) yasama sifat; 5) aniqlovchi vazifasida; 6) hol vazifasida

- A) 2, 4, 5, 6
- B) 1, 3, 5
- C) 1, 3, 4, 5
- D) 1, 2, 3, 5

7. Sofdil va jonkuyar odamlar bilan bu dunyo oboddir. Ushbu gapdagi sifatlar miqdori va turini aniqlang.

- A. 3 ta: 2 ta qo'shma, 1 ta sodda yasama
- B. 4 ta: 2ta qo'shma, 2 ta sodda tub
- C. 4 ta: 2 ta qo'shma, 2 ta sodda yasama
- D. 3 ta: 2 ta qo'shma, 1 ta sodda tub

8. Qaysi qatordagi gap tarkibida ot+ot tipidagi qo'shma sifat berilgan?

- A. Toshbag'ir odamdan yaxshilik kutma
- B. Sofdil va jonkuyar odamlar bilan bu dunyo oboddir.
- C. Nodon, kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi.
- D. Shirinsuxan, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi.

9. Qaysi gapdagi juft sifatlar [yasama so'z + yasama] so'z shaklida tuzilgan?

- A. Kasbning katta-kichigi bo'lmaydi.
- B. U paytda qing'ir-qiyshiq ko'chalar ko'p bo'lgan.
- C. Menga o'xshash esli-hushli yigitga zoriqib o'tirgan ekan.
- D. U yoshligidan ota-onasiz katta bo'lgan

10. Qaysi gapda juft sifat otlashgan?

- A. G'ir-g'ir shabboda turli-tuman giyohlarning hidlarini olib keladi.
- B. Baland-past devorlar orqasidagi mevalarning oq, pushti, qizil gullariga tabassum bilan qaraysan.
- C. Menga o'xshash esli-hushli yigitga zoriqib o'tirgan ekan.
- D. Kasbning katta-kichigi bo'lmaydi.

SON SO'Z TURKUMI

Tayanch tushunchalar: miqdor sonlar, tartib sonlar, numerativlar, dona son, chama son, jamlovchi son, sodda son, qo'shma son.

Blits-so'rov

1. Son turkumida son UGMSidan chetlashish holatlari kuzatiladimi?
2. Sonlarda sinonimiya, omonimiya, polisemiyaning voqelanishini qanday izohlaysiz?
3. Sonlarning sintaktik shakllarga munosabatini yoriting.

1-mashq. Gaplarni o'qing. Ajratilgan so'zlar asosida quyida keltirilgan topshiriqlarni bajaring.

1. **Bir** yil tut ekan kishi **yuz** yil gavhar teradi. 2. **Bir** yigitga **yetmish** hunar oz. (Maqollar) 3. Hozirgi kunda planetamizda nashr qilinayotgan barcha kitob mahsulotlarning deyarli **uchdan bir** qismi rus tilida bosilmoqda. 4. Sizga ma'lum: paxtani **birinchi** yil ekishimiz. (Sh.Rashidov) 5. Shu orada **to'rttacha** samosval oldinma-ketin g'isht to'kib ketdi. (S.Ahmad) 6. Og'irligi **70 kilogramm** keladigan odam Oyga chiqsa, uning vazni **11,7 kilo-**

grammdan oshmaydi. ("Qiziqarli geografiya") 7. Bir zumda **ikkov, uchov, to'rtov, beshov** bo'lishdi. (P.Tursun) 8. Non daraxtining **15-20 yillik** rasman **bir** tupi bir-ikki kishini, **besh-olti** tupi esa katta **bir** oilani bemaolol **bir** yil boqa oladi. ("Qiziqarli geografiya") 9. Adolat mastavadan **bir-ikki** qoshiq ichdi. (S.Zunnunova) 10. **Bir** hovuch yerdagi poliz ham la'nati bo'rondan sog' qolmadi. (Sh.Rashidov) 11. Manzilning **choragi** ham bosilmagan edi. (J.Sharipov.) 12. Er kishining so'zi – **bitta**. (Maqol.) 13. **To'rtovlari**, ayniqsa, G'ulomjon rosa dam oldi. 14. Har kim **uchtadan** mashina tanladi.

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Berilgan gaplardagi sonlarni kuzating.
2. Sonlarni miqdor yoki tartib son ekanini aniqlab, ularning xususiyatlarini alohida-alohida bayon qiling. Miqdor sonning ichki LMTlarini aniqlang.
3. Miqdor va tartib sonlarning har biriga xos va barchasi uchun umumiy zotiy mohiyatni bayon qiling. Har bir birlikka alohida va barchasi uchun umumiy ta'rif bering.
4. Mazkur so'zlarni turli nutqiy qurshovlarda qo'llang.

2-mashq. Gaplarni o'qib, sonlarni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga ko'chiring va turini ayting. Miqdor sonlar bilan tartib sonlarning farqini tushuntiring. Miqdor sonlarning LMGLarini izohlab, gapdagi sintaktik vazifasini aniqlang.

1. Oltmishga kirgan otadan osh so'rama. (Maqol) 2. Mendan besh-olti chaqirim narida, ikki bola ketib borishardi. 3. Birinchidan, men senga opa emasman. 4. «Uchinchi», meni eshityapsizmi?. 5. Bu gapni bir aytding, ikkinchi aytma. 6. Unga ming maslahat bergin, foydasi yo'q. 7. Ikkovining ham kirish bali bir xil ekan. 8. Talabalarga beshtadan toza varaq tarqatildi. 9. Soat uchlar edi. 10. O'n sakkizdan oshmay tur, go'zal.

3-mashq. Ko'chiring. Sonlarning qanday so'zga bog'lanayotgani va sintaktik vazifasini aniqlang. Hech qanday vosita qabul qilmagan va kelishik bilan turlangan sonlarning tobelanuvchi, egalik, kesimlik shakllari bilan o'zgargan sonlarning tobelantiruvchi xususiyatiga diqqat qiling. Tartib va miqdor sonlarning egalik va kelishik shaklini qabul qilishdagi o'ziga xosliklarni izohlang.

1. O'n sakkizga kirmagan kim bor? 2. Ana-mana deguncha, yetmishni ham qoralab qo'yibmiz. 3. Ikkovimiz ham bu gapdan hayron edik. 4. Biring kitob so'raysan, ikkinching daftar. 5. U marraga birinchi-

lardan bo'lib yetib keldi. 6. Oradan besh-olti kun o'tib, odatga muvofiq, mahalladan o'ntacha odam aytib yetti qilindi. 7. Bu kishini ikkinchi ko'rishim. 8. Ruchkangning bittasini menga berib tur. 9. Bir yarim yillarcha oldin fakultet ikkiga bo'lingan edi. 10. Ikkalang ham bo'sh ekansanlar. 11. Uchlar, siz keyingi daladan paxta terasiz. 12. Bir qiz yig'lar buloq boshida. (M.Yusuf).

4-mashq. Gaplar takibidagi sonlarni o'lchov so'zlari bilan birga ko'chiring. Otlarni numerativ so'z sifatida voqelantiruvchi qoliplarni aniqlang. O'lchov so'zlarining LMGLarini bayon eting.

1. "Mashqlar to'plami" 200 nusxada chop etildi. 2. Kitobning 50 sahifasi nashr uchun tayyor qilib qo'yildi. 3. Bir guruh talabalar kutubxona tomon yo'l oldi. 4. Ikki juft tovuq o'zimizdan chiqdi. 5. Bu yil majburiyatimizga 12 ming tonna g'alla topshirish tushgan. 6. Zulm bilan ellig-u yuzni olur, Bir tanobni du chandon solur. (Muqimiy) 7. Ne ajab ul sarvinozim o'n sakiz yoshindadur. (Navoiy) 8. Ming yillarkim, bulbul kalomi, o'zgarmaydi yaxlit hamisha. (A.Oripov) 9. Ming bora uzr, sizni ranjitmoqchi emasdim. 10. Uning ham panohi qaytmadi jangdan, O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u. (A.Oripov).

5-mashq. Ko'chiring. Berilgan sonlarni rim raqamlari va harflar bilan yozib, imlosiga e'tibor qiling. Sonlarni yozishda kirill va lotin imlo-sidagi farqlarni izohlang.

321-yil, 321 yil, 30-avgust, 5-guruh, 10-brigada, 10 brigada, 1-kurs, 11-sinf, 21-asr, 3 tom, 3-tom, 28 ta qoramol, 33 tup atirgul, 21 kun, 21-kun, XX asr.

6-mashq. Jamlovchi sonlardagi son UGMSidan chekinishlarni misollar asosida tushuntiring. "birov" so'zining tarixan (birlik son+ov) qolipi hosilasi ekanligini izohlang.

1. Ikkovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar, to'rtovlon tugal bo'lsa, unmaganni undirar. 2. Uchalasi ham bu voqeadan bexabar edi. 3. Birovning moliga ko'z olayirma. 4. Bolalardan birovi kulib yubordi. 5. Beshalasi ham imtihonlarni "a'lo"ga topshirdi. 6. Birniki mingga, mingniki tumanga.

7-mashq. "bir" sonining ma'no taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan, nutqiy reallashuv bilan bog'liq ma'nolariga misollar keltiring. Qaysi ma'no va vazifada nutqda voqelanayotganligini qavs ichida izohlang.

1. Lek erur bisyor dushman, bo'lsa u bir dona ham. (E.Vohidov) 2. Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda. (H.Olimjon) 3. Mening bir orzum – hammaga ibrat bo'ladigan oila bekasi bo'lish. 4. Yig'ilishga bir sen kelmading. 5. Ularning bo'yi bir. 6. Bir gap aytaymi? 7. Bir yomon odating bor!. 8. Mening gapimni eshitib u bir kuldi, bir yig'ladi. 9. Yaqinda u haqida xunuk bir xabar eshitdim. 10. Bir uyga ketgim kelyapti. 11. Akamning hikoyasini eshitib bolalar bir kuldi, bir kuldi, hammamizning kayfiyatimiz ko'tarildi.

8-mashq. Bir so'z bilan ifodalanadigan kasr sonlar qatnashgan gaplar tuzing. Xulosalaringiz asosida son so'z turkumining UGMsini tiklang.

Son turkumi bo'yicha tahlil tartibi va namunasi

1. Qaysi lug'aviy mazmuniy guruhga mansubligini aniqlash.
2. Morfologik tarkibi.
3. Lug'aviy shakllari.
4. Sanoq so'zlarga munosabati.
5. Sintaktik shakllarga munosabati.
6. Tuzilishiga ko'ra turi.
7. Gapdagi vazifasi.

Talabalarga beshtadan toza varaq tarqatildi.

Taqsim son; besh-tadan; -tadan taqsim son hosil qiluvchi shakl; sanoq so'zlar bilan qo'llanishi mumkin: besh donadan; sodda, hol.

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. O'zbek tilida miqdor bildiruvchi so'zlar. Aniq va noaniq miqdor tushunchasini izohlang.
2. Sonlarning morfologik va sintaktik belgilari xususida to'xtaling.
3. Sonlarning morfologik paradigmatlari (tasniflovchi lug'aviy shakllari) haqida gapiring.
4. «Bir» sonidagi semantik-sintaktik ma'no siljishlari xususida gapiring.
5. Numerativ so'zlar va ularning semantik tasnifi, ichki mazmuniy guruhlari xususida to'xtaling.
6. Son LMGLari haqida ma'lumot bering. Ularning sanoq so'zlariga munosabatini yoriting.
7. Sonning tuzilishiga ko'ra turlari hamda kirill va lotin yozuvidagi imlosi haqida ma'lumot bering.
8. Barcha sonlar uchun birlashtiruvchi belgilarni sanang va xulosalaringizni umumlashtiring.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. U bu xabarni eshitib, yarim kechasi otda yo'lga tushibdi. **Berilgan gap tarkibida qaysi so'z turkumlariga oid so'zlar mavjud?**

- A. ot, olmosh, fe'l, ravish, son B. ot, olmosh, fe'l
C. ot, olmosh, fe'l, ravish D. ot, olmosh, fe'l, son

2. **Qaysi gapda qo'llangan o'lchov so'zi alohida olinganda predmet nomini bildirib, matn ichidagina o'lchov ma'nosini bildiradi?**

- A. To'rt nafar talaba darsga qatnashmadi.
B. Shahargacha hali uch chaqirim bor.
C. Uygacha yuz qadam qoldi.
D. Uyning orqasida 4 sotix yer maydoni bor.

3. **Qaysi qatordagi gapda bir so'zi faqat (yuklama) ma'nosini bildirgan?**

- A. Vazifani bir men bajarmadim, xolos.
B. Bugun bir charchadim.
C. Bir qor yog'adi, bir yomg'ir.
D. Bir yomg'ir yog'di, aslo qo'yaver.

4. **Ma'no vazifasiga ko'ra tartib sonlar qaysi so'z turkumiga oid so'zlarga yaqin turadi?**

- A. otlarga B. olmoshlarga C. sifatlarga D. ravishlarga

5. **Sonlarning qaysi ma'no turi ma'lum bir miqdordagi narsa-buyumlarni bir butunlik sifatida ifodalab, atab keladi va ma'no jihatdan otlarga juda yaqin bo'ladi?**

- A. tartib son B. chama son C. dona son D. jamlovchi son

RAVISH SO'Z TURKUMI

Tayanch tushunchalar: holat ravishi, tarz ravishi, o'rin ravishi, o'zgarma so'zlar, yasama ravish, payt ravishi, maqsad ravishi, sabab ravishi.

1-mashq. Berilgan gaplar asosida quyida keltirilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Mashrab goh piyoda, goh eshakda ko'p o'lkalarni kezgan otash-nafas bir shoir. (Oybek) 2. Toshkentdan kelgan lektor "Oyda hayot bor-

mi?" degan mavzuda leksiya o'qib: – Oyda kechasi yuz gradus sovuq, kunduzi yuz gradus issiq bo'ladi,– degandi. (S.Ahmad) 3. Aziza shaxdam qadamlar tashlab idoraga yo'l oldi. 4. Xonaga birin-ketin qizlar kirib kela boshladi. 5. Keyin o'zimiz bafurja gaplashib olamiz. 6. So'rida qat-qat duxoba ko'rpachalar ustma-ust to'shalgan edi. 7. U hozir shu yerda edi-ku!. 8. Yurtim, senga she'r bitdim bu kun, Qiyosingni topmadim aslo. Shoirlar bor o'z yurtin butun Olam aro atagan tanho. (A.Oripov)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Gap tarkibidan ravishlarni toping va ularning ma'nolarini aniqlang.
2. Tub, tublashgan va yasama ravishlarni ajratib, har birini alohida sharhlang.
3. Berilgan ravishlarning ma'nodoshlari, shakldoshlari, vazifadoshlari, va zidlari bilan munosabatlarini aniqlang.
4. Berilgan ravishlarni mustaqil qo'llab gaplar tuzing.

2-mashq. Gaplarni ko'chiring. Ravishlarni qaysi LMGga mansubligini, qanday so'zga bog'lanayotganini va sintaktik vazifasini aniqlang.

1. Endi ketmoqchi bo'lib turgan edim, opam to'satdan kelib qoldi. 2. Bola harorati yuqoriligidan zo'rg'a nafas olar, ammo dard bilan mardlarcha kurashardi. 3. Qo'qqisdan yoqqan qor hammani esankiratib qo'ydi. 4. Ataylab sizni ko'rgani kelsam-u, uyingizdan topa olmasam. 5. Shu tobda uning taqdiri uzil-kesil hal bo'layotgan edi. 6. Dehqonlarning bu yil ancha mehnat qilgani yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. 7. Mastura ko'zlarini makkorona o'ynatib javob berdi. (Oybek)

3-mashq. Gaplar tarkibida ishtirok etgan ravishlarni ko'chiring. Ravishlar tarkibida yaxlitlangan sintaktik shakllarning tarixiy yasalish qoliplarini aniqlang.

1. Bolalari kunda shu yerda. 2. Ota-onasidan oyda bir xabar olmaydi. 3. Kechalari onajonim kirib chiqar tushimga. (A.Oripov) 4. Hali-hali qulog'imda U.Nosirning "Nil va Rim" she'rini yoddan aytib bergan qizchaning ovozi jaranglab turibdi. 5. Hosil tezda yig'ishtirib olindi. 6. Kunduzi hamma ishga ketadi, kechasi esa hovlida odam gavjum. 7. U yana yigitchasiga ish tutdi. 8. Ular birga ketishga qaror qilishdi. 9. Yuqorida sodir bo'layotganlardan pastdagilar bexabar edi. 10. Yur, muhabbat, ketdik, bu yerdan. (M.Yusuf)

4-mashq. Boshqa turkumlarga mansub lisoniy qolip hosilalarining ixtisoslashish, soddalashish, yaxlitlashish, tublashish natijasida ravish leksemaga aylanishiga misollar keltiring.

1. Vaqti-bevaqt kelib sizni bezovta qilganim uchun uzr. 2. So‘ylasang besamar, uzundan-uzoq. (A.Oripov) 3. Manmanlikdan osha bizni horitdi. (F.Yo‘ldosh) 4. Bu qurg‘urlar sa‘vani qo‘ltiqqa solib, ura qochishsa bo‘ladimi! 5. Shartta orqasiga burildi. 6. Kechasi bilan qor yog‘ib chiqdi. 7. U ingliz tilida bemalol gaplashadi. 8. Bola to‘xtovsiz yig‘lardi. 9. U haqida uzoq o‘yladim. 10. Otamni es-es bilaman. 11. Atrof jimjit. 12. Savat-savat olmalar terilgan turibdi. 13. Tun-kun shu yerda.

5-mashq. “Ravish boshqa turkum so‘zlari hisobida boyuvchi turkum” mavzusida mustaqil ish yozing.

6-mashq. “Nima uchun?” metodi asosida quyidagi muammoni oydinlashtiring.

SAVOL: Nima uchun ravishlar o‘zgarmas turkum deyiladi, ammo ularning ba‘zan turlanishi kuzatiladi?

Ravish turkumi bo‘yicha tahlil tartibi va namunasi

1. Qaysi lug‘aviy mazmuniy guruhga mansubligini aniqlash.
2. Morfologik tarkibi.
3. Tuzilishiga ko‘ra turi.
4. Gapdagi vazifasi.

Kunduzi hamma ishga ketadi, **kechasi** esa hovlida odam gavjum.

Payt ravishi; morfologik tarkibi ajralmas holga kelgan; soda, hol.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ravishlarning morfologik jihatdan o‘zgarmaslik tabiatini yoriting.
2. Ravishlarning mazmuniy guruhlari va sintaktik vazifasi haqida gapiring.
3. Ravishlarda so‘z yasalishi xususida ma‘lumot bering.
4. Morfologik soddalashish, ixtisoslashish va yaxlitlashish natijasida yuzaga kelgan ravish leksemalar ro‘yxatini tuzing.
5. Ravish turkumi haqidagi fikrlaringizni umumlashtiring.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. 1) Yaxshiyam, universitet yaqinda. 2) Yaqinda o'qishni tugatadi. Ushbu gaplardagi *yaqinda* so'zi haqidagi qaysi fikr to'g'ri?

- A. har ikkala gapda o'rin ravishi
- B. 1-gapda payt ravishi, 2-gapda o'rin ravishi
- C. 1-gapda o'rin ravishi, 2-gapda payt ravishi
- D. har ikkala gapda payt ravishi

2. 1. Partalarni nari-beri surdik. 2. Akbar nari-beri dars qildi.

2. Ushbu gaplardagi *nari-beri* so'zi haqidagi qaysi hukm to'g'ri?

- A. 1-gapda holat ravishi, 2-gapda o'rin ravishi
- B. har ikkala gapda holat ravishi
- C. har ikkala gapda o'rin ravishi
- D. 1-gapda o'rin ravishi, 2-gapda holat ravishi

3. Ota-bobolarimiz hamisha astoydil olg'a intilganlar. Ushbu gapda qo'llangan ravishning ma'no turini aniqlang.

- A. o'rin ravishi
- B. payt va holat ravishlari
- C. o'rin va payt ravishlari
- D. holat, o'rin va payt ravishlari

4. Kampir ba'zan mudrar, ba'zan o'g'li bilan nimalarnidir gaplashardi. 2. Ba'zan yaxshilik maqsadida aytilgan yolg'on so'z ham ziyon emas. Ushbu gaplardagi ba'zan so'zini izohlang.

- A. har ikkalasida ham ravish
- B. har ikkalasida ham ayiruv bog'lovchisi
- C. 1-gapda ayiruv bog'lovchisi, 2-gapda ravish
- D. 1-gapda ravish, 2-gapda ayiruv bog'lovchisi

5. 1. Salmon ota gapni uzoqdan boshladi. 2. Orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho'kiz uni to'xtovsiz chaqirib kelyapti. Ushbu gaplardagi *uzoqdan* so'zini izohlang.

- A. birinchisida holat, ikkinchisida o'rin bildiruvchi ravish
- B. har ikkalasida payt bildiruvchi ravish
- C. birinchisida o'rin, ikkinchisida holat bildiruvchi ravish
- D. har ikkalasida o'rin bildiruvchi ravish

6. Kunduzi o'ralashib yurganlardan qittay ham qolmagan. Ushbu gapdagi ravishlar sonini aniqlang.

- A. 1
- B. 2
- C. 3
- D. 4

7. 1. Hoshimjon maktabning nomiga e'tibor bermagan ekan. 2. U nima qilishni bilmasdan ishlarni nomiga qilardi. **Berilgan gaplardagi nomiga so'ziga qaysi javobda to'g'ri izoh berilgan?**

- A. 1-gapda turlangan ot, 2-gapda ravish
- B. 1-gapda ravish, 2-gapda turlangan ot
- C. 1-gapda turlangan ravish, 2-gapda yasama ravish
- D. har ikkala gapda ham turlangan ot

8. Salimanning ko'ngli joyiga tushdi va aybdorlarcha tavassum bilan yigitga qaradi. **Ushbu gapda ravish qanday vazifada kelgan?**

- A. hol
- B. sifatlovchi-aniqlovchi
- C. ega
- D. qaratqich-aniqlovchi

9. **Qaysi gapda juft fe'llardan hosil qilingan ravish mavjud?**

- A. Ishning kam-ko'stini tekshirib ko'r.
- B. Uning dedi-dedisi bilan bir narsa o'zgaraydi.
- C. Bu tashvishdan uzil-kesil qutuldim.
- D. Sizga bor-yo'g'imni aytdim-ku, oshna.

10. Rahim yugurib uyga keldi-yu, birpas nari-beri shoshib ovqatlandi-da, shu ondayoq chiqib ketdi. **Ushbu gapdagi yasama ravishlar qaysi qatorida berilgan?**

- A) yugurib, shoshib, birpas
- B) yugurib, shoshib, birpas, shu ondayoq
- C) shu ondayoq
- D) birpas, nari-beri, shu ondayoq

TAQLID SO'ZLAR

Tayanch tushunchalar: holatga taqlid, ovozga taqlid, turlanish, o'zgarish, o'zgarmaslik.

1-mashq. Berilgan gaplar asosida topshiriqlarni bajaring.

1. Otlarning dupir-dupiri eshitildi. 2. Hassa to'q-to'q qilyapti. 3. Mahallada duv-duv gap. 4. Yoqimli shabada g'ir-g'ir esyapti. 5. Eshik ortidan shivir-shivir eshitilardi. 6. Kuzda mevalar hil-hil pishgan. 7. Bola yalt etib onasi tomonga qaradi. 8. Qizigan yog'ga suv sachrab jizz etib ketdi.

Topshiriqlar:

1. Mustaqil qo'llanuvchi va mustaqil qo'llanmaydigan, tovushga va holatga taqlidni bildiruvchi so'zlarni alohida-alohida sharhlang.

2. Berilgan gaplar tarkibidagi so'zlarni mustaqil ravishda og'zaki shaklda sharhlang va ijodiy matn tuzing.

2-mashq. Ko'chiring. Gaplar tarkibidagi taqlidlarning semantik guruhlarini ajrating. Qaysi so'zga bog'lanayotganligi va sintaktik vazifasini aniqlang.

1. Men haqimda gap-so'zlar ko'p shuv-shuv, G'iybatlarning bo'ronida zuv-zuv, gunohlarim to'kiladi duv-duv. (qo'shiqdan) 2. Mahallada duv-duv gap. 3. Mayin shamol esadi g'ir-g'ir. 4. Qo'shni uydan chaqaloqning inga-ingasi eshitalardi. 5. Anora qah-qah otib kulib yubordi. 6. Yonginamdan lip etib o'tib ketganini sezmay qolibman. 7. Qamchi bilan taqa-tuq, Darvozani qoqdi chol. (A.Oripov) 8. U chirs-chirs yonayotgan olovga termulib o'tirardi. 9. Devor gup etib quladi. 10. Havo issiq, qilt etgan shamol yo'q. 11. Zerikkanimdan partadosh qizlarning shivir-shiviriga quloq tutdim. 12. Eshik lang ochiq edi. 13. Shaftolilar hil-hil pishibdi.

3-mashq. Ajratilgan so'zlarni morfem tahlil qiling. Taqlid so'zlarining qaysi turkum so'zlari yasalishi uchun asos bo'layotganligini aniqlang.

1. **Gursillab** yiqildi keksa qayrag'och... 2. Dam o'tmay **sharros** yong'ir quyib berdi. 3. Zalni **gulduros** qarsak ovozi tutib ketdi. 4. Soch emas bu, **sharshara**. 5. Soy suvlari **shildirab** oqadi. 6. Bu xabarni eshitib yuragim **shuvullab** ketdi. 6. **Mo'ltirab** termilar ikki qora ko'z. 7. Tulkining **lip etib** o'tib ketganini sezmay qoldik. 8. Orqa tomondan nimadir **tars etdi**. 9. Qushlar **pir etib** osmonga ko'tarildi. 10. Tashqaridan **miyov degan** ovoz eshitildi. 11. **G'ing desang**, o'ldiraman. 12. Soat 12 da boraman degani **lop etib** esiga tushib ketdi.

4-mashq. Gaplar tarkibidagi taqlidlarning sintaktik shakllarga munosabati va gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Otlarning dupir-dupiridan qulog'im bitdi. 2. Ancha vaqtgacha uxlo olmay, mashinalarning viz-viziga quloq solib yotdim. 3. Telefonning jiring-jiringidan uyg'onib ketdim. 4. Bola ko'ylakning yaltir-yultiriga mahliyo bo'lib boqardi. 5. Butun qishloqni karnayning g'at-g'ati tutib

ketdi. 6. Dam o'tmay o'choqqa osilgan qozondan burq-burq eshitila boshladi. 7. Oyoq ostidagi qorning g'arch-g'urchi zavqimni keltirardi.

5-mashq. Berilgan nutqiy hosilalarga tayanib taqlidlarda polisemiya, shakldoshlik, ma'nodoshlik munosabatlari mavjudligini asoslang.

1. U menga yalt etib qaradi. 2. Kutilmaganda yalt etib chaqmoq chaqdi. 3. Tiq etgan ovoz eshitilmaydi. 4. Oktabrning o'rtalarida gup etib qor yog'ib berdi. 5. Minora gup etib quladi. 6. G'iz-g'iz qatnab turibdi. 7. G'iz-g'iz deb uchib ketdi. 8. Qishloqda chiroqlar milt-milt (yalt-yult, mildir-mildir, yaltir-yultir) porlay boshladi. 9. Polga surtilgan bo'yoq yaxshi qurimagani uchun oyoqqa chip-chip yopishardi. 10. Chip-chip jo'jalarim..

6-mashq. Taqlid so'zlar ro'yxatini tuzing.

Taqlid so'z turkumi bo'yicha tahlil tartibi va namunasi

1. Lug'aviy mazmuniy guruhini aniqlash.
2. Morfologik tarkibi.
3. Sintaktik shakllarga munosabati.
4. Tuzilishiga ko'ra turi.
5. Gapdagi vazifasi.

Zerikkanimdan partadosh qizlarning shivir-shiviriga quloq tutdim.

Ovozga taqlidni bildiradi; shivir-shivir-i-ga; -i I shaxs birlik, -ga jo'nalish kelishigi; takroriy so'z, to'ldiruvchi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Taqlidlarning mustaqil so'z sifatida baholashning ilmiy asoslarini yoriting.
2. Taqlidlarning egalik va kelishik shakllariga munosabatini bayon qiling.
3. Taqlidlarning mazmuniy guruhlari va vazifa semalari haqida ma'lumot bering.
4. Taqlidlarning tuzilishiga ko'ra turlarini sanang.
5. Mustaqil qo'llana oladigan va faqat qo'shma fe'l tarkibida ishlatiladigan taqlidlarga misollar keltiring
6. Taqlidlarda ko'p ma'nolilik, ma'nodoshlik va shakldoshlik qay ko'rinishda yuzaga chiqadi?
7. Taqlid turkumi uchun xos bo'lgan atash, ifoda va vazifa semalarini aniqlang. Xulosalaringiz asosida taqlid turkumining UGMsini tiklang.

OLMOSH SO'Z TURKUMI

Tayanch tushunchalar: ko'rsatish olmoshi, kishilik olmoshi, ishora so'zlar, o'zlik olmoshi, so'roq olmoshi, gumon olmoshi, belgilash olmoshi.

1-mashq. Berilgan topshiriqlar asosida olmosh turkumining UGMsini oching.

1. Har bahorda shu bo'lar takror, Har bahor ham shunday o'tadi. Qancha tirishsam ham u beor Yellar meni aldab ketadi. (H.Olimjon) 2. Insonda hamma narsa: yuz ham, kiyim ham, qalb ham, fikr ham go'zal bo'lishi lozim. (Cho'lpon) 3. Xulq har kim o'z qiyofasini ko'rsatadigan ko'zgidir. (I.Gyote) 4. Oyisining chehrasida faqat tashvish emas, allaqanday qo'rquv ham bor edi. (O.Yoqubov) 5. Nimani gapirish har doim muhim bo'lavermaydi, qanday gapirish esa har doim muhim. (Gyote) 6. Men sening ko'changdan o'tmasman zinhor. (A.Oripov)

Induksiya asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Gaplar tarkibida qo'llangan mustaqil so'zlar o'rnida almashinib ishlatiladigan so'zlarni kuzating.

2. Qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llanishi va ishoraviy ma'nosiga ko'ra guruhlab, alohida-alohida sharhlang.

3. Matnda qo'llangan olmoshlarni o'zaro qiyoslab, bir-biridan farqli tomonlarini aniqlang.

4. Matndagi olmoshlarga xos umumiy tomonlarni aniqlang.

5. Berilgan olmoshlarning ma'nodoshlari, vazifadoshlari, qiymatdoshlari va zidlari bilan munosabatlari (yaqinlik, o'xshashlik va farqlarni) aniqlang.

6. Berilgan olmoshlarni mustaqil qo'llab ijodiy matn tuzing.

2-mashq. Gaplar tarkibidagi olmoshlarning mazmuniy guruhi, qaysi turkumga ishora qilayotgani va sintaktik vazifasini aniqlang. Olmoshlarning nutqimizni o'rinsiz takrorlardan tozalashning, fikrni ixcham bayon qilishning muhim vositasi ekanligini tushuntiring. O'zi bog'lana-yotgan so'z bilan birga ko'chiring.

1. Siz, o'shami? (A.Qodiriy) 2. Men senga shunchalar ixlos qo'yg'anman. 3. Buyuklar buyuk ishlarga uning qanday ulug'ligini his etgani uchun, ahmoqlar esa uning qanday qiyinligini anglay olmagan uchun qo'l uradi. (L.K.Vovenarg) 4. Meni nazariga ilmaydi birov, Sizga shu gaplarni

aytadin tikka. (A.Oripov) 5. Hamma har narsaga ishqiboz, Kimdir marka yig'ar, kimdir it boqar. (A.Oripov) 6. Dunyoni qizg'anma mendan, azizim, Men sening ko'changdan o'tmasman zinhor. Bu yorug' olamda o'z aytar so'zim, Va o'zim sig'inar mozorlarim bor. (A.Oripov) 7. Bu nima ko'rgulik. 8. Unda nima ishing bor. 9. Bu gapni unga qanday aytaman?

3-mashq. Berilgan gaplardagi kishilik olmoshlarining nutqiy qurshov ta'sirida yuzaga chiqayotgan oraliq va xususiy grammatik ma'no-larini aniqlang.

1. Biz bu masalani boshqacha usul bilan hal qildik. 2. Sizga javobni biz beramiz-da! 3. Opa, bu kitob siznikimi? 4. Oyimlarga mehrimiz ulug'. Ular bizning olqishimizga loyiqlar. 5. Unisi 15 yoshga kirdi. 6. Uning avval o'zini bilsin. 7. Uning so'zlarini hech kim eshitmasdi. 8. Xo'sh, biz endi bu yog'iga nima deymiz? 9. Mening bir jaydari falsafamdirdir shu: Hargiz iltimosga kuning qolmasin.

4-mashq. Ixtisoslashish natijasida boshqa turkum so'zlariga aylangan olmoshlarning ma'nosini tushuntiring. Tarkibi va imlosini izohlang.

1. **Shu-shu** bo'ldi-yu, Siddiqjon Yana o'z to'piga qo'shilish taraddudiga tushdi. (A.Qahhor) 2. **Shu-shu** boshqa arz qilganini bilmayman. (A.Qahhor) 3. **O'sha-o'sha** uni ko'rmadim. 4. Ahvol haliyam **o'sha-o'sha**. 5. **Unda-bunda** bulbulning ovozi eshitaladi, **unda-bunda** katta osma chiroqlar charaqlaydi. (Oybek) 6. **Nima**, hammasiga men aybdormanmi? 7. **Qani**, uyga kiring. 8. **Qalay**, fikrimiz sizga ma'qulmi? 9. **O'z-o'zidan** arazlab ketib qoldi. 10. Yuzta **siz-u bizdan** bitta jiz-u biz yaxshi. 11. U bilan **san-manga** borib qolganmiz. 12. Negadir **manman** bo'lib qolibsizmi?!

5-mashq. Olmosh lug'aviy mazmuniy guruhlarining sintaktik shakllarga munosabatini bayon qiling. Kelishiklarning belgili yoki belgisiz qo'llanayotganiga diqqat qiling. Qanday holda tobelanuvchi, qanday holatda tobelantiruvchi bo'lib kelishini aniqlang.

1. Do'kondan nima olmoqchisiz? 2. O'z uyim, o'lan to'shagim. 3. Bir nima dedimmi? 4. Balki senga ayon, balki noayon. (A.Oripov) 5. Sizga gullarning qandayi yoqadi? 6. Shundayini yoqtiraman. 7. Sendan boshqa kimim bor? 8. Na bo'lg'ay bir nafas men ham yanog'ing uzra xol bo'lsam. (H.Olimjon) 9. Uning menga yoqmay turibdi. 10. Uning senga

nimasi yoqmadimi? 11. Qaysingiz men bilan ketasiz? 12. Talabalarning qanchasi paxtaga bormadi?

6-mashq. Olmoshga xos morfologik va sintaktik belgilarni aniqlab, soʻz turkumining UGMsini tiklang.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Olmoshlarning mustaqil soʻzlar tizimidagi oʻziga xos ishoraviy oʻrnini yoriting.
2. Olmosh bildiruvchi maʼnoning nutqiy reallashuvda yuzaga chiqishini misollar bilan tushuntiring.
3. Olmoshlarning mazmuniy guruhlari va ularning boshqa mustaqil soʻzlarga munosabatini yoriting.
4. Olmoshlarning tuzilishiga koʻra turlari xususida maʼlumot bering.
5. Olmoshlarda mujassamlangan shaxs, hurmat, miqdor, munosabat maʼnolarini sharhlang.
6. Olmoshlarning nutqimizni oʻrinsiz takrorlardan tozalashning, fikrni ixcham bayon qilishning muhim vositasi ekanligini tushuntiring.
7. Olmoshlarning lugʻaviy va sintaktik shakllarga munosabatini yoriting.
8. Olmosh haqidagi tushunchalaringizni umumlashtiring.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Ayol qalbi tosh boʻlsa ham, allaqayeri paxtadan yumshoq, ipakdan mayin boʻladi. **Ushbu gapda gumon olmoshi qaysi gap boʻlagi vazifasida kelgan?**

- A. ega B. toʻldiruvchi
C. oʻrin holi D. Aniqlovchi

2. **Berilgan gaplarning qaysi birida olmosh feʼl oʻrnida qoʻllangan?**

- A. Karim gullarni uza boshladi. Bu esa bogʻbonning jahlini chiqardi.
B. Holid toshni oʻn marta koʻtardi. Men ham shuncha koʻtarishni orzu qilaman.
C. Gullarning koʻpi pushti rang. Ana shu rang menga juda yoqadi.
D. Gul ochildi. Uning ochilishi kishilarga rohat beradi.

3. **Qaysi gapda olmosh ishtirok etmagan?**

- A. Bahor andoqki, bulbul gul uzori toza istarmen.
B. Na boʻldiki, siz shunchalar jim qoldingiz?

C. Bolalar yugurgancha ketishdi, kimdir gullarga suv quya boshladi.
D. Ba'zi odamlar mehnatdan qochadilar.

4. Qaysi qatordagi gapda gumon olmoshi qo'llanmagan?

- A. Ali Qushchi allanimalarni o'ylab ketdi.
- B. Vaqt allamahol bo'lib qolgan edi
- C. Negadir taftishchining ovozi menga yoqmadi.
- D. Ot nima uchundir o'rnidan jilmasdi.

5. Qaysi qatordagi gapda o'zlik olmoshi o'rnida kishilik olmoshini qo'llab bo'lmaydi?

- A. Rostini aysam o'zim ham unchalik yomon bola emasman
- B. Qurvonbibi fotiha to'yidan keyin biroz o'ziga kelgan edi
- C. Bu ishlarni qilgan o'zi
- D. Yutuqlar o'zimizniki

6. Qaysi gapda narsa-hodisa so'rog'i belgi-xususiyat so'rog'i o'rnida qo'llangan?

- A. Nega uni otdami, aravadami eltib qo'ymadi
- B. Kechagi gaplardan keyin qaysi yuzi bilan boradi
- C. Nima ishlari bor ekan? – so'radi Zulayho xola
- D. Yo qudratingdan, bu qanday odam?

7. Qaysi gapda belgilash olmoshi ot o'rnida qo'llangan?

- A. Dildorning bori gaplari haqiqat edi
- B. Har bir inson o'z baxti uchun kurashadi
- C. Ovozi har qachongidan ham ta'sirliroq edi
- D. Hamma perronda, hamma o'z jigarini qidiradi

8. Har kim ko'z oldida bir narsa topib, shunga ko'z tikkan va u narsada Zebi o'z otasini, Qurvonbibi o'z erini, Salti qovog'idan qor yog'ib turgan sovuq bir so'fini ko'rardi. Ushbu gapda nechta o'rinda olmosh qo'llangan?

- A. 5 B. 4 C. 6 D. 7

9. Qaysi gapda ko'rsatish olmoshi gap o'rnida qo'llangan?

- A. Kim ko'p o'qisa, u ko'p biladi
- B. U Saidiy bilan do'st edi, bu do'stlik o'talarini ham munosabatdor qilgan edi

- C. Istagim shuki, doimo tinchlik bo'lsin
D. Kitobni ko'p o'qisangiz, undan ko'p hikmat topasiz

10. She'rdan qanday olmoshlar ishtirok etgan?

O'zimni moziyning bag'riga urdim

Va shu on shukrona aytib qaytdim men

Kimdir ko'rmay ketgan baxtni men ko'rdim

Kimdir aytmay ketgan so'zni aytdim men.

- A. o'zlik, so'roq, kishilik va ko'rsatish olmoshlari
B. gumon, kishilik, o'zlik va so'roq olmoshlari
C. kishilik, ko'rsatish, so'roq va gumon olmoshlari
D. gumon, o'zlik va kishilik olmoshlari

SINTAKTIK SHAKL HOSIL QILUVCHI KATEGORIYALAR

Tayanch tushunchalar: egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, kesimlik kategoriyasi, zamon shakli, shaxs-son shakli, mayl shakli, tasdiq-inkor shakli.

Aqliy hujum uchun savollar:

1. So'zlar qaysi xususiyatlariga ko'ra o'zgaradigan va o'zgarmas so'zlarga bo'linadi?
2. Sintaktik shakllarning ichki paradigmalari nima?
3. Egalik shakllarining semantik va sintaktik vazifasi haqida gapiring.
4. Egalik shakllarining soddalanishiga misollar keltiring.
5. Kelishik kategoriyasining oraliq, xususiy va umumiy grammatik ma'nosini ochish yo'llarini tushuntiring.
6. Kelishiklarda grammatik sinonimiya hodisasini sharhlang.
7. Kelishik shakllarining semantik va sintaktik tabiatini yoriting.
8. Kelishiklarning soddalanishi nima?
9. Tuslovchi qo'shimchalar sintagmatikasi nima?

1-mashq. Matni ko'chiring va berilgan topshiriqlar asosida sintaktik shakllarning UGMsini oching.

Dorboz

Bulutlarga yondosh, osmon ostida,
Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz.
Qilichning damiday arqon ustida,
Ko'zlarini yumib yuribdi dorboz.

Odamlar, odamlar, uni olqishlang,
Qarang, u naqadar epchil va o'ktam,
Biz-chi, eh.. ba'zi bir ko'zi ochiqlar
Eplab yurolmaymiz katta yo'lda ham. (A.Oripov)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Gaplarni kuzatib, so'zlarni aloqa-munosabatga kiritayotgan shakllarni aniqlang.
2. Sintaktik shakllar bilan shakllangan birikmalar tuzib, sirani boyiting.
3. Berilgan va o'zingiz davom ettirgan siradagi egalik, kelishik va kesimlik shakllarini alohida-alohida sharhlang.
4. Berilgan sintaktik shakllarni ma'nodoshlari, shakldoshlari, vazifadoshlari, qiymatdoshlari va zidlari bilan munosabatlari (yaqinlik, o'xshashlik va farqlarni)ni aniqlang.
5. Berilgan sintaktik shakllarni qo'llab ijodiy matn, test tuzing.

2-mashq. Gaplarni ko'chiring. Egalik shakllarining yasalishi, ma'noviy va sintaktik vazifasi, so'z birikmasi hosil qilishdagi ahamiyatini tushuntiring. So'zlarning turli ma'noviy guruhlarida turli xildagi ma'no va vazifa bajarishiga diqqat qiling.

1. Mana bunisi menga ma'qul. 2. Chertsam, ko'nglim yangrar mening dutorim. 3. Singlisi uchun xijolat bo'ldi. 4. Nega kelding dengiz bo'yiga, Gul janubning oydin kechasi? 5. Ko'rmaganning ko'rgani qursin. 6. Qozonga yaqinlashsang, qorasi yuqar. 7. Menga qizili yoqadi. 8. Mening ikki onam bor, Ikkisi ham mehribon. 9. Shunisi ma'qul. 10. Qaysingiz paxtaga bormaysiz? 11. Sevqanim aybimmi? 12. Ko'rishim uncha yaxshi emas. 13. Ko'pi ketib, ozi qoldi.

3-mashq. Ko'chiring. Gaplar tarkibidagi soddalashgan egalik shakllarining tagiga chizing. Qanday tarixiy qolip hosilasi ekanligini aniqlab, qavs ichida izohlang.



1. Yaxshisi, bu haqda keyin gaplashamiz. 2. Bori elga yaxshilik qilinki, mundin yaxshi yo'q.. (Bobur) 3. Kechasi havo biroz salqinlashdi. 4. Bari-bari senga bo'lsin, senga bo'lsin, onajon. (A.Oripov) 5. Jami talabalarimiz 200 ta. 6. To'g'risi, imtihonga o'zim qatnashmaganman. 7. Kunduzi tog' orqasiga o'tib kelishga qasd qildi. 8. Talabalar yoppasi

hasharga safarbar etildi. 9. Mayda-chuyda kamchiliklar chiqibdi, mazmuni. 10. Ammo, rosti, sizdan xafa emasman.

4-mashq. Berilgan soʻzlardagi egalik shakllarining maʼnosini sharhlang. Bu soʻzlarni tobe soʻz bilan kengaytiring va soʻz birikmalari hosil qiling. Barcha egalik shakllari uchun birlashtiruvchi belgilarni umumlashtiring. Xulosalaringiz asosida egalik kategoriyasining UGMsini tiklang.

ana uning, koʻnglim, singlim, shahring, toleying, burnim, qaysing, kimim, nimang, ayrimlaringiz, hammang, oʻzingiz, bilganimiz, oʻtirishing, yozishim, biring, ikkalang, bolasi, obroʻyi

5-mashq. UGMsi “oldingi soʻzni keyingi soʻzga tobelantirib bogʻlash” boʻlgan kelishik shakllarida oraliq va xususiy grammatik maʼnolarni aniqlang. Har bir kelishik shaklining grammatik maʼnosi, shakli, turli qurshovlardagi maʼno koʻrinishlari, oʻzi qoʻshilgan soʻzni qanday soʻzlarga tobelab bogʻlashi, maʼnoviy va vazifaviy imkoniyatlariga koʻra ziddiyatlarini chizmaga tayangan holda izohlang.



6-mashq. Birikmalardagi kelishik shakllarini koʻmakchilar va boshqa maʼnodosh kelishik shakllari bilan almashtirib koʻchiring. Maʼno va vazifadagi farqlarni izohlang.

Akamni gapirmoq, o'qishdan gapirmoq, telefonda gaplashmoq, ukanga olmoq, kelganiga xursand, bilmaganidan uyalmoq, bolalardan beshyasi, yo'lda adashmoq, shu teshikka ho'kiz siqqaniga ishonmoq, oshdan oling, maktabga ketmoq, mehr-muhabbatga to'yomoq, gapingizga tushunmoq, paxtazordan o'tmoq, yurakdan tabriklamoq, quvonchdan yorishmoq, mehnatda qotgan, mehnatdan charchamoq,

7-mashq. Gaplar tarkibidagi soddalashgan kelishik shakllarini ko'chiring. Qaysi kelishik shakllari soddalashishga uchragani va qanday tarixiy qolip hosilasi ekanligini aniqlashtiring.

1. Mening bolalarim bekorga o'lib ketadiganlardanmas. (O'.Hoshimov) 2. Kunda shu yerdasiz. 3. Birdan uning rangiga qon yugurdi. 4. Tezda yetib keling. 5. Shoshmang, birga ketamiz. 6. Sizni pastda kutaman. 7. Qo'qqisidan qilingan hujum hammani esankirاتب qo'ydi. 8. Aftidan, u mendan xafa. 9. Yaqinda televizorda u haqda ko'rsatuv berishdi. 10. Birdan berilgan savoldan u shoshib qoldi. 11. Birrovga o'tib kelishini aytib ketdi. 12. Oldin bolani zimdan kuzatdi.

8-mashq. Matnni ko'chiring. Kelishik shakllarining gapni shakllantirishdagi o'rnini izohlang. Har bir kelishik shaklining semantik va sintaktik vazifasini yoriting.

Yigit qasam ichmaydi

Rost so'zlagin deydilar boshga qilich kelsa ham,
To'kilib tushar tog'lar mard ko'ziga kelsa nam,
Yolg'on iymonni yeydi asrasin haq yolg'ondan,
Yigit qasam ichmaydi, yigitning so'zi qasam.

Va'daga vafo qilish yigit ishi azaldan,
Nonidan lafzi halol, belda belbog'i mahkam.
Suratimas siyrati obro' topar elda ham,
Yigit qasam ichmaydi, yigitning so'zi qasam.

Oq ro'molli oy qizning, baxtidir asil yigit,
Oila saltanatin, taxtidir asil yigit,
Otasining qanoti, shaxtidir asil yigit,
Yigit qasam ichmaydi, yigitning so'zi qasam.

So'z berib bajarmasa, qizdan ranjimaydilar,
Bahordek sochilmasa, kuzdan ranjimaydilar,
Halol lafziga qarab, sarasin tanlaydilar,
Yigit qasam ichmaydi, yigitning so'zi qasam.

Ori yo'qning davrada joyi ostona bo'lar,
Do'sti bo'lmaydi uning baxti begona bo'lar,
Esiz yigit degan nom ko'ngli g'amxona bo'lar,
Yigit qasam ichmaydi, yigitning so'zi qasam.

(R. Hatamova)

9-mashq. Ko'chiring. Gap markazi – kesimni shakllantirayotgan tasdiq/inkor, shaxs-son, mayl/zamon shakllarini aniqlang. Tuslovchi qo'shimchalar sintagmatikasiga e'tiboringizni qarating. Mazkur shakllarning qaysi turkum so'zlari bilan qo'llanayotganligiga diqqat qiling.

1. Qalbni davolamay turib, dardni davolab bo'lmaydi. (Suqrot) 2. Harakat va piyoda yurish miyaga turtki berib, fikrni ishga soladi. (J.J.Russo) 3. Dunyoda eng aqli jonivor – baliq! Birinchidan, soqov. Ikkinchidan, muttasil dumini likillatadi! (O'.Hoshimov) 4. Mukammal ko'rmoqchi bo'ldik dunyoni, Yetuk bo'lolmadik o'zimiz biroq. (A.Oripov) 5. Hozir ancha yaxshiman. 6. Sen har doim birinchisan. 7. O'shanda men 16 yoshda edim. 8. Opajon, endi tuzukmisiz? 9. Hammasiga aybdor o'zimman. 10. Nido bergin, qaydasan, sharpangga quloq tutdim, Sirli tushlar ko'rib men bor dunyoni unutdim. (A.Oripov) 11. Sen beshik emassan, dorsan, tabiat, Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!.

10-mashq. Berilgan gaplar kesimining tasdiq yoki inkor shaklda ekanligini aniqlang. Inkor ma'nosining qanday vosita bilan hosil qilinayotganligi va kesim vazifasida kelayotgan so'zni izohlang.

1. Yosh edim, bilmadim, ona, qadringni... 2. Men endi siz bilgan ayol emasman. 3. Na uyiga bordi, na kitob o'qidi. 4. U bugun ham ketmoqchi emas. 5. Na akam bor, na ukam bor. Gap to'qima, ey badkirdor. (I.Krilov) 6. U hayotida birovga yaxshilik qilgan emas. 7. Yozuvchilikni ko'plar kasb emas, iste'dodli shaxsning yashash tarzi deb hisoblaydilar. (A.Muxtor) 8. Biz sizdan qarzdor emasmiz. 9. Yaxshilik ahli jahondan istama Bobur kabi, Kelmadi hargiz netayin ul zamondin yaxshilik. (Bobur). 10. Ular to'rtta emas, beshta edi. 11. Bu yaxshi odat emas.

11-mashq. Ko'chiring. Nutqiy voqelanishlardagi mayl shakllarining fe'l-kesim va ot-kesimlarda tuslanishi va ma'nolarini izohlang. Mayl shakllarida zamon va modāl ma'nolarining in'ikosiga diqqat qiling. Shart maylining nomustaqil kesim bo'lib kelishini izohlang. Mashqlar asosida mayl kategoriyasi UGMsini tiklang.

1. Olim bo'lsang, olam seniki. 2. Qaniydi, o'n sakkiz yoshim qaytib kelsa. 3. Agar aldama u sovuq simlar, Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo. (A.Oripov) 4. Tushuntir, qiynama! Anglat, bu ne hol?. 5. Sizga yostiq bersam, bir yonboshlasangiz. 6. Aytib qo'ygin, meni ro'yxatga qo'shishmasin. 7. Jo'sh uray, qaynay, tanimda toza qonim boricha. (Hamza) 8. Olib chiqing, ikkinchi qorasini ko'rmay. 9. Kelayotgan akam bo'lsaydi. 10. Buloq suvi muzdek bo'lsa, daryo suvi iliq bo'ladi. 11. Boring bo'lay, yo'g'ing bo'lay, yoningdagi yoring bo'lay. 12. Biz o'quvchi bo'laylik, siz o'qituvchi bo'ling. 13. Men shoirman, u o'quvchi.

12-mashq. Gaparning zamoni, zamon shakli va ma'nosini aniqlang. Zamon shakli va ma'nosi fe'l-kesim yoki ot-kesimda voqelanayotganligini izohlang.

1. Qorli tog'lar turar qoshida, gul vodiylar yashnar qoshida. (H.Olimjon) 2. Agar bo'lsang, hammadan ham zo'r, Pashsha yasab jon kirgizib ko'r. (Qo'shiqdan) 3. Yurak bormi senda ham, ey yor?! 4. U vaqtlar men yosh edim. 5. Bahoraning ahvoli kechagidan ancha yaxshi. 6. Opamning jahli tez. 7. Anvar uyida ekan. 8. Endi kech bo'ldi. 9. Og'iz bezagi to'g'ri so'z turur. (A.Yugnakiy) 10. Endi bilsam, chuchvarani xom sanagan ekanman.

13-mashq. Ko'chiring. Zamon shakllarida omonimiya va sinonimiya hodisasini izohlang. Zamon shakllarining harakat tarzi shakllari bilan munosabatini tushuntiring. Barcha zamon shakllari uchun birlashtiruvchi belgilarni sanang va fikrlaringizni umumlashtiring.

1. Hozir qorong'ida qayoqqa bordigu, nimayam qildik. (P.Tursun) 2. Shundan so'ng, bilmadim, qancha vaqt shirin xayollar osmonida qanot qoqib yurdim. (Sayyor.) 3. Kecha dalada u chunonam chekanka qilyaptiki, bamisoli usta sartarosh g'o'zani tarashlayapti deysiz. (S.Ahmad) 4. Bularni boshqa qismga yuboryapmiz. (A.Ubay) 5. Qayta-qayta hidlaganingda yer mehriga to'yganday bo'lasan. (Sayyor) 6. Tashabbuskor yoshlarni ko'rib odam quvonadi. ("Qashq.") 7. Bugun paxta yig'im-terimini boshlayapmiz. 8. O'ylab qaragam, xatolik mendan o'tyapti. 9. Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan. (M.Yusuf) 10. Uning gapidan xafa bo'lib ketib qolganim hammaga ma'lum bo'libdi.

14-mashq. Shaxs-son bilan shakllangan kesimning qanday so'z bilan ifodalanayotganligini aniqlang. Shaxs-son UGMsining so'zlarning turli ma'noviy guruhlarida har xil ma'no va vazifada parchalanishiga

diqqat qiling. Barcha shaxs-son shakllari uchun birlashtiruvchi belgilarni umumlashtiring. Xulosalaringiz asosida shaxs-son kategoriyasining UGMsini tiklang.

1. Intilganga tole yor. (Maqol) 2. Ulug'lar bersalar, olmasman dema, llik sun, og'iz ur, yemasang yema. (Yusuf Xos Xojib) 3. Bu kishi sinf rahbarimiz. 4. Biz ishchimiz, mehnatchimiz, biz ham inson o'g'limiz. (Hamza) 5. Hozir ancha yaxshiman. 6. Kim birinchi? Siz uchinchimisiz? 7. Hammasiga aybdor o'zimman. 8. Men hayot ekanman, farzandlarim hech narsaga zoriqmaydi. 9. O'ylaganlarim tush ekan, adashibman.

15-mashq. Gaplarni ko'chiring. Kesim tarkibidagi bog'lamalarni aniqlang. *Bo'lmoq, sanaladi, hisoblanadi* fe'llarining mustaqil yoki yordamchi fe'lligi xususida qarashlaringizni bayon qiling.

1. U shifokor bo'ladi. 2. U shifokorim bo'ladi. 3. Mehnatning noni shirin bo'ladi. 4. Birov bilan oshno bo'lay desangiz, avval va'dasinda turishin ko'ring. (Mahtumquli) 5. Siz bizning hovlida bo'lganmisiz? (A.Qodiriy) 6. Bahor havosi o'zgaruvchan bo'ladi. 7. Ukam kasal bo'ldi. 8. Bolalar allaqachon ketib bo'ldi. 9. Bir oydan keyin xuddi mana shu katta bog'da dang'illama to'y bo'ldi. (O'.Hoshimov) 10. Sigir qancha bo'ldi? – Arzon bo'ldi. Bo'lishi qancha? – Olavering, ot bilan tuya bo'larmidi! ("O'TIL"dan) 11. O'ziga bo'y bo'lmagan, o'zgaga yeng bo'lmas. (Maqol) 12. Kim eding? Endi kim bo'lding? 13. Oz bo'lsin, oz bo'lsa ham, soz bo'lsin. (Maqol) 14. Jonim bilan, Rustamjon aka. Bundan ko'nglingiz to'q bo'lsin. (K.Yashin) 15. Shov-shuv ko'tarma! Dadang xabardor bo'lib qolsa, yaxshi bo'lmaydi. (Oybek) 16. Qutidor bilan Otabekning kimi bo'lasiz, singlim? (A.Qodiriy) 17. Xotin kishining ko'z yoshi shirin bo'ladi. (O'.Hoshimov) 18. Jo'jani kuzda sanaydilar. 19. U a'lochilardan sanaladi. 20. U ham yosh, ham go'zal edi.

16-mashq. Gap kesimi tarkibidagi kesimlik so'zlarini aniqlang. Ularning ot, sifat, ravishlarga munosabatini oydinlashtiring. Mazkur so'zlarning gapda mustaqil kesim bo'lib kelishiga misollar keltiring.

1. Podshoning shartlari juda og'ir edi. (Ertakdan) 2. Talaba darsga kechikmay kelishi shart. 3. Zarur gapi borligini aytdi. 4. Farovon yashash uchun yaxshi ishlash zarur. 5. Lozim bo'lmagan gaplarni aytmang. 6. Shu mashqni yozib bitirishim lozim. 7. Muhtojga yordam berish kerak. 8. Kerak narsalaringni olishni unütina. 9. Senga aytar gapim ko'p edi. 10. Ularnikida bugun katta tantana. 11. Yer xalqnikidir. 12. Oshkoralik shunday daraxtki, uning mevasini eng avval chinqiroq maymunlar yeydi. (O'.Hoshimov)

17-mashq. A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan matn oling. Sintaktik shakllarga munosabat jihatidan matndagi so‘zlarni o‘zgaradigan va o‘zgarmas so‘zlarga ajratib, daftaringizga yozing.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Sintaktik shakllarning shaklan morfologik va vazifa jihatidan sintaktik tabiatini yoriting.
2. Egalik, kelishik shakllarining ot turkumida va boshqa mustaqil so‘zlarda voqelanishi. Turli ma’noviy guruhlarda UGMning o‘ziga xos parchalanishlari xususida to‘xtaling.
3. Kesimlik kategoriyasining ajratilishining ilmiy asoslari va uning ichki paradigmalari xususida ma’lumot bering.
4. Bog‘lama, uning vazifasi va turlari haqida to‘xtaling.
5. Kesimlik so‘zlari va ularning ot, sifat, son va ravishga munosabatini yoriting.
6. Mayl va zamon kategoriyasining sintaktik shakl hosil qiluvchi sifatida ajratilishining ilmiy asoslari haqida gapiring.
7. Tasdiq/inkor va uning bo‘lishli-bo‘lishsizlikka munosabati xususida to‘xtaling.
8. Mustaqil so‘zlar orasida ko‘chish hodisasini misollar asosida sharhlang.
9. Egalik va kelishik shakllarining ot, zamon, mayl, shaxs-son shakllarining fe‘l tomonidan xususiylashtirilishi sabablarini yoriting.
10. Egalik shakllarining tobelantiruvchi, kelishik shakllarining tobelovchi, kesimlik shakllarining gap markazini shakllantiruvchi xususiyatini misollar asosida yoriting.
11. O‘zbek tilida so‘zning sintaktik shakllari xususidagi fikrlaringizni umumlashtiring.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Turlanish deb nimaga aytiladi?

- A. Otlarning kelishiklar bilan qo‘llanilishi
- B. Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanilishi
- C. -man, -san, -dir bilan qo‘llanilishi
- D. Ismlarning egalik qo‘shimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi

2. Muhammad Yusuf qo'shiqlari bilan emas, yurt muhabbatini hech kimga o'xshamagan misralarda ta'riflagan she'rlari bilan tanildi. Ushbu gapda tushum kelishigidagi so'z qaysi so'zga bog'langan?

- A. o'xshamagan B. ta'riflagan C. tanildi D. hech kimga

3. Tuyalar suvsizlikka chidamliligi bilan boshqa cho'l hayvonlaridan ajralib turadi. Ushbu gapda qo'llanilgan so'z yasovchi qo'shimchalar va ism guruhiga kiruvchi so'zlar miqdorini aniqlang.

- A. 3 ta s/y, 5 ta ism B. 4 ta s/y, 4 ta ism
C. 5 ta s/y, 5 ta ism D. 6 ta s/y, 5 ta ism

4. Qaysi gapda tushum kelishidagi ot belgisiz qo'llangan?

- A. Salim bosh chayqab, qotib-qotib kuldi
B. Hech qachon o'zing qilishing mumkin bo'lgan ishni birovga yuklab, uni tashvishga qo'yma
C. Har fasl o'z ishin bilsin
D. Cho'l qovunlari shirin bo'ladi

5. Qaysi gapda kelishik shakllarini qo'llash bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A. Amir bizni holimizdan shunchalar bexabar ekanki, ko'rib hayrat barmog'ini tishladim.
B. Yurtning dahlsizligini ta'minlaydigan bu qonunlar mamlakat hukmdorining o'ng qo'lidir.
C. Siyosiy ishlarni to'qson foizini kengashga qo'yib, bir foizini qilichga qoldirishga o'rgangan.
D. Barcha javoblarda

6. O'rin-payt kelishigi shaklidagi shaxs va narsa otlari gapda qanday vazifada keladi?

- A. to'ldiruvchi, hol B. o'rin holi, payt holi, to'ldiruvchi
C. to'ldiruvchi D. hol

7. Quyidagi misralarda tushum kelishigi qay tarzda qo'llangan?

Bolalar ruhiga hayot degan dars, Manmanlik urug'in joylasa.

Oshiqlar ko'chada ma'shuqasin emas, Kimningdir qadamin poylasa.

- A. 2 o'rinda belgili, 1 o'rinda belgisiz
B. 1 o'rinda belgili, 2 o'rinda belgisiz
C. 1 o'rinda belgili qo'llangan.
D. 2 o'rinda belgili qo'llangan

8. Ushbu misralarda qaratqich va tushum kelishigi qay tarzda qoʻllangan. Asraymiz oʻsimlik xillarini tayin. Asraymiz hayvonlar kamyob zotini. Hatto atroflarini oʻrab atayin, Qoʻriqxonada deymiz soʻngra otini.

- A. 2 oʻrinda belgili qaratqich, 4 oʻrinda belgili tushum kelishigi
- B. 2 oʻrinda qaratqich belgisiz, 4 oʻrinda tushum belgili
- C. 1 oʻrinda qaratqich, bir oʻrinda tushum, 2 oʻrinda qaratqich belgili qoʻllangan.
- D. 1 oʻrinda qaratqich belgili, 3 oʻrinda tushum belgili

9. Yomonlar qoshida yalinish yaxshilar ishi emas. Ushbu gapdagi ismlar qaysi grammatik shaklda qollangan?

- A. qaratqich, oʻrin-payt, bosh, bosh, egalik
- B. qaratqich, bosh, belgisiz qaratqich, egalik
- C. qaratqich, bosh, qaratqich, egalik
- D. qaratqich, oʻrin-payt, bosh, egalik

10. Berilgan matnda ism guruhiga kiruvchi nechta soʻz bor? Savobdir jilgʻaga soysan deb aytsang, yo xunuk ayolga oysan deb aytsang.

- A. 6 ta.
- B. 4 ta
- S. 5 ta
- D. 7 ta.

HOZIRGI OʻZBEK TILIDA YORDAMCHI SOʻZ TURKUMLARI

Tayanch tushunchalar: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, sof koʻmakchi, vazifadosh koʻmakchi, teng bogʻlovchi, ergashtiruv bogʻlovchisi, ayiruv bogʻlovchisi, kuchaytiruv yuklamasi, ayiruv yuklamasi.

1-mashq. Mashqlar ostida berilgan topshiriqlar asosida yordamchi soʻzlarning UGMsini oching.

1. Qush parvoz uchun, inson baxt uchun yaralgan. 2. Ertaga, albatta, mening qoshimga keling. 3. Hayot quyosh bilan goʻzal, inson xulqi bilan. (Shukrullo) 4. Gulnor ikki haftadan buyon dadasi va onasi bilan birga har kun bogʻda ishlaydi. (Oybek) 5. Qalbni bir ogʻir gʻam oʻrtardi misoli otash. (H.Olimjon) 6. Hujra kichkina, lekin iliqqina edi. (Oybek) Hunar oʻrgan, chunki hunarda koʻp sir. (Nizomiy). 7. Kampir baʼzan mudrar, baʼzan oʻgʻli bilan nimalarnidir gaplashardi. (S.Z.) 8. Javob berib koʻr-chi, nomard tabiat, Bunchalik goʻzalni nechun yaratding?!

O'zing gunohkorsan, osiysan behad, Nechun yaratding-u, o'tlarga otding? (H.Olimjon) 9. Yaxshigayam, yomongayam birdek yaxshi ko'rishga urinadigan odam eng xavfli odamdirl! (O'.Hoshimov)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Gaplar tarkibidagi mustaqil lug'aviy ma'no ifodalamaydigan so'zlarni aniqlang.

2. So'z zaxirangiz va qo'shimcha manbalardan foydalanib qayd qilingan so'zlar sirasini boyiting.

3. So'z va gaplarni bog'lashga xizmat qiluvchi, so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no yuklovchi va so'zlar orasidagi grammatik tobe munosabatni ifodalovchi yordamchi so'zlarni ajratib, ularning xususiyatlarini alohida-alohida bayon qiling.

4. Berilgan yordamchi so'zlarning ma'nodoshlari, shakldoshlari, vazifadoshlari, qiymatdoshlari va zidlari bilan munosabatlari (yaqinlik, o'xshashlik va farqlarni)ni aniqlang.

5. Berilgan va o'zingiz aniqlagan yordamchi so'zlarni turli o'rinlarda qo'llab ijodiy matn tuzing.

2-mashq. Gaplar tarkibidagi sof, yarim, qo'shimchasimon ko'makchilarni ajrating. Ko'makchilarning qaysi kelishikdagi so'zni boshqarib kelayotganiga diqqat qiling.

1. Toshpo'latov uch kundan beri shu yerda. Kecha kuni bo'yi tepalik yonida ishchilar bilan birga bo'ldi. (R.F.) 2. Jasorat iste'dod singari maqsad sari boradigan yo'lni osonlashtiradi. 3. Xalq kuchli yel bilan chayqalgan dengizdek birdan qo'zg'aldi. (Oybek) 4. Unsinni ko'rish, go'zal xayol va dardli yodi bilan uning yuragini borgan sari chuqurroq yaralagan Gulnor to'g'risida ikki og'iz so'z eshitish orzusi kuchli edi. (Oybek) 5. Bu haqda boshqa fikr bo'lmagani uchun maorifdan boshqa muallim so'rashga qaror qilindi. (P.T.) 6. Uygacha suhbatlashib bordik. 7. Guldayin nozik, billur singari shaffof, subhidamdek pok qalb sohibi edi u qiz. (S.Ahmad) 8. Yigit toqqa qarab yo'l oldi. 9. Soy labiga yetgach, hassasini supa ustiga qo'ydi. 10. Buyuk inson umrini xalqim deb, vatanim deb o'tkazishi kerak degan xulosani o'rtaga tashladilar.

3-mashq. Gaplar tarkibida berilgan ko'makchilarni aniqlang va ularni kelishik shakllari yoki boshqa ma'nodosh ko'makchilar bilan almashtirib ko'chiring. Ko'makchilarning so'zlarni tobe munosabatda bog'lashi va shu asosda atash semasiga ham qo'shimcha ma'no yuklayotganiga e'tiboringizni qarating. Gaplarni davom ettiring.

1. Erta bilan, oftob chiqmasdan burun, boyning hovlisida ikki arava tayyor bo'ldi. (S.Ahmad) 2. U akasi haqida to'lib-toshib gapirardi. 3. Xatni pochta orqali yuborganini ma'lum qildi. 4. Sen uchun atalgan qo'shiqlarim ko'p. 5. Hammasidan ham Gulchehra farzandli bo'lgani uchun quvonardim. 6. U hech narsaga qaramay, onasi tomon oshiqdi. 7. Minsang, bundan o'zga yilqing yo'qmidi? ("Alpomish"). 8. Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir. ("Hadis"dan)

4-mashq. Gaplarni ko'chiring. Bog'lovchilarning ma'no va vazifasini aniqlang. Yakka yoki takror qo'llanishiga e'tibor qiling. Bog'lovchi vazifasida qo'llanuvchi ko'makchi va yuklamalarni bog'lovchi bilan almashtirib ko'chiring. Tinish belgilarini qo'llanishiga diqqat qiling.

1. Donolik bilan nodonlik shu qadar yaqinki, odam donolikni qancha ko'p da'vo qilsa, shuncha nodon bo'ladi! (O'.Hoshimov) 2. Haqiqatni mayib qilish mumkin, ammo o'ldirib bo'lmaydi! 3. Ilmning ofati – esdan chiqarmoqlik va ilmga rag'bati bo'lmagan kishilarga o'rgatib, uni zoye ketkazmoqdir. 4. Oллоh Taoloning rozi bo'lishi otaning rozi bo'lishiga va uning g'azabi ham otaning g'azabiga bog'liqdir. 5. Garchi Xitoyda bo'lsa ham, ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir. 6. Hech bir ota o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi. 7. Savobli ish qilganingizda xursand bo'lsangiz, gunoh ish qilganingizda esa xafa bo'lsangiz, demak, siz haqiqiy mo'mindirsiz. 8. Iymon bilan amal bir-biriga juda yaqindir. Ular bir-birisiz durust emas. ("Hadis"dan)

5-mashq. Gaplar tarkibida qo'llangan teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarning gapni shakllantirishdagi rolini izohlang. Ularni o'zaro qiyoslash asosida bog'lovchi haqidagi fikrlaringizni xulosalang.

1. Hali haydovchilardan, hali traktorчилardan bir-ikkitasi ba'zan tongda, ba'zan yarim tunda yo u, yoki bu ehtiyot qismlarini so'rab kelardi. Shuning uchun omborda navbatchi bo'lishi zarur. (Sh.Rashidov) 2. Ona tirik eshikka g'urbat yaqin yo'lolmas, mening esa bag'rim qon, vayronaman, onajon. (Qo'shiqdan) 3. Dunyoda eng bebaho, ammo hamisha tekinga tarqatiladigan xazina bor. Bu – Ona mehri... (O'.Hoshimov) 4. Do'st bilan dushmanning ko'rinishi bir xil. 5. Sovuq, ammo rutubatsiz havoda u o'zini ancha yengil his etdi (Sh.) 6. Garchi daryo bo'yida bo'lsang ham, suvni isrof qilma. ("Hadis"dan) 7. O'trorda, ya'ni Amir Temur vafot etgan shaharda sohibqironning muzeyi bor. 8.

Odamlar bilan murosa-yu madorada bo'lish ham sadaqa hisoblanur. Garchi o'z'laringiz amal qilmasangiz-da, odamlarga amri ma'ruf qilaveringlar va garchi o'z'laringiz saqlanmasangiz-da, yomon ishlardan boshqalarni qaytaraveringlar. ("Hadis"dan)

6-mashq. Gaplarni ko'chiring. Yuklamalarning tuzilishi va ma'no xususiyatiga ko'ra turini aniqlang. Yuklama qo'shilishi bilan gapga qo'shimcha yuklanayotgan ma'noni aniqlang. Yuklamalarning imlosi ustida ishlang.

Azizaning bu yerga kelganiga atigi bir hafta bo'ldi. U yo'lga chiqayotganda, o'zim ham bir dam olib kelaman-a degan edi. Dam olish qayoqda deysiz, vaqtida ovqat yeyishga ham qo'l tegmaydi-ku. Bu yerga ikki yuzdan ortiq bola dam oladi-ya. Biri-chi, cho'milib shamollasa, boshqasi maymunjon teraman deb oyoq-qo'lini timdalatib keladi-da. Bularning hammasi shifokorga tashvish. Ayniqsa, futbol degan narsaga bolalarning o'chligini aytmysizmi?

Bolalar-ku, mayli-ya, kuniga savat-savat narsa tashib, uzoq-yaqindan keladigan ota-onalarning xarxahasini aytmysizmi. Mana, eshik oldida velosiped ruliga savat ilgan o'rta yashar bir kishi hansirab turibdi.

Bechora, naq sakson kilometrli tog' yo'lidan velosipedda kelibdi. Yana shuncha yo'l bosib qaytib ketishi kerak-a... Terga botib ketibdi-ya!

– Nima qilardingiz, axir bola sizni ko'rib uyiga ketgisi keladi. Bu ovqatlarni ham chakki olib kelibsiz. Kelgan kishi go'yoki gunohkordek, javdirab qaradi.

– Endi, singlim, shu bittagina bolamiz... Opasi yig'lab esi ketyapti. Men-ku chidayapman.... Faqat opasiga qiyin... (S.Ahmad)

7-mashq. Yuklama-qo'shimchalar va ularning boshqa shakldosh qo'shimchalardan ajratish yuzasidan gaplar tuzing. Ularning talaffuzi, ma'nosi va imlosiga ko'ra farqini tushuntiring.

8-mashq. Gaplar tarkibidagi ajratilgan ot, sifat, son, fe'l, ravish turkumiga mansub mustaqil so'zlarni qaysi yordamchi so'z o'rnida qo'llanayotganligini aniqlang.

1. Cho'pon sahar turib toqqa qarab jo'nadi. 2. Darsga yolg'iz Munisa kelmadi. 3. Ba'zilar uni tog' orqasida ko'rganlarini aytishdi. 4. Daryo yoqasida yashovchilarning u haqda yaxshi fikrda emasligi ma'lum bo'ldi. 4. U boshidan o'tganlarni bir kulib, bir yig'lab hammaga

gapirib berdi. 5. Havoning sovuqligiga **qaramay** yo'lga tushdik. 6. Dars qilish uchun **ba'zan** u biznikiga kelar, **ba'zan** men unikiga borardim. 7. Mendan **avval** ikki kishi u haqda so'ragan ekan.

Yordamchi so'z turkumlari bo'yicha tahlil tartibi va namunasi

1. Yordamchi so'zlarning qaysi guruhiga kirishi aniqlanadi.
2. Vazifasiga ko'ra turi.
3. Qo'llanilishiga ko'ra turi.
4. Tuzilishiga ko'ra turi.

Gulnor ikki haftadan buyon dadasi va onasi bilan birga har kun bog'da ishlaydi. (Oybek) Men-ku chidayapman. Faqat opasiga qiyin... (S.Ahmad)

Buyon – ko'makchi, sof ko'makchi; chiqish kelishigidagi so'zni boshqarib keladi; so'z shaklidagi ko'makchi.

va – bog'lovchi, teng bog'lovchi; yakka qo'llanadi; so'z shaklidagi bog'lovchi.

-ku- yuklama, ta'kid yuklamasi; qo'shimcha yuklama.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yordamchi so'zlar va ularning leksik-grammatik tizimdagi o'ziga xos o'rnini yoriting.
2. Yordamchi so'zlarning ma'noviy, vazifaviy va shakliy xususiyatiga ko'ra turlarini sanang.
3. Ko'makchi va kelishiklar munosabati haqida to'xtaling.
4. Sof ko'makchi, yarim ko'makchi va qo'shimcha-ko'makchilar haqida ma'lumot bering.
5. Bog'lovchilarning shakliy va vazifaviy turlari xususida gapiring.
6. Bog'lovchilarning qo'llanilishiga ko'ra turlarini sanang.
7. Ko'makchi-bog'lovchi, bog'lovchi-yuklama, yuklama-modal so'zlar haqida ma'lumot bering.
8. Yordamchi so'zlar sirasining mustaqil so'zlar hisobidan boyib borish sabablarini izohlang.
9. Yordamchi so'zlardan qaysilarida sintaktik aloqa vositasi bo'lish, qaysilarida gapning semantik mundarijasiga ta'sir etish, qaysilarida sanalgan har ikki belgi uyg'unlashgan holda bo'ladi?
10. Yordamchi so'zlar haqidagi fikrlaringizni umumlashtiring.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. 1. Devor usti yomg'irdan iviy boshladi. 2. Kitob ustida uzoq ishladi.
3. Nosir o'z ustida ko'p ishlardi. **Ushbu gaplardagi usti so'zi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?**

- A) 1- va 2- gaplarda mustaqil so'z, 3- gapda vazifadosh ko'makchi
- B) 2- va 3- gaplarda vazifadosh ko'makchi, 1- gapda mustaqil so'z
- C) 2- va 3- gaplarda mustaqil so'z, 1- gapda vazifadosh ko'makchi
- D) 1- va 3- gaplarda vazifadosh ko'makchi, 2- gapda mustaqil so'z

2. Qaysi gapda ko'makchi mavjud emas?

- A) Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilar ishi emas.
- B) Otni soy bo'yiga bog'ladi-da, o'zi yuqoriga chiqib ketdi.
- C) Badia bilan Ma'suma beka arava tagiga kirib yashirindi.
- D) Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la bezamoq chog'idir umr daftarin.

3. Yuklama qatnashgan gapni toping.

- A) Vatanimiz poytaxtida, ya'ni Toshkentda diqqatga sazovor joylar ko'p.
- B) Abdumalik ota nevaralarim yeyishar deb, bahorda ko'chat ekadi.
- C) Bu xabar unda hech qanday norozilik tug'dirmadi.
- D) Ahmad bu gapni sira kutmagandi, tok urgandek eti jimirlashib ketdi.

4. Qoq so'zi qaysi gapda yordamchi so'z bo'lib kelgan?

- A) Agar muruvvat qilsanglar, jilli bo'lmasa, bu yilcha mevalarni qoq bo'lasizlar.
- B) O'rtadagi devorni buzib, qoq kesagini toklarning tagiga solishdi.
- C) Barcha gaplarda qoq so'zi mustaqil so'z bo'lib kelgan.
- D) Butun jonzotga hayot beruvchi quyosh erta bilan ko'tariladi-yu, qoq tushga kelib tik turib oladi.

5. 1. Kampir ba'zan mudrar, ba'zan o'g'li bilan nimalarnidir gaplashardi.
2. Ba'zan yaxshilik maqsadida aytilgan yolg'on so'z ham ziyon emas.
Ushbu gaplardagi ba'zan so'zini izohlang.

- A) har ikkalasida ham ravish
- B) har ikkalasida ham ayiruv bog'lovchisi
- C) 1-gapda ayiruv bog'lovchisi, 2-gapda ravish
- D) 1-gapda ravish, 2-gapda ayiruv bog'lovchisi

6. Qaysi gapda ham yuklamasi bog'lovchi vazifasida qo'llangan?

- A) Sekin unga yaqin bordim, bu manzara bizning ko'ngilga yaqin-da, qarindosh.
- B) O'zi balo tog'ining boshida o'tirarmish, kun-u tun, yoz ham qish.
- C) Barcha gaplarda yuklama sifatida qo'llangan.
- D) Men ham eshitgan va ko'rganimni aytaman-da, jo'ra.

7. Qaysi qatordagi gapda bir so'zi faqat (yuklama) ma'nosini bildirgan?

- A) Vazifani bir men bajarmadim, xolos.
- B) Bugun bir charchadim.
- C) Bir qor yog'adi, bir yomg'ir.
- D) Bir yomg'ir yog'di, aslo qo'yaver.

8. Axir Marg'ilonda bizning ham shunday kelinimiz bor ekan-u, bilmay yurgan ekanmiz-da! Gapdagi yuklamalar sonini toping.

- A. 3 ta B. 4 ta C. 2 ta D. 5 ta

9. Ko'makchi vazifasida keladigan ravishdoshlar qaysi qatorda berilgan?

- A. oldin, avval B. so'ng, oxir
- C. yon, uch D. bo'ylab, deya

10. Qaysi qatordagi gapda teng bog'lovchini ergashtiruvchi bog'lovchi bilan almashtirish mumkin.

- A. Biz yaxshi tayyorlandik va birinchi g'alaba qo'lga kirdi.
- B. Yigitlar, mehmonlarni o'lka bo'ylab kezdiring va bog'imizni ko'rsating.
- C. Tig' yarasi tuzaladi, lekin dil yarasi tuzalmaydi.
- D. Kasalning kelishi oson, lekin ketishi ancha qiyin.

SO'Z-GAPLAR

Tayanch tushunchalar: so'z-gap, modal so'z-gap, tasdiq va inkor so'z-gaplar, undov so'z-gaplar, taklif so'z-gaplar.

1-mashq. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.

BOYSUN DOVONI

Eh-he... hali ilonizi, hali burama bo'lib ketgan tog' yo'llari... Biz Termiz-Boysun chorrahasida to'xtadik. Qayum aka bilan mashinadan tushdik. Men avval o'ngga quyilib borgan Termiz yo'liga, so'ng ingichkalashib, ko'tarilib borayotgan Boysun dovoniga hangu-mang boqardim. Voy-bo'!...

– Boysun yo'lidan borganmisiz?

– Yo'q.

– Qani, marhamat. Mashinaga o'tiring. Avval bu suratlarni ko'ring. Mana... Darvoqe, Turkiyaga bo'lgansiz-a?

– Ha.

– Qani, aying-chi. Bu joylarning dunyo sayohatchilarini hayratlantiradigan Kapadakiyadan nimasi kam?

– Yo'q. Bu manzarani Kapadakiya bilan qiyoslab bo'lmaydi.

– Ha-ha. Xuddi shunday. Bu yerda hammasi tabiiy. Darhaqiqat, tabiat san'ati. Yo'q, yo'q, mo'jizasi.

Mashina bir-bir yarim chaqirim yurgach: «Hoy, sekinroq haydang», -deb iltimos qildim. Oh-ho! Yo'ning ikki tomonidagi tasvirlarni ilg'ab ololmas edim: Voy! O'ngda viqor bilan boshini sal yuqoriga ko'tarib turgan Alpomishmi? Og'zini ochib «Ho-o-y!» – deb kimni chaqiryapti? Iya, mana, chap tomonda qoyadagi archalar ichida Barchinoy emasmi? Boshini orqaga burib «Labbay» demoqchi, chamasi. Ehtimol... Mana-mana, Boychibor kishnayapti... Ovozni ham shamol keltiryapti... Kisht! Burgut hozir uchib ketadi....

O-o-o... Jonsiz tabiat! Sening mo'jizalaring oldida musavvir qalami, haykaltarosh yo'ng'ichi ojiz. Vah-vah! Buni faqat hayajon bilan ifodalash mumkin. Tasanno!

– Bularni ona tilimiz so'zlari bilan tasvirlang.

– Albatta, albatta. Shak-shubhasiz, – ta'kidlar edim men. – Lekin qanday?!

– Obbo, siz-ey! Toping-da. Shoirsiz-ku!

– Yaxshi. Harakat qilaman. (I.G'aniev)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Gaplarni kuzatib, morfologiya va sintaksis oraliq'ida turuvchi, yakka holda gap bo'lib kelishga xoslangan so'zlarni aniqlang.

2. So'z zaxirangiz va qo'shimcha manbalardan foydalanib, qayd qilingan so'zlar sirasini boyiting.

3. Berilgan va o'zingiz davom ettirgan siradagi so'z-gaplarning xususiyatlarini alohida-alohida bayon qiling. Ma'nosiga ko'ra guruhlariga ajrating.

4. Berilgan so'z-gaplarning ma'nodoshlari, vazifadoshlari va zidlari bilan munosabatlarini aniqlang.

5. Berilgan va o'zingiz aniqlagan so'z-gaplarni qo'llab ijodiy matn yoki yordamchi mashq tuzing.

2-mashq. Berilgan modal so'zlarni jadvaldagi o'rinlarda joylashtiring, har bir guruhdagi so'zlar sirasini davom ettiring.

Menimcha, demak, albatta, xayriyat, mutlaqo, koshki, xullas, qaniydi, har holda, aytishlaricha, tabiiy, yaxshisi, rosti, mazmuni, chamasi, shekilli, to'g'ri, yaxshi, haqiqatdan, ...

ishonch	gumon- umid	xulosalash	nisbatlash	havola

3-mashq. Ko'chiring. Mustaqil so'zlarning modal so'zlarga siljishiga e'tibor qiling. So'zning qaysi o'ringa mustaqil, qaysi o'ringa modal so'z sifatida qo'llanayotganligini aniqlang. Modal so'zlarning mustaqil so'zdan morfologik, semantik va sintaktik farqini izohlang. Tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qiling. Modal so'zlar haqidagi tushunchalarinigizni umumlashtiring.

1. Har ishning chamasi bor, har daryoning kemasi. 2. Chamasi, u mendan ikki yosh katta. 3. Haqiqatdan yuz o'girmang. 4. Haqiqatdan, u arazlab ketdi. 5. Mato tabiiy ipakdan to'qilgan edi. 6. Tabiiy, ertaga u o'z onasini ham tanimaydi. 7. Jang tugagandan keyin qahramon ko'payishi tabiiy. 8. Demak, mening gapim yolg'on! 9. Ko'p demak nodonning ishi, ko'p yemak hayvonning ishi. 10. U menga so'zsiz tikilib turardi. 11. So'zsiz, bu ma'noda aytganim yo'q! 12. Bugun yomg'irning yog'ishi shubhasiz. 13. Men, shubhasiz, usiz yasholmasdim. 14. Yaxshi, qizga javob beramiz. 15. Yaxshi qizga javob beramiz.

4-mashq. Gaplarda qo'llangan undov so'zlarni semantik guruhlariga ajrating. Qavs ichida berilgan ma'nodoshi bilan almashtirib ko'chiring. Undovli va otlil gaplarni qiyoslab undov va ot turkumiga mansub so'zlarning ma'no xususiyatlari haqida xulosa chiqaring.

1. Kambag'allarning oh-u voyiga (shikoyatiga), g'ariblarning voy-dodiga (nolasiga) hech kim quloq solmaydi. (Oybek) 2. Siz bay-baylarni (olqishlarni) ko'p eshitib ko'nikkansiz. 3. Bolaning kisht-kishtiga (haydashiga) qaramay qushlar nari ketmasdi.

5-mashq. O'qing va ko'chiring. Undovlarni topib tagiga chizing, ustiga qaysi semantik guruhga kirishini yozing. Sintaktik shakllarga munosabatini va gapdagi vazifasini aniqlang. Qanday hollarda so'z-gap, qanday hollarda gap bo'lagi bo'lib kelishini izohlang. Tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qiling va ishlatilish sabablarini sharhlang.

1. Men yetim o'sganman, oh, u yetimlik... Voy, bechora jonim, desam arziydi. (G'.G'.) 2. Ey ulug' naslimning yuragi, joni! Kiprigingga ilinmas yig'idan zarra. (G'.G'.) 3. Bay-bay, zap choy bo'libdi-da... (A.Qodiriy) 4. Uh, endi qaysi yuzim bilan o'sha uyga boraman. (S.Z.) 5. Obbo, qizim-e! Do'ppimni o'zim tikdim degin! 6. Hormang endi, otam – dedi ayol, qotma uzun qo'llari bilan Elmurodning yelkalaridan silab. (P.T.) 7. O Alisher! Xush kelibsiz, ichkariga marhamat. (U. va I.S.) 8. Oho! Oho! Qalay ekansiz? Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa birovga ur. (H.H.) 9. E! Bu xumpar menga shama qilyaptimi? 10. O... uzuging juda chiroyli. Qani, menga ber-chi! 11. Ehhe, ish katta-ku! (Oybek) 12. Uning fikrini ma'qullovchi ovozlari eshitildi. Balli, Otangizga raxmat! (P.T.) 13. Faqat sendan bitta iltimos, Kelajakda unutmang, bas. 14. Siz-chi, ey sadoqat satridan nolib, nadomat komiga botganlar, ayting! (A.Oripov)

6-mashq. Tarkibida undovlar qo'llangan qo'shma va sodda yasama fe'llarni aniqlang. Imlosi ustida ishlang. Undov so'zlar haqidagi fikrlaringizni xulosalang.

1. Mening kulfatlarimni eshitib onam uf tortdi. 2. Sabrlilik musibatning birinchi daqiqalaridayoq bilinadi. Sabrsiz odam salgina ozor cheksa dod soladi. 3. Oh urarman, oh urarman, ohlarim urgay seni. (Qo'shiqdan) 4. Cho'ponlar qur-haytlab qo'yni haydagan. («Alpomish») 5. Mahkam Ochilga iye deganday olayib qaradi...6. "Tak", – dedi-yu jo'nadi. Qorajon o'z yo'lidan qolmadi. ("Alpomish") 7. Kampir negadir voy-voylab qoldi.

7-mashq. Matnni o'qing. Tasdiq va inkor ma'nosini ifodalaydigan so'z-gaplarni toping. Sintaktik shakllarga munosabatini aniqlang.

JOLINUS BILAN SUHBAT

Qadimgi Yunon hakimi Jolinus (Galen) juda kengayib kishi bo'lib, undan savol so'ralganda ham oddiygina "ha" yoki "yo'q" deb javob berar ekan. Bir zukko odam hakimdan uchta savolga ijozat olib, to'rt savolga javob olishga ahd qilibdi. Bu kishi bilan hakim orasida shunday suhbat bo'libdi:

- Bir necha savollarim bor. Shularga mufassal javob bera olasizmi?
- Yo'q, - bosh irg'ash bilan javob beribdi hakim.
- Uchta savolimga javob bera olasizmi?
- Mayli, - debdi hakim.
- Ko'p gapirish ko'p bilishdanmi?
- Yo'q.
- Kam gapirish ko'p bilishdanmi?
- Ha.
- Ko'p yeyish sog'lomlik belgisimi?
- Mutlaqo.
- Nodon odamning savoliga qanday javob berish kerak?

Jolinus javob bermabdi. Zakiy suhbatdosh hakim huzuridan to'rt savolga ham javob oldim deb, xursand bo'lib chiqibdi.

8-mashq. Gaplardagi tinglovchini biror ish-harakatni bajarishga undovchi so'zlarning ma'no va vazifasini tushuntiring. Shu so'zlarni ishtirok ettirib, yangi gaplar tuzing.

1. - Qani, marhamat, ichkariga kiring. 2. Ma, bu kitob seniki. 3. Qani, so'zla ko'zgujon, haqiqatni et bayon. 4. Sunnatjon, mang, buni ataylab siz uchun olib keldim. 5. Qani, ayt, maqsading nimadir sening... (A.Oripov) 6. Marhamat, savollarga javob bering.

9-mashq. Berilgan ilmiy-ma'rifiy matnни o'qing. Ajratib ko'rsatilgan tilshunoslik atamalarining atamaviy va umumiste'mol ma'nolarini izohlang. So'z-gaplar to'plamining har bir ichki ma'noviy guruhining UGMsini tiklang. Boshqa so'z turkumlari bilan munosabatini aniqlang.

O'ZBEK TILIDA SO'Z-GAPLAR HAQIDA

So'z-gaplar o'zbek tilshunosligida kam o'rganilgan hodisalardan biridir. Buning sababi shundaki, barcha fanlardan bo'lgani kabi, tilshunoslikda ham dastlab qamrovi juda keng, xususiyatlari yaqqol ko'zga

tashlanadigan hodisalar o'rganilib, qo'llanish doirasi ancha tor, xususiyatlari ziddiyatli bo'lgan hodisalar tadqiqi esa "keyin"ga ko'chiriladi. Tilimizda so'z-gaplar miqdori ot, fe'l, sifat, son va hatto taqlidlardan bir necha yuz, olmosh va ravishlardan bir necha o'n baravar kamdir. Tabiiyki, ularning o'rganilishi ham orqaga surildi. Shuning uchun siz ham ilk bosqichlarda fe'l, ot, sifat, son, ravish, olmosh, taqlid kabi mustaqil so'z turkumlari, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama kabi yordamchi so'z turkumlari haqida ancha chuqur ma'lumotlar oldingiz. Endi esa so'z-gaplar haqida bilim olmoqdasiz.

Fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid va olmoshlar ham yakka o'zi gap bo'lib kela oladigandek ko'rinadi. Chunonchi, *Bahor. Hamma yoq gulga to'lgan*. Bu misoldagi *Bahor* so'z-gapga o'xshaydi. Aslida, bunday emas. Bu misoldagi *Bahor* gap emas, balki gapning kesimi-markazidir, xolos.

So'z-gaplar shunday so'zlarki, ular kesimlik shakli qo'shimchalarini mutlaqo qabul qila olmaydi. Chunonchi, "Ertaga maktabimiz sportchilari musobaqada g'olib chiqishlariga ishonasizmi?" - Albatta. Men bunga aminman. Javob gapi ikki gapdan iborat. Ulardan birining kesimi aminman bilan ifodalangan va rang-barang kesimlik shakllariga ega bo'la oladi (aminman, aminsan; amin edim, amin eding; amin bo'lsangiz va h.k.). Albatta so'zi yakka o'zi gap bo'lib kelyapti va kesimlik shakllariga ega bo'la olmaydi. Shuning uchun so'z-gaplarda gapning ega va kesimi kabi qismlarga ajratilish xos emas. So'z-gaplar shunday so'zlarki, gap vazifasida qo'llanilish ularning lug'aviy, ichki ma'nosidan o'rin olgan va ular boshqa so'zlar kabi kesimlik shakli qo'shimchalariga muhtoj emas. Lekin qo'llanilishda so'z-gaplar ohang, matn bilan bog'liq bo'ladi. So'z-gaplarning kattagina qismi mustaqil so'zlardan (albatta, shubhasiz, ehtimol, darhaqiqat, chamasi, aftidan kabi modallar, shukur, rahmat, tasanno, ofarin kabi undovlar; mayli, mutlaqo, yo'q, sira kabi tasdiq yoki inkor so'zlari), so'z birikmalaridan (har qalay, har holda modal so'zlari) va hatto gaplardan (nasib bo'lsa, xudo xohlasa kabi modallashgan gaplar) kelib chiqqan. Ko'p hollarda so'z-gaplarning o'zlari kelib chiqqan mustaqil so'zlar, so'z birikmalari va gaplar bilan aloqalari hozir ham sezilib turadi

So'z-gaplar ixcham gap sifatida ma'no va vazifa jihatdan xoslanganligi tufayli ular sodda gaplar tarkibida kelganda ham boshqa bo'laklar bilan bog'lanmaydi, ulardan ajralib turadi. (R.Bobokalonov)

Soʻz-gaplar toʻplami boʻyicha tahlil tartibi va namunasi

1. Soʻz-gaplarining qaysi guruhiga kirishi aniqlanadi.

2. Mazmuniy guruhi.

3. Tuzilishiga koʻra turi.

4. Sintaktik vazifasi.

– Albatta, sizni majburlab olib qola olmaymiz.

– Voy! Bu nima deganingiz!

Albatta – modal soʻz-gap; ifodalanayotgan fikrga qatʼiy ishonchni bildirmoqda; kirish soʻz. Voy – undov soʻz-gap; his-hayajon undovi. Yakka va takror qoʻllanishi mumkin; soʻz-gap.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Soʻz-gaplar toʻplamining ajratish tamoyillari xususida toʻxtaling.

2. Soʻz-gaplarining maʼnoviy guruhlarini sanang.

3. Soʻz-gaplarining mustaqil va yordamchi soʻzlar bilan munosabatini yoriting.

4. Undovlarni undalmalar tarkibida qoʻllanishiga misollar keltiring.

5. Soʻz-gaplar toʻplamining ichki paradigmalari modal, tasdiq-inkor, taklif, undov soʻzlardan qaysilari faqat soʻz-gap, qaysilari kirish soʻz, gap boʻlagi va soʻz-gap boʻlib kela olish xususiyatlariga ega?

6. Modal soʻzlarning UGMsi xususida toʻxtaling.

7. Undov soʻzlarning UGMsi haqida fikrlaringizni bayon qiling.

8. Tasdiq/inkor soʻzlarning UGMsi haqida gapiring.

9. Taklif soʻzlarning UGMsi xususida toʻxtaling.

10. Soʻz-gaplar xususidagi qarashlaringizni umumlashingiz.

II BO'LIM. SINTAKSIS

ASOSIY SINTAKTIK BIRLIKLAR. SINTAKTIK ALOQA VA MUNOSABATLAR

Tayanch tushunchalar: sintaksis, so'z birikmasi, gap, sintaktik aloqa, sintaktik aloqa vositalari, sintaktik munosabat, qolip, valentlik.

Keys topshirig'i:

Hozirgi o'zbek tili "Sintaksis" darsida o'qituvchi doskaga quyidagi qoliplari yozdi va talabalardan to'g'ri o'qib berishni talab qildi.

[Kishi olin] - narsa oti.
[Ibratlash] - o'qituvchi.
[Ism] - kishiligi.
[W _{qir}] - W _{qir} .
[W _{ov}] - W _{ov} .
[W] - W.

[WP _m]	WP _m
[WP _m]	WP _m
[WP _m - ; ,]	WP _m

Talabalarning javoblari turlicha bo'ldi. Aksariyat o'quvchilar "kishilik olmoshi narsa oti", "ism - ism", "W- W", "Vord - vord", "moslashuvli birikma", "W_m, W_m" tarzidagi javoblarni aytdilar.

Shundan so'ng o'qituvchi doskaga [H₂O] qolipini yozdi va talabalardan to'g'ri o'qib berishlarini so'radi. Aksariyat talabalar "Hash ikki o", "suv", "kislrorod" degan javoblarni berdilar.

Yuqorida keltirib o'tilgan vaziyatni tahlil eting. Ushbu qoliplar nima uchun talabalarga tahlil uchun berildi? Siz uni qanday o'qib bergan bo'lardingiz?

Sizning fikringiz qanday?

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Yechim	Natija

Induktiv topshiriq:

1-topshiriq. Ushbu sintaktik aloqali birikmalar ichidan teng va tobe aloqali birikmalarni ikki guruhga ajratihg.

Men va sen, daryoda suzmoq, hovuz tomon bormoq, hamd-u sano, so'lim bog', birinci sinf, koz o'ngida gavdalanmoq, talaba-yu o'qituvchi, sotib olmoq, tez yurmoq, nazm va navo, olma va anor, yahshi-yu yo mon, olma, anor, umr daftari, yolg'onchining jazosi, o'shanga o'xshab, ilg'orlarni tabriklash, uyga ketish, shaharda yashash, qishloqdan kelish, yashash uchun kurash, sayohat to'g'risida gapirish.

2-topshiriq. Quyidagi hikmatli so'zlarning tarkibidan soz birikmalarini aniqlang.

Yaxshi so'zla, ammo mahmadona bo'lma, ezmalik kaltabinlikdir. (Kaykovus). Inson odamlar orasidagina odam bo'la oladi. (I.Bexer) Odamlar uchun haqiqiy hazina mehnat qila bilishdir. (Ezop). Kimiki ko'zi ojiz odamni qirq qadam etaklagan bo'lsa, uning jannatga kirishi muqarrardir. (Hadis). Go'zallik ham ulug' ne'mat bo'lib, u har kimsaga ham berilavermaydi. Kishidan hayo ketsa, tezdagina balo etib keladi! (M.Zehniy). Kimki avlodlar yaratgan ma'naviy boyliklarni bilmasa, demak, u nafasatdan bebahra yashagan. (Gegel). Kitoblar aql farzandlaridir. (J.Svift). Ichkilikbozlik – barcha illatlarning asosi. (Abul Faroj). Qizg'anchilik qalbni quritadi. (A.Dyuma). Kimki o'zi qallob bo'lmasa, qalloblar bilan osh-qatiq bo'lishni istamaydi. (J.J.Ruso). Mehnat—eng oliy ibodatdir. (Hadis). Insonni chinakam baxtiyor qila oladigan ikki xil xohish bor—odamlarga yaxshilik qilish va sof vijdonli bo'lish. (Shekspir).

1-mashq. Gaplar qanday sintaktik bog'lanishlardan tuzilganligini aniqlang. Sintaktik aloqa vositalarini ko'rsating.

1. Ba'zi yozilmagan qonunlar yozilganlaridan kuchliroqdir. (Seneka)
2. Inson qo'li bilan yaratilgan hech bir narsa mukammal emas. (R.Bekon)
3. Yashash uchun g'alaba qozonishni o'rgan. (Gyote)
4. Hammaga birdek yoqish istagi — eng kulgili istakdir. (Gyote)
5. Odam tilga kirishi uchun ikki yil kifoya, lekin tilini tiyib turishni o'rganishi uchun oltmish yil kerak bo'ladi. (R.Hamzatov)
6. Tangri hamma narsadan ko'lnaroqdir, chunki u yaratilmagan. (Fales)
7. Insonlar yo hasad, yo ko'rolmaslik, yoki nafrat tufayli bir-birining dilini og'ritadilar. (Epikur)
8. O'limimdan so'ng meni qaro yerdan emas, ma'rifatli insonlarning qalbidan izlang. (Jaloliddin Rumiy)
9. Iztirob chekib yozilgan

asar rohat qilib o'qiladi. (O'.Hoshimov) 10.Yarim soat ichida tug'ilib,
o'sib, Yashab, umr ko'rib o'tguvchilar bor. (G'.G'ulom) 11. Gir atrofi
imorat, shimol tomonda amakivachchalarimiz turishardi, lekin ular yozda
bog'ga ko'chib ketardilar. (G'.G'ulom)

2-mashq. Matn asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring:

O'zbek qizlari

Bu – Momo Havodan ularga odat:

Ushlasa, gul ushlar qo'lini faqat,

O'psa, faqat shamol o'par yuzlarin.

Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin

Nozik belda qirqta kokili qavat,

Silasa, yomg'irlar silaydi faqat,

Ko'rsa, faqat osmon ko'rar ko'zlarin

Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin.

Jilmaysa, nur yog'ar gul yanoqlardan,

Sir yashirar hatto qizg'aldoqlardan.

Behuda izlamang xilvat bog'lardan,

Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin.

Ko'ngli daryoday keng, mehri ulug'vor,

Dugonasi Hayo, sinfdoshi Or.

Ayting, farishtadan nima farqi bor,

Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin?..

Bardoshi oldida tog' – oddiy tuproq,

Ular etagidan jannat bir qadam.

Beayb Parvardigor, degandek biroq,

Yoq emas kichkina kamchiligi ham.

Sevadi, kuyadi, qiladi alam,

Dorga osing, ammo aytmas birovga.

Aytmay sevishini sevganiga ham,

Tegib ketaverar boshqa kuyovga! (M.Yusuf)

Topshiriqlar:

1. Matndagi gaplar sonini aniqlang.
2. Gaplar tarkibidagi sintaktik aloqa sonini aniqlang.
3. Teng, tobe aloqaga kirishgan birliklarni guruhlab yozing.
4. Gapda ishtirok etgan sintaktik aloqa vositalarini guruhlarga ajratib yozing.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Sintaktik aloqaning eng asosiy turlarini aniqlang.

- A. bitishuv, boshqaruv B. tenglanish, tobelanish
C. boshqaruv, tobelanish D. moslashuv, muvofiqlashuv

2. Tobelanish aloqasiga xos bo'lmagan belgini aniqlang.

- A. qismlar bir xil mavqega ega emas
B. bir qism ikkinchi qismga ergashadi
C. tobe va hokim qismlarga ajraladi
D. sanash ohangi bilan aytiladi

3. Predikativ aloqa asosida qanday butunlik(birlik) hosil bo'ladi?

- A. gap B. so'z birikmasi C. frazema D. qo'shma ot

4. Predikativ aloqaga kirishgan butunlikni aniqlang.

- A. bahor keldi B. uning kelishi C. qorning yog'ishi D. katta uy

5. Valentlik nima?

- A. so'zlarning birikish imkoniyatlari
B. leksemalarning yuzaga chiqmagan birikuvchanlik-biriktiruvchanlik imkoniyatlari
C. faqat mustaqil so'z turkumlarining birikish imkoniyatlari
D. birikuvchanlik imkoniyati

6. Qaysi qatorda lisoniy sintaktik qolip haqida noto'g'ri hukm berilgan?

- A. ijtimoiylik va majburiylik
B. bevosita kuzatishda berilmaganlik
C. takrorlanuvchanlik
D. bevosita kuzatishda berilganlik

SO'Z BIRIKMASI SINTAKSISI

Tayanch tushunchalar: so'z birikmasi, erkin birikma, so'z birikmasi lisoniy sintaktik qolipini, erkin birikuv omillari, ma'noviy, shakliy va joylashuv omilari, moslashuv, boshqaruv, bitishuv, o'tli birikma, fe'lli birikma, sintagma, so'z birikmasi zanjiri.

1-mashq. Har bir gapni soʻz birikmalariga ajratib koʻchiring. Soʻz birikmasini gapdan farqini aniqlang. Leksik, morfologik va sintaktik valentlik turlarini farqlang.

1. Kimki hayotdan olmasa taʼlim, unga oʻrgatolmas hech bir muallim. (Rudakiy) 2. Opa, dardlashgani keling bir kecha. (Qoʻshiqdan) 3. Fidoying boʻlgaymiz sening, Oʻzbekiston, Hech kimga bermaymiz seni, Oʻzbekiston. (M.Yusuf) 4. Illat izlaganga illatdir dunyo, Gʻurbat izlaganga gʻurbatdir dunyo. (E.Vohidov) 5. Endi ular oddiy yogʻoch emas, balki masjidning koʻrkiga koʻrk, salobatiga salobat bagʻishlab turgan yuksak sanʼat namunalari edi. (Sh.Boʻtayev)

2-mashq. Matn asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Oʻzbekiston

Bolalarimga, nevaralarimga razm solaman. Ular boshqacha fikrlaydigan kishilar boʻlib oʻsmoqdalar. Men yangi asrda oʻzbekistonlik har bir fuqaroning xonadoni obod va farovon boʻlishini, har bir kishi oʻz ishi, umridan rozi boʻlib yashashini istayman.

Olimlarimiz, adiblarimiz eng nufuzli xalqaro mukofotlar sohibi boʻlsalar, sportchilarimiz shoda-shoda medallar olsalar, Osiyo oʻyinlari, olimpiada oʻyinlari bizning vatanimizda oʻtsa – bu mening orzum. Inshoolloh, shunday boʻladi ham. Yangi asr chin maʼnoda hamkorlik, oʻzaro raqobat va ayni vaqtda oʻzaro kelishuvlar asri boʻlajak.

Bunda nafaqat ishbilarmonlik, aqliy salohiyat kuchini koʻrsatadi, balki maʼnaviy komillik ham zarur boʻladi. Taraqqiyot inson qoʻli bilan boʻlar ekan, jamiyat sogʻlomligi taraqqiyot kafolati ekan, mehr-oqibat, muruvvat va saxovatning koʻproq qalblardan joy olishini, “Mening yaxshi yashashim boshqalarning ham yaxshi yashashiga xalaqit bermasin, aksincha, yordam bersin” degan tamoyilning tantana qilishini, dunyo xalqlari oʻzbeklarni koʻrganda: “Bulardan koʻra ahil xalq yoʻq!” degan bahoni berishini, ishimizga, yashashimizga xalaqit berayotgan hasad, hirs, koʻra olmaslik illatlarining tobora kamayib borishini xohlardim.

Inshoolloh, shunday boʻlajak... (N. Komilov)

Topshiriqlar:

1. Gaplarni soʻz birikmalariga ajrating va har bir gapda nechta soʻz birikmasi borligini aniqlang.

2. Hokim va tobe soʻzni aniqlang.
3. Tobe soʻzning gapdagi vazifasiga soʻz birikmasi turini aniqlang.
4. Hokim soʻzning ifodalanishiga koʻra koʻra soʻz birikmasi turini aniqlang.
5. Tobe va hokim soʻzning birikish usulini aniqlang.

3-mashq. Berilgan birikuvlar orasidan soʻz birikmalarini ajrating va matn ostida berilgan topshiriqlarni bajaring. Xulosalar asosida soʻz birikmasi haqidagi fikringizni umumlashtiring.

tentirab yurmoq, rahmi kelmoq, qoʻrqib ketmoq, xushomad qilmoq, xayol surmoq, kutib yurmoq, piyoda kezmoq, hafta ichida, quvgʻin boʻlmoq, uy qurmoq, gandarab ketmoq, oʻrin solmoq, zerikarli dars, dars zerikarli, xulosaga kelmoq, yuragi yorilmoq, boshini silamoq, yuzini tirnamoq, zangori ekran, holsizlangan edi, yaxshi koʻrmoq, asar oʻqishli, koʻngli koʻtarilmoq, rasm chizmoq, kundan kun kambagʻallashmoq, chapak chalmoq, uyga qarab ketmoq, sevgi haqida bahslashmoq, toʻgʻri gapirmoq, oh demoq, charm qoʻlqop ustasi, Qarshi shahri, kechikkan bahor, tekis yoʻl, barpo qilmoq, oʻqib chiqmoq, bilib aytmoq, ayta bilmogʻ, oʻqib bilmogʻ, sayqal bermogʻ, oʻt oʻchirmogʻ, yaxshi fikrlamogʻ, koʻz oldiga keltirmogʻ, bir qarorga kelmoq, yomon koʻrmogʻ, yon bosmogʻ, maftun boʻlmoq.

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Soʻz birikmasining gapdan farqini aniqlang.
2. Soʻz birikmasining soʻzdan farqini aniqlang.
3. Soʻz birikmasining turgʻun birikmadan farqi nimada?
4. Soʻz birikmasining qoʻshma soʻzdan farqini aniqlang.
5. Soʻz birikmasining turli yordamchi soʻzli qoʻshilmalardan farqi nimada?
6. Matndan aniqlangan soʻz birikmalarining minimal va maksimal li-soniy qolipini tiklang.

4-mashq. Gaplarni soʻz birikmalariga ajrating. Murakkab va sodda birikmalarni farqlang.

1. Netay, shunday keng dunyoga sigʻmasam, bolamga deb oʻyin-choqlar yigʻmasam. 2. Nechun menga gʻamli termulding, Nigohingdan qizardi yuzlar. Bu yerlarga sen nega kelding, maʼsum koʻzlar, maʼsuma

ko'zlar. 3. Bolalar chuvullashib xonani boshiga ko'tarishdi. (O'.Hoshimov) 4. Bolaning shunchalar qiynalganini eshitib yuraklarim ezilib ketdi. (O'.Hoshimov) 5. Hovli etagidagi uyasidan eti borib suyagiga yopishgan qari it chayqalib-chayqalib chiqib keldi. 6. Chol asta cho'kkaladi-da, sharti ketib parti qolgan itning boshini siladi. 7. Mana shu tirranchalarni deb boya rosa po'stagimni qoqishgandi. (M.Niyozov)

5-mashq. Gaplarni ko'chiring. So'z birikmasi bo'yicha sintaktik tahlil qiling.

1. Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan mayin shamol darpardani xomushgina silkitardi. (O'.Hoshimov) 2. Hashamatli mehmonxona mehmonlar uchun bezatildi. 3. Dunyoni qizg'anma mendan, azizim, Sen ichgan buloqdan ichmasman aslo. (A.Oripov) 4. Ahmadjon aka o'z hayotida esda qoladigan hech narsa ko'rmadi (Y.Shukurov) 5. Bu dunyo arzimas fido bo'lishga, Bandasan, urinma xudo bo'lishga. (Qo'shiqdan) 6. Dimoqqa qizigan asfalt hidi uriladi. (O'.Hoshimov). 7. Ota-ku seniki, biroq sening o'zing o'zingniki bo'lmay qolibsan. (Ch.Aytmatov) 8. Quyosh yo'lini hech qanday kuch to'sa olmaganidek, bizning haq yo'limizni ham hech qanday kuch to'sa olmaydi. 9. Ko'z o'ngimda yana o'sha qor bosgan hovli, muzlagan perrondan yugurgan onam jonlandi. (O'.Hoshimov) 10. U titrab ketayotgan barmoqlari bilan og'zini to'sdi. (O'.Hoshimov) 11. Tuzsiz she'rlarim deb shirindan shirin Bolalarim yurar oyoq uchida... (M.Yusuf) 12. Chivinlar, chumchuqlar yurgan jahonda menga joy yo'qmidi, onajon. (K.Bahriyev) 13. Omborning qamishlari osilib yotgan shiftini ko'tarib yuborguday kulgu yangradi. (O'.Hoshimov) 14. Ular orasida jiyagi sitilib ketgan do'ppi kiygan Olimjonni ko'rib qoldim. (O'.Hoshimov)

So'z birikmasi tahlili tartibi va namunasi

1. Gapdagi so'z birikmalarini aniqlash.
2. Hokim so'z bilan tobe so'zni aniqlash;
3. Hokim so'z bilan tobe so'zning birikish usulini aniqlash;
4. Hokim so'z bilan tobe so'zni bog'lovchi vositani aniqlash;
5. Hokim so'z va tobe so'zning qaysi turkum bilan ifodalanganligini aniqlash;
6. Hokim so'zning qaysi turkum bilan ifodalanishiga ko'ra so'z birikmasi turini aniqlash;

7. Tobe soʻzning qaysi vazifaga kelayotganligiga koʻra soʻz birikmasi turini aniqlash;

8. Har bir soʻz birikmasida maʼnaviy, shakliy, joylashuv omillarini aniqlang.

9. Har bir birikmaning minimal va maksimal lisoniy sintaktik qolipini aniqlash.

Namuna:

Men nechun sevaman Oʻzbekistonni,

Tuprogʻin koʻzimga aylab toʻtiyo. (A.Oripov)

1. Gapda 4 ta soʻz birikmasi mavjud: Oʻzbekistonni sevmoq, nechun sevmoq, tuprogʻin toʻtiyo aylamoq, koʻzimga toʻtiyo aylamoq.

1) Oʻzbekistonni sevmoq – hokim soʻz - sevmoq, tobe soʻz – Oʻzbekistonni; boshqaruvli aloqa; tushum kelishigi yordamida birikkan; ot-feʼl; feʼlli birikma; toʻldiruvchili birikma; [SHMJ – MSHJ]; minimal LSQ – [Ot_{tushum kelishigi} + F]. Max.LSQ – [I_{kel q+} W]

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

Oʻ.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan matn tanlang va tanlagan matningiz asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Matndan soʻz birikmalari qolipini ajrating. Soʻz birikmasining maksimal va minimal qoliplarini ajrating. Shu qoliplar asosida oʻzingiz ham misollar tuzing;

2-topshiriq. Soʻz birikmalarini qoʻllab gaplar tuzing va soʻz birikmalarining belgilarini sanang.

3-topshiriq. Iboralar ishtirok etgan gaplarni tahlil eting. Ularni qaysi jihati bilan soʻz birikmasiga, yana qaysidir tomoni bilan esa leksemalarga yaqin turishini izohlang.

4-topshiriq. Misollarda berilgan soʻz birikmasining bogʻlanish usullarini aniqlang va ularni alohida-alohida tasniflang.

5-topshiriq. Kuzatilgan soʻz birikmalarida hokim va tobe, kengayuvchi va kengaytiruvchi soʻzlarni aniqlang.

6-topshiriq. Tasniflangan boshqaruv, moslashuv va bitishuvli soʻz birikmalarida kengayuvchi va kengaytiruvchi soʻzlar, asosan, qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanishini aniqlab chiqing.

7-topshiriq. Misollarda berilgan soʻz birikmasining bogʻlanish (maʼnaviy, shakliy va joylashuv) omillarini aniqlang va ularni alohida-alohida tasniflang. Soʻz, soʻz birikmasi, qoʻshma soʻz, ibora va gap tushunchalarini oʻzaro qiyoslang.

8-topshiriq. Kuzatilganlarni hokim a'zoning ifodalanishiga ko'ra ismli va fe'lii birikmalarga ajrating. Misollardagi so'z birikmalarining tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlab, sodda va murakkab so'z birikmalariga ajrating. Kuzatilganlardan hokim a'zoning ifodalanishiga ko'ra SBning turlarini aniqlang.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. So'z birikmasining mohiyatini qaysi qatordagi javob nisbatan qisqa va yorqinroq aks ettiradi?

- A. ikki so'zdan iborat qurilma
- B. mazmun va sintaktik jihatdan bog'langan sintaktik qurilma
- C. mazmunan bog'langan qurilma
- D. tobelanish aloqasidagi ikkita tarkibiy qismdan tashkil topgan sintaktik qurilma

2. Qaysi qatorda bitishuvli so'z birikmasi keltirilgan?

- A. birdan yangramoq
- B. kitob muqovasi
- C. kino ko'rmoq
- D. mehnat qilmoq

3. Qaysi qatordagi so'z birikmasida shakliy omil buzilgan?

- A. gulni hidi
- B. qora qalam
- C. osmonga qaramoq
- D. kitobga yozmoq

4. Har qanday til o'zining so'zlari, iboralari va qo'shimchalaridagi imkoniyatlarini qaysi bo'limda to'liq namoyon qiladi?

- A. morfologiyada
- B. sintaksisda
- C. leksikologiyada
- D. leksikologiyada, morfologiyada, sintaksisda

5. Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta hayitlik olgan joying, birinchi o'qituvchi, birinchi muhabbatingni tanitgan makon – Vatandir! Ushbu gapda nechta to'ldiruvchili birikma mavjud?

- A. 3ta
- B. 4ta
- C. 5 ta
- D. 6 ta

6. Quyidagi birliklardan qaysilari ham erkin, ham turg'un birikma (ibora) sanaladi?

- A. boshini ko'tarmoq, ko'ngliga keltirmoq, qo'l koltarmoq, to'nini teskari kiyimoq
- B. ko'zini yog' bosgan, ko'nglidan o'tkazmoq, qo'lini siltamoq, tosh otmoq

C. bo'yniga qo'yimoq, kapalagi uchmoq, jonidan o'tmoq, ko'zini tikmoq
D. boshiga yetmoq, yaxshi ko'rmoq, qulog'iga quymoq, o'z yog'iga qovurilmoq

7. Qaysi qatorda berilgan so'z birikmalarini gapga aylantirish mumkin?

- A. qiziqarli mashg'ulot, oydin kecha, maqola o'qimoq
- B. qattiq sovuq, shirin qovun, chiroyli gul
- C. berilgan topshiriq, o'qishli asar, g'azal yodlamoq
- D. samarali ishlamoq, ko'chat o'tqazish, barqaror tinchlik

8. Muzaffarning lo'ppi yuzidagi achinish alomati xushnud tabassum bilan almashdi. Ushbu gapda otli so'z birikmalarining soni nechta?

- A. 5ta B. 6ta C. 4 ta D. 7 ta

9. Quyidagi gapda nechta so'z birikmasi borligini aniqlang.

Katta sement ko'prik ustidan mashinalar tinimsiz o'tib turibdi.

- A. 3ta B. 4 ta C. 6 ta D. 5 ta

10. texnologiyani o'zlashtirmoq birikmasida birikuv omillari qaysi javobda to'g'ri lo'rsatilgan?

- A. [MSHJ-MSHJ] B. [SHMJ-SHMJ]
- S. [JMSH-JMSH] D. [SHMJ-MSHJ]

GAP VA UNING QURILISHI

Tayanch tushunchalar: gap, sodda gap, yig'iq va yoyiq gap, bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gap, gap va so'z kengaytiruvchilari, gap bo'laklari, gap markazi.

1-mashq. Berilgan gaplarni bo'laklarga ajrating. Har bir gapning minimal va maksimal qoliplarini aniqlang. Gap lisoniy qolipini tiklash bosqichlariga amal qiling.

Ezgulik urug'lari

Hayotda hech narsa abadiy emas. Vaqti kelsa, tog'lar ham yemiriladi, ammo yoshlikda inson qalbiga ekilgan ezgulik urug'lari toabad zavol bilmaydi. O'g'il-qizlarimiz biz yetolmagan orzularga erishishi, shuningdek, biz chiqolmagan cho'qqilarni zabt etishi muqarrar, chunki ularning jo'shqin qalbidagi jahoniy aql va tafakkur mash'ali yolqinlanib turibdi.

Keyingi yillarda ilm-fan, sport, ijod, san'at, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda erishilgan olamshumul yutuqlarimizni esga oling. Demoqchimanki, aynan mustaqillik davrining yoshlari fidoyi mehnati va izlanish orqali O'zbekiston nomini dunyoga tanitmoqda, uning obro'siga obro', shuhratiga shuhrat qo'shmoqda. Zamon ham, dunyoqarash ham o'zgaryapti. Siz bilan biz ushbu yangilanish silsilasidamiz. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, avlodlar o'rtasida o'ziga xos «ko'prik» bo'lishimiz lozim. Toki ota-bobolardan meros qolgan shu yurt, shu tuproq, shu aziz Vatanni ishonchli qo'llarga topshira olaylik.

Maqolamga so'nggi nuqtani qo'yarkanman, hazrat Navoiyning quyidagi satrlarini yana bir bor eslagim va eslatgim keldi:

El netib topqay menikim,
Men o'zimni topmasam... (N.Toshev)

2-mashq. Gaplarni bo'laklarga ajrating. Har bir gapda nechta bo'lak borligini aniqlang. Qanday so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela olishini izohlang.

1. Oshqozon miyadan aqlliroq, chunki u qayt qilishni biladi. Miya esa har qanday chiqindini qabul qilishi mumkin. (Ch.Atmatov) 2. Quchoq-quchoq gullar terganim va keltirib senga berganim – kechagiday hamon esimda, har daqiqa, har on esimda. (H.Olimjon) 3. Yetmish yulduz yog'ilib bitta oycha to'lolmas, yetti yanga bir bo'lib bitta ona bo'lolmas. (Qo'shiqdan) 4. Men ham doim qishloqda turganimda mashinani o'rganib olardim. (H.Nazir) 5. Hoynahoy, bola uning kapalagini uchirib yuborgan. (H.Nazir) 6. Keksa bog'bon ko'm-ko'k ajriq ustida o'tirib hordiq chiqardi. 7. Suv endi yerga singmay muzlab qolgan edi. (A.Qahhor) 7. Uning qo'ltig'iga suv purkayotgan ham – shu Bek. 8. Quyoshki falakda kezib yuribdi, umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy. (G'.G'ulom) 9. Ustozlarning qadr-qimmatini bilmagan kishi o'qituvchi bo'la olmaydi. 10. Oy-u yulduzlari bo'lgani bilan vatan bo'lolmaydi osmon baribir. (Qo'shiqdan)

3-mashq. Mos matn tanlang va “Qaror shajarasi” metodi asosi mavzuni mustahkamlang.

1-topshiriq. Gaplarni shakllantirayotgan grammatik vositalarni aniqlang.

2-topshiriq. Shu vositalardan qaysilarini tushirib qoldirganda gap sintaktik jihatdan shakllanmagan hisoblanadi?

3-topshiriq. Tasdiq va inkor gaplarni ajrating.

4-topshiriq. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turini aniqlang.

5-topshiriq. Har bir gapning bosh bo'lagini aniqlang.

6-topshiriq. Gap uchun qaysi bo'lak ko'proq muhim ekan?

7-topshiriq. Gaplardagi nosintaktik hodisalarni chetlashtiring – aynanliklarni ajrating.

8-topshiriq. Nutqiy gap va lisoniy gapning farqini aniqlang.

9-topshiriq. Har bir gapning minimal lisoniy sintaktik qolipini aniqlang.

10-topshiriq. Mavzu yuzasidan testlar tuzing.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Sodda gapning lisoniy sintaktik qolipini belgilang.

A. [WPm]

B. [WPm, WPm]

C. [WPm → WPm]

D. [WPm ↔ WPm]

2. Gapning aktual bo'linishi qanday qismlarni o'z ichiga oladi?

A. tema, rema

B. tema, semema

C. sema, rema

D. ega va kesim

3. Tinglovchi uchun yangi ma'lumot hisoblangan gap qismi aktual bo'linishda qanday nomlanadi?

A. rema

B. tema

C. ega

D. aniqlovchi

4. Gapning aktual qurilishi uchun birlamchi bo'lgan omilni belgilang.

A. kommunikatsiya

B. lisoniy qobiliyat

C. nutqiy qobiliyat

D. so'zlovchining psixolingvistik xususiyatlari

5. Aktual jihatdan remasi maktub so'zi bo'lgan gapni aniqlang.

A. Sizga har hafta maktub yo'llayman.

B. Maktublarimni sizga har hafta yo'llayman.

C. Har hafta maktublarimni sizga yo'llayman.

D. Har hafta maktublarimni yo'llayman sizga.

6. Charchaganimiz uchun uxlaymiz. Ushbu gapning lisoniy sintaktik qolipini belgilang.

A. [WpM] B. [WpM, WpM] C. [WpM ↔ WpM] D. [WpM → WpM]

7. "Mantiqiy sub'yekt" termini ekvivalentini aniqlang.

A. mantiqiy ega B. rema C. mantiqiy kesim D. sub'yektivatsiya

8. Predikatsiya nima?

- A. Gapda fikr mazmunining ob'yektiv voqelikka nisbat berilishi
- B. Ega va kesim o'rtasidagi munosabat
- C. Gap bo'laklari o'rtasidagi munosabat
- D. Predikatning nutqda reallashuvi

9. Predikativ munosabat nima?

- A. Ega va kesim o'rtasidagi munosabat
- B. Gapda fikr mazmunining ob'yektiv voqelikka nisbat berilishi
- C. Predikatning nutqda reallashuvi
- D. Gap bo'laklari o'rtasidagi munosabat

10. O'zida tasdiq yoki inkor mazmuni bo'lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gap turini belgilang.

- A. Ritorik so'roq gap
- B. Buyruq gap
- C. Undov gap
- D. Atov gap

GAPNING LISONIY BO'LAKLARI

Tayanch tushunchalar: gap markazi, mustaqil va nomustaqil kesim, sodda va murakkab kesim, fe'l kesim va ism kesim, bog'lama, sodda kesim, murakkab kesim.

1-mashq. Gaplarni bo'laklarga ajrating. Gap bo'laklarini shakllantiruvchi vositalarga diqqat qiling. Qanday so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela olishini izohlang.

1. Xalqning umrboqiyliigi – uning tili bilandir. (Ch.Aytmatov) 2. Asta keldi dengiz yoniga gul janubning oydin kechasi. 3. Tingla, bu abadiy sado bo'ladi, Gadoning dushmani gado bo'ladi. (A.Oripov) 4. Shul erur aybim, Muqimiy, mardumi Farg'onaman. (Muqimiy) 5. Azizim, ne uchun maysa emasmiz, yellar esganida suykaliib o'sgan. Ne uchun, ne uchun daraxt bo'lmadik, ildizi, shoxlari chirmashib ketgan. 6. Harom yo'l bilan topilgan har qanday osh – osh emas, haq yo'lida

oqmagan ko'z yosh – yosh emas. Inson boshim bor deb gerdaymasin,
zero sajdaga bormagan bosh – bosh emas. (Internet materiallaridan)

2-mashq. Berilgan matn tarkibidagi gaplarning kesimini aniqlang.
Kesimning gapning markaziy bo'lagi ekanligini tushuntiring. Ifodalani-
lanishiga e'tibor qiling.

Beshinchi o'g'il

Yetmish yulduz yog'ilib,
Yarim oycha to'lolmas,
Yetti yanga yig'ilib,
Bitta ona bo'lolmas,
Ona tirik eshikka
G'urbat yaqin yo'lolmas,
Mening esa, bag'rim qon,
Vayronaman, Onajon...

Garchi biz yosh, g'o'r edik,
Siz bor – biz ham zo'r edik,
Bir mayizni besh o'g'il
Teng bo'lishib yer edik,
Goh talashsak, haq so'zni
Onam aytsin der edik,
Tushmi endi u zamon,
Hayronaman, Onajon...

Tirik yursa validang
Toqqa kuching yetarkan,
Onang o'lsa, boshingdan
Oftob o'tib ketarkan,
Jindekkina alam ham
Tog'dek botib ketarkan,
Ko'ksim to'la ming armon,
To'lg'onaman, Onajon.

Onasiz uy – oysiz tun
Ekan endi o'ylasam,
Qalbni o'rtar dardlarim,
Qay birini so'ylasam?
Sizsiz ko'cham befayz,

Halovat yo‘q uyda ham,
Farishtasi tark etgan
Ostonaman, Onajon.

O‘zing uchun o‘l yetim!..
O‘rda ham men, qirda ham.
Ko‘ylagimda tugma yo‘q,
Tugma bo‘lsa, kir – yoqam.
To‘rt yangamga qo‘shilib
Turtkilaydi to‘rt og‘am,
O‘z uyimda jonajon,
Begonaman, Onajon.

Yo‘qligingiz qadanda
Turar shunday bilinib,
Non yopmaysiz tonglari
Menga kulcha ilinib,
Sarg‘ayarman sarg‘aygan
Rasmingizga termulib,
Ziyo istab zor qaqshar
Parvonaman, Onajon...

Uy to‘rida tolbeshik –
Akam yotgan, men yotgan,
Sherdek-sherdek kelbatli
Besh o‘g‘ilga asqotgan,
Qaytib kirib bo‘lsaydi
Bo‘lardim jon deb qaytgan!..
Men bu joyni hammadan
Qizg‘onaman, Onajon. (Muhammad Yusuf)

3-mashq. Har bir gapning kesimini aniqlang. Qaysi turkum bilan ifodalanayotganligini ustiga yozib qo‘ying. Nima uchun kesim gap markazi ekanligini izohlang.

1. Barchamiz bu yo‘lda, ammo kim keyin, kim ilgari. Bilmagan hech qaysi dono, kim keyin, kim ilgari. (Qo‘shiqdan) 2. Men hali dunyodan to‘ygan yo‘q edim, Dunyo to‘ydimikan mendan, onajon. (K.Bahriyev) 3. Yer – xazina, suv – oltin. (Maqol) 4. Endi uning holiga voy. 5. Mohinur

o'n oyliyidan yura boshladi. 6. Sabr va bardosh Tangridan, shoshqaloqlik esa shaytondandir. ("Hadis"dan) 7. Torga tor dunyo, kengga keng dunyo. 8. Bir otim bor ajabgina, dumlari gajakkina, Hali kelsa, ko'rasiz, kula-kula o'lasiz. (chayon) 9. Ul na gumbazdir: eshigi, tuynugidin yo'q nishon, necha gulgun pok qizlar manzil aylabdir makon. (Uvaysiy) 10. Qon yutib umri jahon ahliidan bir yor istadim, lekin ul kamroq topildi, garchi bisyor istadim. (Navoiy)

4-mashq. Berilgan matn asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Sevgi sadosi

Gulim, mehr ko'zda degani yolg'on,
Mening dilimda hech o'chmas yolqinsiz,
Qancha ko'rishmasak, shuncha qadrdon,
Qancha olis bo'lsak, shuncha yaqinsiz.
Devona oshiqman, men bir devona,
Aytng, sizdan bo'lak kimim bor yana?..
Siz yo'q chog'imdagi dunyom begona,
Siz yo'q bog'imdagi gullar yoqimsiz.
Siz achchiq qismatim, siz iztirobim,
Siz shirin dardimsiz, shirin azobim,
Siz mening ko'klardan topgan oftobim,
Yerlarda yo'qotgan ko'zmunchog'imsiz.
Yodimda kechagi sho'xliklaringiz,
Ko'ksimni kuydirgan kipriklaringiz,
Siz - o'sha, orzusi oydan oydin qiz,
Siz - o'sha, kulgusi qo'ng'irog'imsiz.
Siz - o'sha, ko'zimning kiftida turgan,
Siz - o'sha, ko'nglimga ko'ngli in qurgan.
To'kilay deb tilim uchida turgan
She'rimsiz, bir umr bitmas ohimsiz... (M.Yusuf)

Topshiriqlar:

1. Matn tarkibidagi kesimlarning tuzilishiga ko'ra turini aniqlang.
2. Har bir gap kesimini ifodalanishiga ko'ra turini aniqlang.
3. Mustaqil va nomustaqil kesimli gaplarni ajrating.
4. Gap kengaytiruvchilari va so'z kengaytiruvchilarini izohlang.

GAP KENGAYTIRUVCHILARI. EGA

Tayanch tushunchalar: gap markazi, gap kengytiruvchisi, soʻz kengaytiruvchisi, ega, egali gaplar, egasiz gaplar.

1-mashq. Har bir gapning egasini topib, qaysi turkum bilan ifodalanganligini aniqlang.

1. Otasi kelavermagach bolalarning dod-voyi eshitila boshladi. 2. Ketar odamga yoʻl yaxshi. 3. Orqadan shivir-shivir eshitildi. 4. Shunisi maʼqul. 5. Sizga qandayi yoqadi? 6. Otabek qoʻllarini boʻshatuvchi qoʻrboshining bunchalik titrab, qaltirashidan oʻz raqiblaridan bittasi shu ekanini payqadi (A.Qodiriy) 7. Sevmoq uyat emasdir, Har kimda bor bu savdo... 8. Chekishning zarari haqida qancha gapirilmasin, bu dahshatli ogʻuga qarshi kurash sust ketmoqda. 9. Ming yillarkim bulbul kalomi oʻzgarmaydi, yaxlit hamisha. (A.Oripov) 10. Ha degan tuyaga madad. 11. Talant sukunat qoʻynida yetiladi, xarakter hayot boʻronlarida toblanadi. (I.Gyote) 12. Uzluksiz shodlik ham keltiradi gʻam, Haddan oshgan bazm – misoli motam. (Bedil) 13. Osmon boʻlsang, yerga egilmoq yaxshi, Tuproq boʻlsang, koʻkka intilmoq yaxshi. (Bedil)

2-mashq. Gaplarni berilgan tartibda egali va egasiz gaplarga ajratib koʻchiring. Mashq soʻngida egali va egasiz gaplar haqidagi fikrlaringizni umumlashtiring.

I. Egali gaplar:

II. Egasiz gaplar:

1. Egasi yashiringan gap:

a) egasi maʼlum gap;

b) egasi umumlashgan gap;

2. Egasi topilmas gap:

a) egasi nomaʼlum gap;

b) atov gap;

s) soʻz-gap;

1. Halol odamni taʼqib etish mumkin, ammo uni badnom qilib boʻlmaydi. (F.Volter) 2. Yangi doʻst orttirsang, eskisidan yuzingni burma. (Qobusnoma) 3. Hayot saboqlarin etolmasang yod, Uni oʻrgatolmas hech qanday ustod. (Rudakiy) 4. Shuni vrach qilguncha oyogʻi olti, qoʻli yetti boʻlib yugurdi-ku “ayachasi!”. (Oʻ.Hoshimov) 5. Yerd choʻkkalab oʻtirgancho “men sening onangman” deb yigʻlagan

xotin xayolimdan ketmasdi. (O'.Hoshimov) 6. Bu gap asosan qaysi maqsadda aytilayotganini tushunishga urinardi. (J.Abdullaxonov) 7. Kekkayishni sahroda yurgan norga yarashadi deyдилar. 8. Dushman samolyotlari o'q yog'dirib turishiga qaramay, hammasi ro'yobga chiqishi, qalb boshqacha hissiyot bilan tepishi, bularning hammasi keyin dilrabo qo'shiqday bo'lib qolishini hali bilmayдилar. (J.Abdullaxonov) 9. Aybim kambag'al bo'lganligimmi?! 10. Shu kuniyoq uyga qaytmaslikka qasd qildim. 11. Oxirgi qo'ng'iroq kuni edi. 12. Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari... (Bobur). 13. Xonaga kirgan avval salom beradi. 14. Imtihon vaqtida gaplashilmasin.

3-mashq. Berilgan gaplarda ega va kesim orasida tirening ishlatilish sababini tushuntiring.

1. Dong'i chiqmas bir yakka ot – yolg'izlik. (Y.Eshbek). 2. Amerika – sehrli diyori, uxlari edi Kolumb ham hali... (A.Oripov) 3. Faqirligim – haloligim va sodiqligim isboti. (Makiavelli) 4. Ona – u, bag'rida millat beshigi... (M.Toir) 5. Tashqarida turgan – kim? 6. Hammasiga aybdor – sen. 7. Yolg'iz umidim – shu 8. Ikki karra ikki – to'rt. 9. Shoirlilik – haq deya yonish, ukajon. (O.Matjon) 10. Yomon ko'rganim – kutish. 11. Eman daraxtining egilgani – singani. 12. Onamga yoqqani – menga yoqqani. 13. Bu – otning dupur-dupuri. 14. Bu – kichigim, u – kattam. 15. U – o'shalarining bittasi. 16. Qaynonali kelin – qarqara kelin, qaynonasiz kelin – masxara kelin. (Maqol) 17. Ona yurtim – oltin beshigim. (Maqol) 18. Vatan gadosi – kafan gadosi. (Maqol) 19. Komil insonlardagi oliyjanob xislat – o'tmishni unutmazlik. 20. Bu dunyoga kelganim – u dunyoga safarim. (I.Mirzo) 21. “Bu – Temur uchun”. Yo'q, bu – men uchun. (A.Oripov) 22. Bir haykal turibdi, u – robot emish. (A.Oripov) 23. Bu – masalaning naqadar murakkab ekanini ko'rsatib turibdi. 24. O'sha – dugonamga tinchlik bermasdi. 25. Ana shu – oilaning moddiy ahvoli og'irligidan darak berib turibdi. 26. Shu – usta Olimning uyi bo'lsa kerak. 27. Kurash, bu – xalqning milliy urf-odatidir. 28. Yashash, bu – orzular qanotini kermoq, Yashash, bu – muhabbat gullarini termoq (O.Matjon) 29. Oddiylik – daholilik alomatidir. (J.Sand) 30. Sen o'zga bir xonadondan, Men – Chingiziyman! (A.Oripov) 31. “Istiqlol ne berdi?” deysan serzarda, Istiqlol – tarixning imtihonidir. (O.Hojjiyeva) 32. Urush – quyon ovi emas.

4-mashq. Berilgan gaplarda ega va kesim orasida tirening ishlatilish masligi sababini tushuntiring.

1. Men ham talaba. 2. Uyingiz shumi? 3. Yer xazina-ku! 4. Dadam ham shifokor. 5. Yaxshidir achchiq haqiqat, Lek shirin yolg'on yomon. (E. Vohidov) 6. Uning yoshi o'n to'rtida. 7. U har doim birinchi. 8. Bizga diydor kerak, dunyo kerakmas. 9. Endi juda kech. 10. Xonada odam g'ij-g'ij. 11. Samimiy do'stlari bo'lmagan odam haqiqatdan ham yolg'iz. (F. Bekon) 12. So'z sehridan kuchliroq sehr yo'q. 13. Xurosonda bir darboza bor. (S. Yesenin) 14. Bu kishi Toshkentdan.

HOL

Tayanch tushunchalar: gap kengytiruvchisi, so'z kengaytiruvchisi, hol, ravish holi, payt holi, o'rin holi, maqsad holi, sabab holi, sodda hol, murakkab hol, nomustaqil hol.

1-mashq. Berilgan gaplar tarkibidagi hollarni aniqlang. Ifodalanishi va turini ko'rsating.

1. Shu kundan boshlab Soraxon har kirganida Saidiy yangi bir narsa kashf qila boshladi. (A. Qahhor) 2. Shu zaylda kulgi bilan, qo'shiq bilan ish davom etdi. (S. Ahmad) 3. U shu qadar qattiq baqirdiki, Gulnornng qulog'i teshilgandek bo'ldi. ("O'zbek xalq ertaklari" dan). 4. Quvonchim olamga sig'maydi, ikki yil bo'yi aka-ukaday bo'lib qolgan o'rtoqlarim bilan ajralish juda qiyin. (G'. G'ulom) 5. Bundan o'ttiz yil burun men u kishining yigirma ikki tomlik to'plamini qo'limdan qo'ymasdan o'qib chiqdim. (A. Qahhor) 6. Shukrona ayt avval parcha non uchun, So'ng qultum chuv uchun shukrona takror... (A. Oripov) 7. Urushdan avval qanaqa yashashgan bo'lsa, undan keyin ham o'zgarishsiz bir xil umr boshlanadi. (S. Ahmad) 8. Shu payt orqa bog' tarafdan oyoq sharpasi eshitilganday bo'ldi. (D. Nuriy) 9. Ular har to'g'rida bemalol bahslasha oladigan, nima to'g'risida gapirsa, o'z fikrini isbot qila oladigan, dono qizlar edi. (S. Ahmad) 10. U istamasa ham, noiloj borishga majbur bo'ldi. (O'. Usmon) 11. Harbiy kishi negadir qo'lini cho'zganicha oldinga qarab talpindi. (S. Anorboyev)

12. Qalam ushladimmi, demak – o'yin bas,

Yayrab ocholmaydi gul dudog'ini.

Shundoq yurak yutib so'rasha olmas,

Xonamda qoldirgan qo'g'irchog'ini.

Burchak-burchakda jim tortishar burun,

Bilmam qanday o'y-u xayol ichida.

Tuzsiz she'rларim deb shirindan shirin,
Bolalarim yurar oyoq uchida... (M. Yusuf)

2-mashq. Hollarni aniqlab quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Shayton

La'natlab bo'lsa ham, qarg'ab bo'lsa ham
Har kun tilovatda aytilar nomi.

Uning bosh suqmagan joyi kamdan-kam,
Ichilgan har qadah uning ham jomi...

Deydilar, norasta go'dakni hatto

Uyquda qitiqlab kuldirar emish.

Salgina g'aflatda qolsang mabodo

Qilmagan ishingni qildirar emish.

Shaytonning hunari chindan rang-barang,

Sallani paytava qilib o'ratgay.

Agar sidqidildan ko'rsatsa nayrang

Nodonni shoh qilib, yurtni so'ratgay.

Minoda Shaytonni qildik toshbo'ron,

La'natga ko'mildi badbaxt u lain.

Dedik, shuncha yukning ostidan Shayton

Ming yillar chiqolmay yotmog'i tayin.

Shodumon yo'l oldik Vatanga qarab,

Shayton qoldi, deya chuqurda-choxda.

Manzilga qaytgandik, Shayton, voajab,

Bizni kutib oldi tayyoragohda. (A.Oripov)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1-topshiriq. Gap kengaytiruvchisi hisoblangan hollarni aniqlab ostiga chizing.

2-topshiriq. Holning ifodalanishini aniqlang.

3-topshiriq. Misollarda qo'llangan hollarni harakat tarzi shakllari bilan nutqiy sinonimik holatini aniqlab chiqing.

4-topshiriq. Misollardagi holning kesimga birikishida bog'lanish omillarini ko'rsating.

5-topshiriq. Misollarda kuzatilgan hollarning kesimga bog'lanish usullarini aniqlang (boshqaruv, moslashuv, bitishuv). Kuzatilgan misollarda hollar kesimning qaysi ma'naviy xususiyatlarini muayyanlashtirayotganini aniqlang.

6-topshiriq. Misollardagi hollarni ma'noviy turlarga ajrating. Kuzatilgan hollarning tuzilishiga ko'ra turlariga ajrating. Misollar tuzib, holning bir so'z bilan ifodalanishiga misol keltiring.

7-topshiriq. Holning so'z birikmasi bilan ifodalanishiga misol keltiring. Bir so'z bilan va so'z birikmasi bilan ifodalangan hollarning lisoniy tizimdagi o'rnini izohlang.

TO'LDIRUVCHI VA ANIQLOVCHI – SO'Z KENGAYTIRUVCHISI

Tayanch tushunchalar: gap kengaytiruvchisi, so'z kengaytiruvchisi, to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi, vositasiz to'ldiruvchi, nomus-taqil to'ldiruvchi, kelishikli to'ldiruvchi, ko'makchili to'ldiruvchi, kengaygan birikma, aniqlovchi, sifatlovchi, qaratqich aniqlovchi, izohlovchi.

1-mashq. Gaplar tarkibidagi to'ldiruvchilarni aniqlang. Qanday so'z turkumi bilan ifodalangani va gapning qaysi bo'lagiga tobelanayotganligiga diqqat qiling. To'ldiruvchi so'z kengaytiruvchisi ekanligiga izoh bering.

1. Bu dunyoni so'raganlar – kim, Nega ular yotar go'rda jim? Tafakkur qil, ey og'a-inim, Kimligingni bilmoq istasang. (Qo'shiqdan) 2. **Yaxshi** bilan yursang, yetarsan murodga, **yomon** bilan yursang, qolarsan uyatga. 3. Yigit uyalib yerga qaradi, qiz esa bundan dadillashdi. 4. Yeganin osh demang yolg'iz ayolning... 5. Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar. (Maqol) 6. Kimsa yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi. (Bobur) 7. Meni nazariga ilmaydi birov, Sizga shu gaplarni aytayin tikka. (A.Oripov) 8. Hamma har narsaga ishqiboz, Kimdir marka yig'ar, kimdir it boqar. (A.Oripov) 9. Dunyoni qizg'anma mendan, azizim, Men sening ko'changdan o'tmasman zinhor. (A.Oripov) 10. Xatni pochta orqali yuborganini ma'lum qildi.

2-mashq. Gaplar tarkibidagi to'ldiruvchilarni aniqlang. Vositali va vositasiz to'ldiruvchini ajrating. Ularni farqlang.

1. Bobolardan so'zladim, ammo bir zot borkim, baridan suyuq. (A.Oripov) 2. U hozir hammaning kallasini g'ovlatgan shum xabarni yo hech o'ylamayapti, yoki o'zini "bu gapning menga sira daxli yo'q" deb ko'rsatmoqchi. (A.Muxtor) 3. Hayot quyosh bilan go'zal, inson esa xulqi

bilan. (Shukrullo) 4. Men seni tinchitmayman va lekin injitmayman... (Mirtemir) 5. Menga alam qilar, tilla baliqcha Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni... (A.Oripov) 6. "...Buncha chidam qaydan – po'lat, olovdan, Metindan yaralgan jonmidi otam..." (Zulfiya) 7. Kim biladi, o'g'li ham otasi haqida shunday o'ylasa kerak; u otasini zarracha hurmat qilmasdi. (N.Eshonqul) 8. Bir safar katta odamning gapini hadeb qaytaraverishga yuzi chidamay juma kuni kelishga va'da berdi; kelganida qanday bo'ldiki, ikki-uch soat o'tirishni mo'ljallagan odam kechasi soat o'n birgacha o'tirdi. (A.Qahhor) 9. Ish kuchini elga berma, yerga ber; jamg'armani selga berma, elga ber! 10. Yaxshini yomon dema, olishing bo'lsa ham; Yomonni yaxshi dema, yaqining bo'lsa ham. (Maqol)

3-mashq. Berilgan gaplarda qo'llangan aniqlovchilarni toping va o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring. Qaysi so'z turkumi bilan ifodalananayotganini aniqlang.

1. Samimiy do'stlari bo'lmagan odam, haqiqatan ham, yolg'izdir. (F.Bekon) 2. Ufq qizg'ish tusga kirib, tong yorishardi. (Sh.Rashidov) 3. Yaxshi fikrlar ham eng yaxshilariga joy bo'shatib bermog'i lozim. (V.Shekspir) 4. Shu orada to'rttacha samosval oldinma-ketin g'isht to'kib ketdi. (S. Ahmad) 5. Og'irligi 70 kilogramm keladigan odam Oyga chiqsa, uning vazni 11,7 kilogrammdan oshmaydi. ("Qiziqarli geografiya") 6. Mahallada duv-duv gap. 7. Mayin shamol esadi g'ir-g'ir. 8. Gursullab yiqildi keksa qayrag'och... 9. Dam o'tmay sharros yomg'ir quyib berdi. 10. She'r shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. (A.Oripov) 11. Rasmda chol nima demoqchiligini tushunmasam-da, lekin yigitning yuzidagi ishonchdan hayratga tushdim; qizg'ish va javdari bo'yoq yigitning ko'nglidagi hissiyotni to'la aks ettira olgan edi. (N.Eshonqul) 12. Hayhotday hovli fayzsiz; daraxtlar ostini o't-o'lan bosgan, hovlining etak tomonida bir juft yirik-yirik qarg'a loqayd kezib yuribdi. (O.Otaxonov)

4-mashq. Berilgan matn asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Suvari

Seni hech kim sevolmaydi meningdek:

Vaslingga zor bu oshiqalar, ehtimol,

Poyingga tiz cho'kib yig'lar, ehtimol,

Lekin sodiq bo'lolmaydi meningdek!..

Aldanma yor aldamchilar makriga,
Malak bo'lma bevafo ishq shahriga,
Ular seni bir bossa, bas, bag'riga,
Seni hech kim sevolmaydi meningdek.

Yo'ling kesib o'tsam – o'zim hijolat,
Uzoqdan bir seni ko'rsam, kifoyat,
Bir nigohing o'zi menga inoyat,
Seni hech kim sevolmaydi meningdek.

Joningga jon bo'lmayman-u, sevaman,
Yoningga bir kelmayman-u, sevaman,
Ismingni ham bilmayman-u, sevaman,
Seni hech kim sevolmaydi meningdek.

Sen ko'kdagi harir ko'ylak, hur-pari,
Ko'k ko'ldagi tinib qolgan suvpari,
Muhammadning ko'nglidagi dilbari,
Seni hech kim sevolmaydi meningdek. (M.Yusuf)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Berilgan gaplardagi so'z kengaytiruvchi hisoblangan aniqlovchilarni ostiga chizib, qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishini aniqlang.

2. Misollardagi aniqlovchilarni belgini muayyanlashtiruvchi (sifatlovchi) yoki qarashlilikni muayyanlashtiruvchi (qaratqich) aniqlovchilarga ajrating.

3. Aniqlovchilarning kesim, ega, hol, to'ldiruvchi va undalmaga tobelanishini misollarda ko'rsatib bering.

4. Aniqlovchining lisoniy sathdagi o'rnini izohlab bering. Misollardan sifatlovchi va sifatlanmishning tobelanishida sifatlovchining birikuv omillarini aniqlab ko'rsating.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Qaysi qatorda faqat lisoniy gap bo'laklar(gap kengaytiruvchilari) berilgan.

A. ega, kesim, aniqlovchi

B. kesim, to'ldiruvchi

S. ega, hol, kirish so'zlar

D. ega, to'ldiruvchi

2. Suv bor yerda hayot bor. Mazkur gapning bosh bo'laklari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

A. Suv, hayot – ega, bor, – kesim.

B. Suv bor – ega, hayot bor-kesim

- C. Hayot – ega, bor – kesim
D. Suv bor, hayot bor – kesim, ega ifodalanmagan

3. Bog‘lamani toping.

- A. So‘ylab beray Zaynab va Omon Sevgisidan yangi bir doston. B. Birovlarni qarg‘ash yoki so‘kish gunoh. S. Anvar yoshligida bo‘shangina bola edi. D. Pirim, Mahdumdan chopar bor.

4. Tarkibli fe‘l-kesim qaysi qatorda berilgan?

- A. Birovlarni qarg‘ash yoki so‘kish gunoh
B. Ishtiyoq bilan qilgan ishimiz dardimizni davolaydi.
C. Qishlog‘imizda kichik kkorxonona ishlay boshladi
D. Mard bir so‘zlaydi, nomard ming so‘zlaydi.

6. Odam borki, odamlarning naqshidir, Odam borki, hayvon undan yaxshidir gapida nechta kesim bor?

- A. 2 ta B. 4 ta C. 3 ta D. 1 ta

7. Kesimlik kategoriyasi a‘zolari qaysi qatorda berilgan?

- A. Predikativlik va modallik
B. To‘g‘ri javob yo‘q.
C. Shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modallik/mayl.
D. Shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, ifoda maqsadi

8. Gapning lisoniy sathida aniqlovchining mavqei qanday?

- A. Aniqlovchi-sub'ekt ifodalovchi sintaktik shakl
B. Aniqlovchi predikat bilan uning argumenti sifatida doimiy munosabatga kirishadigan bo‘lak
C. Aniqlovchi gapni bo‘laklarga ajratishning beshinchi darajasini tashkil etadi
D. So‘z kengaytiruvchisi

9. To‘liqsizlik gapning qaysi sathiga xos?

- A. lisoniy B. nutqiy
C. morfologik shakliga D. To‘g‘ri javob berilmagan.

10. Gap maksimal qolipida aniqlovchining o‘rni qanday?

- A. so‘z kengaytiruvchisi
B. gap kengaytiruvchisi

- C. ham soʻz kengaytiruvchisi, ham gap kengaytiruvchisi
D. oraliq uchunchi

SODDA GAPLARNING MURAKKABLASHUVI

Tayanch tushunchalar: murakkab sodda gap, undalma, uyushiq boʻlak, ajratilgan boʻlak, ajratilgan sifatlovchi, uyushiq kesim, ters sifatlovchi, kiritma, kirish soʻz, kirish birima, kiritma gap.

1-mashq. Berilgan matn asosida sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalarning gap qurilishida tutgan oʻrnini aniqlang. Undalma, kiritma, uyushiq boʻlak, ajratilgan boʻlaklarni ajratib, gap boʻlaklari bilan munosabatini yoriting.

Ketmoqdaman

Yaxshi qol, ey dilbarim, dilda kadar, ketmoqdaman,
Ishq aro endi holim zer-u zabar, ketmoqdaman.

Na ishonch-u na quvonch-u, na koʻngildan gapni och,
Barchasidan ushbu kun yoʻqdir samar, ketmoqdaman.

Men quyosh yuzlimga deb tun-kechalar berdim yurak,
Oqibat otganda tong qondir jigar, ketmoqdaman.

Necha kunlar oʻtdi, lekin soʻrmading holimni bir,
Oxirida hol soʻrab kelsang magar, ketmoqdaman.

Kelganimda dedilarki, bu yigit koni zarar,
Ketmagimdan oxir ayt, bormi zarar, ketmoqdaman.

Bilmadim, hech bormikin asli dardimga shifo,
Xasta bu Abdulladan olgin xabar, ketmoqdaman. (A.Oripov)

2-mashq. Gaplarni koʻchiring. Oʻzaro teng munosabatda boʻlgan soʻz qoʻshilmalarini aniqlang. Uyushgan boʻlakning ostiga chizing.

1. Hali haydovchilardan, hali traktorчилardan bir-ikkitasi baʼzan tongda, baʼzan yarim tunda yo u, yoki bu ehtiyot qismlarini soʻrab kelardi. (Sh.Rashidov) 2. Serquyosh, hur oʻlkam, elga baxt, najot.

(A.Oripov). 3. Na ko'kning fonari o'chmasdan, na yulduz sayr etib ko'chmasdan... (Uyg'un) 4. Do'st bilan dushmanning ko'rinishi bir xil. 5. Sovuq, ammo rutubatsiz havoda u o'zini ancha yengil his etdi (Shukrullo) 6. Buyuklar buyuk ishlarga uning qanday ulug'ligini his etgani uchun, ahmoqlar esa uning qanday qiyinligini anglay olmagan uchun qo'l uradi. (L.K.Vovenarg) 7. Qush parvoz uchun, inson baxt uchun yaratgan. 8. Gulnor ikki haftadan buyon dadasi va onasi bilan birga har kun bog'da ishlaydi. (Oybek) 10. Hujra kichkina, lekin iliqqina edi. (Oybek) 11. Ul na gumbazdir: eshigi, tuynugidin yo'q nishon, necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdir makon. (Uvaysiy) 12. Har tilni biluv emdi bani odama jondir, Til vositai, robitai, olamiyondir. (Avaz O'tar) 13. Sharob hammaning boshini qizdirib, hissiyotni aqldan ustun qilgan bu soatda sohibqiron Amir Temurning Hindistonning podshohi bo'lgan zurriyoti o'zining qilich kesmaydigan, o'q o'tmaydigan nazarkarda botir ekaniga arslon kiyik bilan olishganda o'z g'alabasiga aniq bo'lganday ishonmoqda edi (P.Qodirov)

3-mashq. Berilgan gaplar asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Surayyo, Muhayyo, Ra'no, Muqaddas, ko'zimni yashnatib kiyibsiz atlas. 2. Seni maftun bo'lib sevib qolganim, Ishqing olovida o'rtanganim rost. Sening ruhing bilan nafas olganim, isming takrorlashga o'rganganim rost. (H.Olimjon) 3. Erkak, xotin, bola-chaqa – hammasining kiyimlarini tikaman. (Oybek) 4. Shu payt hovliga Davron aka bilan Iskandarov kirib kelishdi. (Y.Shukurov) 5. Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, bo'g'otlarda chumchuqlar chirqillashadi. (M.Ismoilijiy) 6. Maxdum bo'ychan, olago'sht, siyrak mo'y, oq tan, istarasi issiq bir domla edi. (A.Qodiriy) 7. Chaqaloq kichkina, oppoq va dumaloq qo'llarini cho'zib, menga talpinar edi. (Y.Shukurov) 8. Hulkar eshik oldida bir otasiga, bir Avazga, bir onasiga qarab qo'yardi. 9. Yaxshi xislati bor: oppoq soqoli bilan farzandlarini ham, ko'cha-ko'yidagi begona bolalarni ham – xullas, barchani sizlab gapirardi. (O.Muxtor) 10. Daraxtlardagi barcha sayroqi qushlar: sa'va, bulbul, mayna va boshqalar unga jo'r bo'ldi. (N.Fozilov) 11. Yigitlar maktubin bitganda qondan, Kelinlar firoqda chekkanda yohu Uning ham panohi qaytmadi jangdan, O'n sakkiz yoshida beva qoldi u. (A.Oripov) 12. Yosh-u qari, erkak-ayol – hamma mehmonlarni kutib olishga peshvoz chiqdi. (Oybek) 13. Yumushmi, o'yinmi – barini tashlab, Sehrli olamga kirib borardik. (Zulfiya)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Gapning qaysi bo'lagi uyushganini aniqlang.
2. Uyushgan bo'lakning qaysi bo'lakka tobelanayotganligiga diqqat qiling.
3. Uyushiq bo'laklarni o'zaro birliktiruvchi vositalarni aniqlang.
4. Tinish belgilarining qo'llanish sababini tushuntiring.
5. Umumlashtiruvchi so'zlarni aniqlang.

4-mashq. Gap juftliklarini qiyoslang. Ular orasidagi shakliy, ma'no-viy-uslubiy farqlarni tushuntiring.

1. Biz uch yildan buyon Qarshi shahrida o'qib, yashab, ishlab kelyapmiz // Biz uch yildan buyon Qarshi shahrida o'qib kelyapmiz, yashab kelyapmiz, ishlab kelyapmiz. 2. Ba'zi talabalarimiz 1-kursda tirishqoq, bilimga chanqoq, kamtarin edi // Ba'zi talabalarimiz 1-kursda tirishqoq edi, bilimga chanqoq edi, kamtarin edi // 3. Sen voqea joyiga borishing va barchasini o'z ko'zing bilan ko'rishing kerak // Sen voqea joyiga borishing kerak va barchasini o'z ko'zing bilan ko'rishing kerak.

5-mashq. Zarur o'rinlarda tinish belgilarini qo'yib gaplarni ko'chiring. Gapning qaysi bo'lagi uyushayotganligini aniqlang. Tinish belgisining qo'yilish sababini tushuntiring.

1. Jaladan so'ng daladagi narsalarning hammasi polizlardagi ekinlar daraxt nihollari hatto omonat chayla ham yer bag'irlagan edi. (H.Nazir)
2. Yig'ilishga hamma talabalar jumladan Nodir Jasur Nigora ham qatnashdi. 3. Maktab va bog'chalar litsey va kollejlar universitet va institutlar umuman barcha ta'lim muassasalari bayramona bezatilgan. 4. Tarbiyachining iste'dodi 1) favqulodda mehnatsevarlik 2) shaxsiy manfaatni butunlay unutish 3) bolalarga mehr 4) eng yaxshi his-tuyg'u va umid bilan yashash. 5. Maktab o'quvchilari xususan beshinchi oltinchi yettinchi sinflar ko'rikda yaxshi ishtirok etdilar. 6. Biz Dildora Anora va men uchalamiz grant asosida o'qiyapmiz. 7. Guldayin nozik billur singari shaffof subhidamdek pok qalb sohibi edi u qiz. (S.Ahmad)
8. Buyuk inson umrini xalqim deb vatanim deb o'tkazishi kerak degan xulosani o'rta tashladilar.

6-mashq. Berilgan gaplardagi ajratilgan soʻzlar yoki birikmalarni toping. Gapning qaysi boʻlagi ajratilganini aniqlang. Tinish belgilarining ishtatilish sababini tushuntiring.

1. Jomiy barcha xalqlarga, jumladan, oʻzbek xalqiga, uning tili va madaniyatiga chuqur hurmat bilan qaradi. 2. Dildora, orqa partada gaplashib oʻtirgan qiz, hushyor tortdi. 3. Ertaga, soat 9 da, universitetda, “Yoshlar markazi” roʻparasida kutaman. 4. Oʻzbekistonda, xususan, Qarshida yozda, ayniqsa iyul oyida, juda issiq boʻladi. 5. Birozdan soʻng Naim aka, ingliz tili oʻqituvchisi, kirib keldi. 6. Dadam shu atrofda – qishloqning chiqaverishidan – doʻkon qidirdi. (A.Qodiriy) 7. Sizga, oʻrta boʻyli qizga, atlas juda yarashibdi. (A.Qahhor) 8. Unsinni koʻrish, goʻzal xayol va dardli yodi bilan uning yuragini borgan sari chuqurroq yaralagan Gulnor toʻgʻrisida ikki ogʻiz soʻz eshitish orzusi, kuchli edi. (Oybek) 9. Endi sizlar – aziz onalar, opa-singillar, yurt egalari, kelajak sohiblari, yoʻlchi yulduz, mayoq singari istiqbolimizni yoritib, aqlimizni peshlang, ongimizni boyiting. 10. Oʻz uyimda – jonajon, begonaman, onajon. (Qoʻshiqdan) 11. Soyaman, ortingdan ergashgan, Yostiqlaman, tunlari dardlashgan, Tushingman, oʻngingga almashgan, Unutmoq osonmas bizlarni.

7-mashq. Gapning qaysi boʻlagi ajratib izohlanganini aniqlang. Zarur oʻrinlarda tinish belgilarini qoʻyib koʻchiring.

1. Hammasidan ham oilamizga yangi inson qoʻshilgani uchun Gulchehra farzandli boʻlgani uchun quvonardim. 2. Kunduzi qoʻshni qishloqqa togʻ orqasiga oʻtib kelishga qasd qildi. 3. Siyrak daraxtli ikkinchi bir tepalikda bir necha kishilarning ayol va erkaklarning qorasi koʻrindi. (Oybek) 4. Toʻxtagin, qiz, bu men Olimjon. 5. Biz birinchi navbatda yoshlarni ayniqsa bolalarni asrashimiz kerak. 6. Biz sizning doʻstlaringiz yoʻl qoʻygan xato halokatga olib borguncha indamay turarmidik. (Sh.Rashidov) 7. Bu xabar koʻplarni shu jumladan Mahkamni ham juda quvontirdi. (P.Qodirov) 8. Biz mana shu xoʻjalik hayotidan nafis film yaʼni kartina yaratmoqchimiz. (A.Qahhor) 9. Men guruh sardori – Azizovaman.

8-mashq. Berilgan gaplardagi ajratilgan boʻlakning qaysi gap boʻlagiga oidligini aniqlang. Tinish belgilarining qoʻyilish sababini tushuntiring.

1. Endi ular faqat birgina sayilni – dushman ustidan g'alaba qilingan kun tantanasini – umid qilardilar. (Sh.Rashidov) 2. Sakrab tushdi shunda tuyadan, Karvonboshi – berahm, nodon... (E.R.) 3. Ulardan biri – sersoqol, rangpar va oriq – o'z mantig'ining kuchini ko'rsatishga tirishardi. (Oybek) 4. Biri aks etadi gullarga, Biri olim – yoqimli, xushfe'l. (H.Olimjon) 5. Bayroq, havo rang, mag'rur hilpirab turar. (H.G'ulom) 6. Bugun kun bo'ladi, ravshan va bedog'. (H.Olimjon) 7. Qobil bobo, yalang'och, yalang oyoq, yaktakchang, og'il eshigi yonida turib, dag'-dag' titraydi. (A.Qahhor) 8. Endi odamlar – otliq, piyoda, yosh, qari – uchray boshladi. (Oybek) 9. Paxtakor o'zbekman – zabardast, mag'rur. (G'.G'ulom) 10. Ayol, sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq, ko'chaga otildi. (S.K.) 11. Ne sababdan buncha ham yo'q oldingda qimmatim, Men axir, yoqut, zumrad – jinsi nodir emasman. 12. Qorako'z kechalari daydib ketmay qo'ydi. Har kuni hali tong yorishmay turib (kampir bomdodga turganda) uyg'onib ketardi. (S.Ahmad) 13. Bir kun noyib to'ranikida (uyezd hokimining o'rinbosar-nikida) ichkilik qilib o'tirishgan edilar, ichkilik quyilmasdan oldinroq noyibning onasi o'z nevarasini olib kirib qoldi. (Cho'lpon)

9-mashq. Berilgan gaplarda qaysi bo'lak ajratib izohlanayotgani va qaysi bo'lak uyushayotganini aniqlang. Ajratilgan bo'lak bilan uyushiq bo'lakning farqi va o'xshashligini misollar asosida tushuntiring.

1. Ismi Barlos – sodda, dilovar – ov va qush ilmining piridir. (Oybek) 2. Har bir odamning do'stlari oldida burch va mas'uliyatlari borki, ularni ado etolmasa, do'stlari uning do'stligini e'tirof etmaydilar, tan olmaydilar. 3. Shu yerda, jiydazor yonidagi xilvat joyda, u menga o'z o'tmishini, to'g'rirog'i, shu yozda boshidan kechirgan va qalbida chuqur iz qoldirgan bir voqeani, hikoya qilib berdi. 4. Onamga, men uchun eng aziz insonga, chiroyli, xushbo'y, nafis gullar keltirdim. 5. Uy to'rida tol beshik, akam yotgan, men yotgan, sherdek-sherdek kelbatli to'rt o'g'ilga asqotgan. Qaytib kirib bo'lsaydi, bo'lardim jon deb qaytgan. Men bu joyni hammadan qizg'onaman, onajon. (Qo'shiqdan)

10-mashq. Gapdagi kiritma qurilmalarni aniqlang. Qaysi so'z turkumiga mansubligini ayting. Kiritmalar qanday mazmuniy munosabatni ifodalash uchun qo'llanganini tushuntiring.

1. Ne ajab, ul sarvinozim o'n sakiz yoshindadur. (Navoiy) 2. Eshitishimcha, sizga gullarning qizili yoqadi. 3. Demak, sayohatni yoqtirasiz. 4. Xo'sh, sendan boshqa kimim bor? 5. Kechasi havo biroz salqinlashdi, shekilli. 6. Chamasi, u mendan ikki yosh katta. 7. Marhamat, savollarga javob bering. 8. Ma, bu kitob seniki. 9. So'zsiz, bu ma'noda aytganim yo'q! 10. Ohkim, afsus, emas hech ishda rahbar toleyim. (Muqimiy) 11. Bo'ldi, taajjub, qiziq hangomalar, Arz etayin endi yozib nomalar. (Muqimiy)

11-mashq. Sodda va murakkab kiritmalarni ajratib ko'chiring. Tinish belgilarining qo'yilish sababini tushuntiring.

1. Shunday qilib, do'kondan nima olmoqchisiz? 2. Haqiqatdan ham, jasorat iste'dod singari maqsad sari boradigan yo'lni osonlashtiradi. 3. Menimcha, Toshpo'latov uch kundan beri shu yerda. 4. To'g'risi, testga o'zim qatnashmaganman. 5. Xullas, uygacha suhbatlashib bordik. 6. Uning aytishicha, kecha kuni bo'yi tepalik yonida ishchilar bilan birga bo'lgan. 7. Nazarimda, bu haqda boshqa fikr bo'lmagani uchun maorifdan boshqa muallim so'rashdi. 8. Alqissa, yigit toqqa qarab yo'l olibdi. 9. Soy labiga yetgach, nihoyat, hassasini supa ustiga qo'ydi. 10. Talabalar yoppasi hasharga safarbar etildi, shekilli. 11. Laziza (uchinchi kursdagi ori qiz) Navoiy nomidagi nomdor stipendiya sohibi bo'libdi.

12-mashq. Qaysi gaplar tarkibida kirish so'z mavjud? Mustaqil so'zlar qanday holatda kiritma vazifasida kelishini izohlang.

1. Mayda-chuyda kamchiliklar chiqibdi, mazmuni. 2. Ammo, rosti, sizdan xafa emasman. 3. Har ishning chamasi bor, har daryoning kemasi. 4. Haqiqatdan yuz o'girmang. 5. Haqiqatdan, u arazlab ketdi. 6. Tabiiy, ertaga u o'z onasini ham tanimaydi. 7. Jang tugagandan keyin qahramon ko'payishi tabiiy. 8. Demak, mening gapim yolg'on! 9. Ko'p demak nodonning ishi, ko'p yemak hayvonning. 10. U menga so'zsiz tikilib turardi. 11. Bugun yomg'irning yog'ishi shubhasiz. 12. Men, shubhasiz, usiz yasholmasdim. 13. Yaxshi, qizga javob beramiz. 14. Yaxshi qizga javob beramiz.

13-mashq. Undalmali gaplarni aniqlang. Undalmani egadan farqini izohlang.

1. Qani, so'zla, ko'zgujon, haqiqatni et bayon 2. Javob berib ko'r-chi, nomard tabiat, Bunchalik go'zalni nechun yaratding?! (H.Olimjon) 3. Bari-bari senga bo'lsin, senga bo'lsin, onajon. (A.Oripov) 4. Keksa dilingizga tushmasin titroq, Otalar, chayqalib turibdi olam.(A.Oripov) 5. Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'ngil uyin. (Navoiy) 6. O'g'lim, yurishing, turishing hammaga o'rnak bo'lsin. 7. Urush! Noming o'chsin jahondan. (Zulfiya) 8. Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot, Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon. (A.Oripov) 9. So'yla mango, ey sanam, kimni sevar yorisan? (Komil Xorazmiy)

14-mashq. Undalmani qaysi turkum bilan ifodalanayotganligini aniqlang. Tinish belgilarining ishlatilishiga diqqat qiling.

1. Qarchig'ay changallim, senga yo'l bo'lsin. 2. Sen yetim emassan, tinchlan, jigarim. (G'.G'ulom) 3. Yurak, sensan mening sozim. (U.Nosir) 4. She'rim, yana o'zing yaxshisan. (U.Nosir) 5. Uchlar, tashqariga chiqing. 6. Hoy, sizga aytyapman!. 7. Ey, siz, bu yoqqa o'ting. 8. Dunyoni qizg'anma mendan, azizim. (A.Oripov) 9. Ukajon, men uchun hamon tiriksan, Buyuk bo'lolmading garchi – buyuksan. (B.B.) 10. Yur, muhabbat, ketdik bu yerdan. (M.Yusuf) 11. Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor. (M.Yusuf) 12. Nazm tuz, Erkin, axir erkin zamondir bu zamon. (E.Vohidov) 13. Oqar daryolarga kimdir band bergan, Hayot kimga zahar, kimga qand bergan. Ey g'ofil, sarkash deb kamsitma meni, G'anim senga emas, menga pand bergan. (A.Oripov)

15-mashq. Gaplar tarkibidagi undalmalarni yig'iq va yoyiq undalmalarga ajratib ko'chiring.

1. Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz... (Navoiy) 2. Yana kelding, munisam bahor... 3. Siz-chi ey, sadoqat satridan nolib, Nadomat komiga qolganlar, aytng. (A.Oripov) 4. ...Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim, Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim. (A.Oripov) 5. Ona tilim, sen borsan, shaksiz Bulbul kuyin kuyga solaman. (A.Oripov) 6. Men sizga armon bo'lay, zolim begim...(H.Xudoyberdiyeva) 7. Bevafo, ey bevafo, sizga ham bordir jazo...

16-mashq. Matn asosida undalma, uyushiq bo'lak va ajratilgan bo'laklarni farqlashda ohang va tinish belgilarining rolini misollar asosida tushuntiring. Undalma, kiritma, uyushiq bo'lak va ajratilgan bo'lak haqidagi fikrlaringizni umumlashtiring.

“Munojot”ni tinglab

Qani, ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag‘rimni, ohang,
Nechun kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g‘am!
Eshilib, to‘lg‘anib ingranadi kuy,
Qaylardan kelmoqda bu oh-u faryod.
Kim u yig‘layotgan, Navoiymikin,
Va yo may kuychisi Hayyommikin, dod!
Bas, yetar, cholg‘uchi, bas qil sozingni,
Bas, yetar, ko‘ksimga urmagil xanjar,
Nahotki dunyoda shuncha g‘am bordir...
Agar shu “Munojot” rost bo‘lsa agar.
Agar aldamasa shu sovuq simlar,
Gar shul eshitganim bo‘lmasa ro‘yo.
Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!
Eshilib, to‘lg‘anib ingranadi kuy,
Asrlar g‘amini so‘ylar “Munojot”.
Kuyi shunday bo‘lsa, g‘amning o‘ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod! (A.Oripov)

16-mashq. Quyidagi namuna asosida A.Qahhorning “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Anor”, “Dahshat” hikoyalariidan birini sintaktik tahlil qiling.

Sodda gap tahlili tartibi va namunasi

1. Gap bo‘laklari aniqlanib, gapning minimal lisoniy qolipi tiklanadi.
2. Uyushiq va ajratilgan bo‘laklar aniqlanadi.
3. Gap bo‘laklari bilan munosabatga kirishmaydigan qurilmalarning gapda mavjudligiga e‘tibor qaratiladi.
4. Gap bo‘laklarining joylashuv tartibi izohlanadi.
5. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi aniqlanadi.
6. Gapning emotsiyaga ko‘ra turi aniqlanadi.
7. Eganing ishtirokiga ko‘ra gap turi aniqlanadi.
8. Hol, to‘ldiruvchi, aniqlovchining ishtirokiga ko‘ra gap turi aniqlanadi.
9. Zaruriy bo‘laklarning ishtirokiga ko‘ra gap turi aniqlanadi.
10. Gapdagi barcha nolisoniy hodisalar chetlashtirilib, gapning maksimal lisoniy qolipi aniqlanadi.

Namuna: Afsuski, shodlik va g'am yonma-yon yuradi.

1. yuradi – kesim, shodlik va g'am ega, yonma-yon – hol. Gapning minimal lisoniy qolipi: [ega+hol+kesim].
2. Ega uyushyapti – shodlik va g'am, ajratilgan bo'lak yo'q.
3. Gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmaydigan qurilmalardan afsuski kirish so'zi qatnashgan.
4. Gap bo'laklari odatdagi tartibda joylashgan.
5. Darak gap.
6. His-hayajonsiz gap.
7. Egali gap.
8. Yoyiq gap.
9. To'liq gap.
10. Gapning maksimal lisoniy qolipi: [WPm]

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Qaysi qatorda kirish gap berilgan?

- A. Sharqning kattakon adabiyotini bilish uchun, afsuski, bizning yoshlarimizda intilish yo'q
- B. Kecha, desangiz, yomg'ir yog'ib qoldi
- C. Gapning po'st kallasini aytganda, kiyim – kechak masalasida ham yordam berishadi
- D. Qishloqning orqa tomonida, es-es bilaman, katta uzumzor bor edi

2. Uyushiq undalmali gapni toping.

- A. Bahtiyor yoshlar, to'g'ri yo'ldan adashmang, yoshlikni behuda o'tkazmang
- B. Menda ixtiyor yo'q, oyijon!–dedi Kumush
- C. Kuyla, kuyla respublikam, baralla!
- D. Xayr, yashil o'rmonlar, moviy dengizlar!

3. To'liqsiz gapni aniqlang.

- A. Bolalik uyda sir yotmas
- B. Bolalik uyda g'iybat yo'q
- C. Bol shirin boldan bola shirin
- D. Qochoqqa shafqat yo'q qo'rqqoqa hurmat.

4. **Ham undalma, ham ega ishlatilgan gapni belgilang.**

- A. O'zbekiston! Sen bizning faxrimizsan.
- B. Qushlar - bizning do'stimiz.
- C. Do'stlar! Tabiatni asraylik.
- D. Oh, bu o'lka naqadar jozibali.

5. **Qaysi qatorda uyushiq bo'lakli gap va qo'shma gap juftligi berilgan?**

- A. Tig' yarasi tuzaladi, lekin dil yarasi tuzalmaydi. Hamma chuqur xo'rsindi, Anorxon piq-piq yig'ladi.
- B. Pulimiyot multiqlarning ovoziga xotin-xalaj, bola-chaqalarning yig'isi, dod-voyi qo'shilib ketdi. Turg'unoy birinchi tovushni eshitganda seskandi, so'nggilari esa uni vahimaga soldi.
- C. Bu yerning ob-havosi, iqlimi va sharoiti yaxshi edi. Biz harbiy uchuvchi va vatan posbonlari bo'lamiz.
- D. Bog'chada yosh-yosh qizchalar va o'g'il bolalar davra qurib o'ynashmoqda. Daryo goh shovqin solib, goh tinch oqar edi.

6. **Qaysi qatordagi gapda uyushiq hol ot va fe'l so'z turkumlari bilan ifodalangan?**

- A. U hayajon bilan, tez-tez va bo'g'ilib so'zlar edi.
- B. Podsho goh kulib, goh jiddiy o'y bilan quloq soldi
- C. Saida goh afsuslanib, goh kuyib, goh kulib gapirib berdi
- D. Ufqqa tutashib ketgan polizlar va tokzorlar qizg'ish, qahrabo tusda tovlanadi

7. **Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga – Roziyani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga –Sattor bir lahzada yetdi. Ushbu gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?**

- A. uyushiq bo'lakli gap
- B. uyushiq va ajratilgan bo'lakli gap
- C. ajratilgan bo'lakli gap
- D. Barcha hukmlar noto'g'ri

8. **Qaysi gapdagi uyushiq bo'laklar ayiruv bog'lovchisi vazifasidagi yuklamalar yordamida bog'langan?**

- A. Bu ishda eng muvofiq ham ishonchli kishi Safar bo'zchi edi
- B. O'rnidan turdi-yu, gapirmadi
- C. Hayrat mening bu ishimdan ranjimadi, balki quvonganini izhor qildi
- D. Ichkaridan chiqqan qiz yo'lakkami, mehmonxonagami o'tib ketdi.

9. Shu yerda, jiydazor yonidagi xilvat joyda, u menga o'z o'tmishini, to'g'rirog'i, shu yozda boshidan kechirgan va qalbida chuqur iz qoldirgan bir voqeani hikoya qilib berdi. **Ushbu gapda qaysi gap bo'laklari uyushgan?**

- A. hol va aniqlovchi
- B. hol va to'ldiruvchi
- C. faqat to'ldiruvchi
- D. faqat aniqlovchi

10. 1.Meni, Akrom Madumarovni o'rtoq Ergashev o'ziga ishga olmoqchi ekan. 2.Meni, Akrom Madumarovni, o'rtoq Ergashev o'ziga ishga olmoqchi ekan.3.Meni, ya'ni Akrom Madumarovni, o'rtoq Ergashev o'ziga ishga olmoqchi. **Ushbu gaplardan qaysi birida ajratilgan izoh bo'lak mavjud?**

- A. 1, 2, 3
- B. faqat 1
- C. faqat 3
- D. 2 va 3

UYUSHGAN GAP

Tayanch tushunchalar: uyushish, uyushqlik, uyushiq bo'lak, uyushiq kesim, uyushgan gap, qismlari ushgan qo'shma gap.

1-mashq. Berilgan gaplarni uyushiq bo'lakli sodda gap, uyushgan gap va qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplarga ajratib ko'chiring. Har bir gapping qurilish qolipini chizing va ularning farqini tushuntiring.

1. Aholisi ham, maydoni ham Moskvadan, Leningraddan, Kiyevdan keyin to'rtinchi o'rinda turar ekan. 2. Akam rais, opam brigadir bo'lgan edi. 3. Do'kondorlarning ba'zilari kitob o'qib, ba'zilari tasbeh o'girib, ba'zilari esnab o'tirishardi. 4. Erta yog'ib o'tgan yomg'ir chang va g'uborni yuvib ketgan, daraxtlarning yaproqlari tiniq va toza edi. 5. Uning qo'llari ishda, ko'zi shudgorda, ammo xayoli Zebixonda edi. 6. Jamshid yozar, Isroil o'qir edi. 7. Uyg'onganda suyaklari zirqirar, u o'zini lanj tuyardi. 8. Kun qaytgan va bahor kunlarining uchdan ikki qismi o'tgan edi. (S.Ahmad) 9. Mehnatdan do'st, g'iybatdan dushman ortar. 10. Go'yo Navoiy va Boyqaro qarshimda edi. 11. Har joyda va har kimga sen haqingda gapirdim. 12. Maydonni begona o't, tosh va har xil chiqindilardan tozaladik. 13. Kun iliq.

kuz oftobi ipakday mayin, qizg'ish shuvoq bilan qoplangan keng dasht oltinday tovlanib sokin mudrab o'tar, kishini o'ychanlikka, yorug' esdaliklarga undar, Inobatning ko'ngli ham shunga moyil edi (O.Yoqubov) 14. Buni hamma bilar, hammasi havas qilar, ba'zan esa hasad qiluvchilar ham topilardi (S.Zunnunova) 15. Agar Manzura qizini erka-tantiq qilib tarbiya etganida, qizi suyuqoyoq chiqib bu tavqi la'natni o'zi orttirganida, Asadbek bularni nima qilishni o'zi yaxshi bilar edi (T. Malik) 16. Tanib bo'lmas darajaga tushgan bu odam kimningdir otasi, kimning eri, kimningdir akasi, kimningdir qiyomatli oshnosi edi. (T.Malik)

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Kun iliq, kuz oftobi ipakday mayin, qizg'ish shuvoq bilan qoplangan keng dasht oltinday tovlanib sokin mudrab turar, kishini uychanlikka, yorug' esdaliklarga unddar, Inobatning ko'ngli ham shunga moyil edi.

Bu gap qanday gap?

A. uyushiq bo'lakli sodda gap.

B. bog'langan qo'shma gap

C. uyushgan gap

D. murakkab qo'shma gap

2. O'zi nozik, so'zi oziq, beri kel. **Bu gap ...**

A. uyushiq bo'lakli sodda gap.

B. bog'langan qo'shma gap

C. uyushgan gap

D. murakkab qo'shma gap

3. **Uyushgan gapning sodda gapdan asosiy farqi berilgan javob**

A. Har bir kesimning o'ziga tegishli egasi borligi bilan B. Birdan ortiq kesimga egaligi bilan

S. Bir necha kesim ishtirok etib, ulardan faqat oxirgisi shakllangani bilan

D. Birdan ortiq ega ishtirok etganligi bilan

4. **Uyushgan gapning asosiy belgisi berilgan javob**

A. Uyushgan gapda shakllangan kesim birdan ortiq bo'lib, ularda ega ishtirok etadi.

B. Uyushgan gapda bitta shakllangan kesim o'ziga tegishli egasi bilan ishtirok etadi.

C. Uyushgan gapda bir necha kesim bo'lib, ulardan faqat bittasi shakllangan bo'ladi..

D. Uyushgan gapda o'z egasiga ega bo'lgan bir necha kesim ishtirok etib, ulardan faqat bittasi shakllangan bo'ladi.

5. Uyushgan gap berilgan javobni toping.

- A. U tanib, bilib, so'ray boshladi. B. Eshikdan yosh yigit va chol kirib keldi.
C. Bog'da nafaqat o'rik, olma, shaftoli, balki nok ham o'sadi D. Bog'da o'rik gullagan, olma barg chiqargan edi.

6. Uyushgan gap berilmagan javobni toping.

- A. Kun botgan, bog'ning har joy-har joyidagi chirmovuq gullar bilan o'ralgan shiyponlarda chiroqlar yongan edi.
B. Osmonda ilk yulduzlar miltirab turibdi, ularni go'yo kimdir birov bita-bitta artib qo'ymoqda edi.
C. Tog'dan salqin shabada esa boshlangan, archazor bog' hazin guvillar, go'yo allanimadan nolir, zorlanar edi.
D. Kunduzgi bulutlar tamom tarqagan, osmon asalarining uyasiday g'uj-g'uj yulduzlarga to'lgan edi.

7. Uyushgan gap berilgan javobni toping.

- A. Do'kondorlar molini maqtab va xaridorlarni chorlab turardilar.
B. Voqea sodir bo'lgan joyga zudlik bilan borishimiz va masalaga oydinlik kiritishimiz lozim.
C. Siz a'lochisiz va jamoatchisiz
V. U vaqtlarda otam kosib, onam tikuvchi edi.

8. Ushbu qoliplarning qaysi biri uyushgan gapga tegishli?

- A. [(W1 -W2- W3)Pm] B. [WPm -WPm]
C. [(WPm)-(WPm)]-[WPm]] D. [(E1-W2)-(E2-W2) Pm];.

9. [(WPm)-(WPm)]-[WPm]] Ushbu qolip qanday gapga tegishli?

- A. Uyushiq bo'lakli sodda gap B. Uyushgan gap
C. Qo'shma gap D. Qismlari uyushgan qo'shma gap

10. Uch qismli uyushgan gap berilgan javob.

- A. Xalqimizning chuqur idroki bor, toza zavqi bor, g'ururi, an'anasi bor.
B. Bir vaqtlar o'tkir, o'ynoqi ko'zlari endi zaiflashgan, qilinchi zarb bilan uradiga baquvvat qo'llar ba'zan darmonsizlikdan titrar, sher andom bo'yi xiyla egilib, gavdasi cho'kkan edi.
C. Ular keyin suv bo'yiga qozon osib, baliq qovurar, ovga ko'pchilik qatnashgani uchun uning nomi xalfana bo'lar, shunday paytlarda tun yarmigacha mayus va dilrabo qo'shiqlar yangrar, soyda misoli to'y bo'lib ketardi.

D. Nazarimda, uylar, vishkalar va sim bilan o'ralgan allaqanday qo'rg'onlargina emas, yassi qirlar, o'pirilib tushib, g'orga o'xshab qolgan zotlar, hatto olisdagi cho'qqilar yonayotganga o'xshar, vodiyni tutgan bu alaga va dud orasida chumoliday yugurib yurgan odamlar ko'rinar, betartib otilgan pulemyot o'qlarining yaltillashi ko'zga chalinar, goho to'p ovozlari eshitilib qolar edi.

QO'SHMA GAP

Tayanch tushunchalar: qo'shma gap, sodda gap, teng tarkibli qo'shma gap, tobe tarkibli qo'shma gap, mutanosib tarkibli qo'shma gap, ergash gap, bosh gap, keism ergash gap, payt ergash gap.

1-mashq. Gaplarni sodda gap, uyushgan gap va qo'shma gaplarga ajratib ko'chiring. Ularning asosiy farqini izohlang.

1. Firuza toshli uzukni olar ekan, Saidaxonning ko'zlari quvonchdan yaltirab ketdi. (S.Ahmad) 2. Botirjon telefonda endi gaplashib bo'luvdiyam, choy ko'tarib Qirmizxon kirib keldi. (N.Aminov) 3. Havo ochilsa, aylanishga boramiz. (S.Nur) 4. Unga ustoz chini dildan "barakalla", "barakalla" desa, Aziz ko'nglida to'lib turgan niyatini ham aytadi. (S.Ahmad) 5. Vatangadolikning men tortmagan azob-u uqubati, ozori bo'lmasa kerak. (S.Az.) 6. Menga, Iskandariyadagi mashhur devonaga, Berlindan telegramma kelsa bo'ladimi? (S.Az.) 7. Borsam, joyi gulzor ekan, ko'rsam, o'zi jonon ekan. (Qo'shiqdan). 8. Tog' yaqin bo'lgani uchunmi, tun juda salqin, rota-rota, vzvod-vzvod bo'lib, tepalik yonbag'riga joylashgan soldatlar esa qo'noqzorning chetiga yonboshlab, suhbatlashar edi. (O.Yoqubov) 9. Alisher Navoiy dunyodan o'tgan bo'lsa, uning asarlari tirik. 10. Sen bo'lmasang, gullar kulmaydi, sen bo'lmasang, bo'lmaydi bahor. 11. Ular senga bir umr yo'ldosh, sodiq hamroh kabi o'tarlar, Qabring uzra egasalar ham bosh, xato qilishingni kutarlar. (A.Oripov) 12. Hamma bir-birini g'alaba bilan qutlar, quchoqlashib o'pishar, topganlar temir krujklarini shaq-shaq urishtirib, qittay-qittay ichishar, yoshlar raqsga tushar, keksaroq soldatlar esa qo'noqzorning chetiga yonboshlab, suhbatlashar edi. (O.Yoqubov)

2-mashq. Berilgan matn asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Ota

Armonim bor, bu dunyoda armonim bor,
Qoq dalada o'tlar bosgan o'rmonim bor.
Qizg'aldoqday boshim egik bu makonda
Yonib yashab o'tmagan otajonim bor.

Ota desam, bag'ri-dilim yonaverar,
Kunim yonar, oy-u yilim yonaverar,
Mozoriga qo'ygan gulim yonaverar,
Tutunlarga to'lib ketgan osmonim bor.

Esaversin jannatlardan kelgan nasim,
Momo yerim, o'zingsan eng muqaddasim,
Bag'ringda jim tinglab bu tun jon nafasim,
Ruhimni allalab yotgan jahonim bor.

Odam bo'lib bir odamni tushunmaslar,
Ko'zingda yosh ko'rib ham goh o'kinmaslar,
Bosgan izim poylab yurgan ey, nokaslar,
Qabrdan qo'l cho'zib turgan qalqonim bor...

Men otamdan qolgan erkin sado-sasman,
Qonimga yot navolarga qayrilmasman,
O'lgunimcha endi undan ayrilmasman -
O'z otamdek bo'lib qolgan imonim bor. (M.Yusuf)

Topshiriqlar:

1. Matnda nechta gap borligini aniqlang.
2. Barcha gaplarning minimal qoliplarini tiklang.
3. Shu qoliplardan kelib chiqib gaplarni tasnif qiling.
4. Teng munosabatli qo'shma gaplarni aniqlang.
5. Teng munosabatli qo'shma gaplarni bog'lanish usuliga ko'ra tasniflang.
6. Tobe munosabatli qo'shma gaplarni aniqlang.
7. Tobe munosabatli qo'shma gaplarni ma'nosiga ko'ra tasniflang.
8. Tobe munosabatli qo'shma gaplarni bog'lanish usuliga ko'ra tasniflang.
9. Ohang yordamida birikkan qo'shma gaplarni aniqlang.
10. Murakkab qo'shma gaplarni aniqlang.
11. Ham tenglanish, ham tobelanish asosida bog'langan qo'shma gaplarni aniqlang.

3-mashq. Teng munosabatli qo'shma gaplarni bog'lovchi vositaning turiga ko'ra tasniflab ko'chiring. Gap qismlari o'rtasida qanday mazmuniy munosabat borligini ayting. Barcha gaplarning minimal qoliplarini aniqlang.

1. Hayot quyosh bilan go'zal, inson esa xulqi bilan. (Shukrullo) 2. Yo'lovchining o'zi ichkariga kirdi-yu, ikki ko'zi tashqarida qoldi. (Omon Muxtor) 3. Shu onda chiroq o'chdi va birdan o'q uzildi. (A.Qahhor) 4. Vijdonli kishini ta'qib etish mumkin, ammo sharmanda qilish mumkin emas. (F.Volter) 5. Umrlar o'tar-u, kitoblar yashar. (G'afur G'ulom) 6. Anor so'zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar. 7. Odam umrining lazzati farzand, lekin noqobil farzand ota-onaning umrini qisqartiradi. 8. Mol-u puling ketsa-ketsin, ammo vaqting zoye ketmasin. 9. Osmon tiniq va havo beg'ubor. 10. Yo siz keling, yo men boray. (Qo'shiq) 11. Dam orqadagi qizlarning shivir-shiviri eshitiladi, dam eshikning g'irchillashi asabga tegadi. 12. Oy tunda kerak, aql esa kunda kerak. 13. Men bir qora kunda tug'ildim, tug'ildim-u, shu on bo'g'ildim. (H.Olimjon)

4-mashq. Ergash gap va hokim gapni ajrating. Gap qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'langanligini aniqlang. Gaplarning qurilish turini aniqlab, minimal qoliplarini tiklang. Har bir gapni sodda gapga aylantiring va gap qurilishida yuz bergan shakliy, mazmuniy, uslubiy o'zgarishlarni izohlang.

1. Otangiz vafotidan keyin uning do'stlari bilan aloqani davom ettiring, agar ular bilan aloqani uzsangiz, tangri sizning nuringizni o'chiradi. 2. Garchi Xitoyda bo'lsa ham, ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir. 3. Kimki ota-onasini roziligini olgan bo'lsa, unga qanday yaxshi! Tangri uning umrini uzaytiradi. 4. Shuni unutmangki, hech bir ota o'z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros berolmaydi. 5. Bilib qo'yingki, savobli ish qilganingizda xursand bo'lsangiz, gunoh ish qilganingizda esa xafa bo'lsangiz, demak, siz haqiqiy mo'mindirsiz. 6. Gap shundaki, imyon bilan amal bir-biriga juda yaqin, ular bir-birisiz durust emas. ("Hadis"dan) 7. Shunday talabalar borki, ular asosiy maqsadlari nima ekanligini bilmaydilar. 8. O'zimiz juda cho'llab kelgan edik, shuning uchun kechirdik. (A.Qodiriy) 9. Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir. (Nizomiy). 10. O'z dugonam shunday qiladi deb, sira o'ylamagan edim.

11. Mevali daraxtlar ko'p hosil qilsa, qish qattiq keladi. 12. Yer o'rik emaski, o'zi gullab, o'zi pishsa. 13. Yurak tandir emaski, olov yoqib qizdirsang. 14. Ko'nglingizga kelmasin-ku, juda betgachoparsiz. 15. Ustimiz eski bo'lsa ham, nazarimiz to'q. 16. Bundan chiqdiki, siz haq, biz nohaqmiz. 17. Qozonchining ixtiyori, qaydan quloq chiqarsa. 18. Kamchiligim shuki, uyquni yaxshi ko'raman. 19. Siz kimsizki, men siz bilan hisoblashay. 20. Havo ochiq bo'lsa ham, yomg'ir yog'ishi mumkin deb, issiq kiyindim. 21. Men aytdim-ku, bitta xatom – sizni suyganim. 22. Ko'rmayapsizmi, uning tili qanday zahar?! 23. Qabring uzra egasalar ham bosh, xato qilishingni kutarlar. (A.Oripov) 24. Dunyo yaralmishki, onalar hammadan erta uyg'onib, hammadan kech yotadi.

5-mashq. Ko'chiring. Tobe gapning bosh gapdagi qanday mazmuniy bo'shliqni to'ldirayotganligiga ko'ra turini aniqlang. Gaplarning minimal qolipini tiklang. Qismlarni bog'lovchi vositalarni qolipda aks ettiring.

1. Toleyim shuki, jahonda bir guliston tanladim. (H.Olimjon) 2. Shunisi qiziqki, uyquda ham miya o'z faoliyatini to'xtatmaydi. ("Fan va turmush") 3. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir... (Bobur) 4. Bilasizki, qadr tanqis. 5. Bilasizmi, ustozim kim? 6. O'ylaymanki, so'zlarim sizga og'ir botmaydi. 7. Ayrim qizlarimiz borki, ular paxta terimida ham, jamoat ishlarida ham, o'qishda ham doimo birinchi. 8. Talabalarning javobidan ko'rinib turibdiki, mavzu yaxshi tushuntirilgan. 9. Yomg'ir shunday quydiki, kiyimlarimiz shalabbo bo'lib ketdi. 10. Uning qarashlari shunday ma'yuski, yuragingiz ezilib ketadi. 11. Hozir shunday yoshdasizki, ovqatingiz ham, uyqungiz ham kitob bo'lsin. 12. Shunday yashangki, kelgusida armon qolmasin. 13. Farzandlarim qabrim ustida yig'lay olsin desangiz, ularning ko'z yoshlarini to'kmang.

6-mashq. Qurilish qolipi bir xil bo'lgan quyidagi gaplarda qanday mazmuniy munosabat ifodalananayotganligini aniqlang.

1. Gul barglari uchishadi, tushmayin deb qo'lingga. (H.Olimjon) 2. Ortimdan kimdir quvib kelyapti deb, qo'rqib ketdim. 3. Muhabbat izhorini Go'zal avval oshkor qiladi deb, kutmagan edim. 4. Nahotki o'z onam shunday qilgan bo'lsa deb, ko'nglim buzildi. 5. Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim, Qumlar bosib qurimasin daryolarim, Alpomishga alla aytgan momolarim, Ruhini shod etay desang, xalq bo'l,

elim! (M.Yusuf) 6. Qaldirg'ochlar pastlab uchsa, yog'ingarchilik bo'ladi. 7. Sezyapsizmi, havo isiyapti. 8. Televizor qo'yildimi, hamma to'planadi.

7-mashq. Berilgan gaplarni ko'chiring. Tinish belgilarining qo'yilish sababini tushuntiring. Zarur bog'lovchi vositalarni qo'yib, gaplarni teng yoki tobe munosabatli qo'shma gaplarga aylantiring.

1. Sizga ma'lum: paxtani birinchi yil ekishimiz. 2. Mening bir jaydari falsafamdir shu: Hargiz iltimosga kuning qolmasin. (A.Oripov) 3. Orzum shul: o'chmasin yongan chirog'ing. (A.Oripov) 4. Ruboiyni ichida o'qidi, yuzini tabassum qopladi. (Oybek) 5. To'rt mashina o'g'it yubordik – fermerlarga vaqtida taqsimlansin. 6. G'animlar duch kelar – jang bo'lar puxta. (A.Oripov) 7. Yurgan daryo – o'tirgan bo'ya. 8. Istiqlol davri bolalari g'ayratli, shijoatli; ko'zida chaqini, ko'ksida yolqini bor. (Dilshod Rajab) 9. Borliq jim: har bitta darchada zangor shu'lalar porlaydi. (E.Vohidov) 10. Hayron qoldim: u sehrlab qochdi qalbinni olib. (T.Norbek.) 11. Davlat tinch – xalq tinch. (Oybek) 12. Uning yuz-ko'zi otasiga tortgan edi: qoshlari quyuq, qalin... (S.Ahmad) 13. Qor yog'di – izlar bosildi. 14. Yaxshi xislati bor: oppoq soqoli bilan farzandlarini ham, ko'cha-ko'ydagi begona bolalarni ham – xullas, barchani sizlab gapirardi. (O.Muxtor) 15. U yo'g'on gavdali, yakkam-dukkam, qizg'ish mo'ylovli; keng qoramtir yuzining yonoqlari bo'rtgan; kunlar isib ketgan bo'lsa ham, uning egnida qo'pol eski po'stini, boshida qunduzi qalin katta bo'rk. (Oybek) 16. Uning ham bir armoni bor: alla aytasa.

8-mashq. Berilgan qo'shma gaplarning minimal lisoniy qoliplarini aniqlang. Ularning o'zaro qanday bog'lanayotganligini ayting. Tinish belgisining qo'yilish sababini tushuntiring.

1. Kampirning katalakday hovlisi misoli tandir: quyosh lovullab qizdiradi-yu, atrof uylar bilan o'ralgani uchun, qilt etgan shabada yurmaydi. (M.Hazratqulov) 2. Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukik, sening ziyoratingga keldim sultonim. (Fitrat) 3. Feruza uning jovdirashiga ko'pda e'tibor bermaydi, biroq kampir shu qadar sezgirki, suhbatdoshi ne ko'ydaligini darrov bilib oladi. (M. Hazratqulov) 4. Mayli, bizga saboq bo'lmasin, lekin dunyo biz bilan tugamaydi, ortimizda farzandlarimiz bor, bu yozuvlar loaqal o'shalarining kuniga yarab qolar. (Murod Muhammad Do'st) 5. E'tibor berganmisiz:

qaldirg'ochlar fayzsiz, noahil xonadonga hech qachon in qurmaydi. Goho qaldirg'och odamdan aqlliroqmikin, deb o'ylab qolaman. (O'.Hoshimov)

9-mashq. Ko'chiring. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni ajrating. Ularni bog'lovchi vositalarni aniqlang. Qurilmaning minimal lisoniy qolipini tiklang va chizmalarda aks ettiring.

1. Shunisi ajablanarliki, ko'pchilik talaba bo'lishni xohlaydi, ammo ilm tolibi bo'lish igna bilan quduq qazishdek mushkul ekanini bilishmaydi. 2. She'r shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. (A.Oripov) 3. Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygandi, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko'zlari dumaloq shakl olgan edi. (Oybek) 4. Bilmaydiki, ishning chatog'i chiqqanida Chorshanbi emas, uning o'zi qochib ketadi, Chorshanbi qurg'ur tagiga suv ketishi bilan mening yonimga yugurib keladi, men uni qutqarib olaman, ikki o'rtada Suyarqul ukamizning qurbon bo'lgani qoladi. (Murod Muhammad Do'st) 5. Kattalar qancha ishlasa, bolalar ham shuncha ishlar edi, biroq xo'jayin ularga kam haq to'lardi. (S.Ayniy) 6. Ulug'lar ne bersa, yemasmen dema, ilik sun, og'iz ur, yemasang yema. (A.Yugnakiy) 7. Haqiqat shu qadar shirinki, totib ko'rging keladi, shu qadar achchiqki, tilingni kuydiradi! (O'.Hoshimov)

10-mashq. Berilgan gaplar tarkibidagi sodda gaplarni aniqlang. Gap tarkibida nechta tobe, nechta hokim gap borligini chizmalar asosida tushuntiring. Gaplarning minimal lisoniy qoliplarini aniqlang. Ularning o'zaro qanday bog'lanayotganligini ayting.

1. Xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo'lsin, turmushimiz farovon bo'lsin, mustaqilligimiz barqaror bo'lsin. (O.Sharafiddinov) 2. Kimki o'z vatanini sevsa, kim o'z xalqi uchun jonini fido qilsa, u haqiqiy yurt o'g'lonidir. 3. Qalbingda yonsa ham bir dunyo alam, qaddingni buksa ham olam-olam g'am, boshingga ayriliq solsa ham soya, ko'ngling g'ash bo'lsa ham hijron tufayli, yuzlaring za'faron bo'lsa ham, mayli, onajon, ko'zingdan oqizma ko'p yosh. (Uyg'un) 4. Odamlarning huquqiy ongi yuksak bo'lsa, har kim o'z haqini tanisa, demokratik jamiyatga erishgan bo'lamiz. 5. Tol ekdik suv bo'yiga, soya-salqin bo'lsin deb, g'ayrat qilgan botirlar yotib damin olsin deb. 6. Taom bo'lsa hamki jon

nasibasi, Ortiqcha yeyilsa, keltirar zarar. (Sa'diy Sheroziy) 7. Sihat tilasang, ko'p yema, Izzat tilasang, ko'p dema. (Alisher Navoiy)

11-mashq. Berilgan gap qismlarini ajrating. Gap tarkibida nechta tobe, nechta hokim gap borligini aniqlang. Gaplarning minimal lisoniy qoliplarini tiklang.

1. Chindan ham odam yurakdan yayrab kulsa, sog'ligi yaxshilanadi, yengil tortadi, ruhi tetiklashadi, ishtahasi ochiladi, umri uzayadi. (G'.G'ulom) 2. Agar berilgan topshiriqlarni vaqtida bajarishga odatlan-sangiz, ishingizning unumi bo'ladi, hammaga o'rnak bo'la olasiz, odamlarning hurmatini qozonasiz. 3. O'zbek yoshlarining peshonasi shuning uchun ham yorug', iqboli balandki, ularning O'zbekistondak jannatmonand yurti bor. (A.Suyun) 4. G'anim kelsa, xonumoni kul bo'lur, o'z yurtida pachaqlash ma'qul bo'lur. (G'.G'ulom) 5. Shu bir og'iz so'zni shu qadar kuch bilan aytdiki, boshidagi oq tivit ro'moli sirg'alib yelkasiga tushdi, qoracha yuzi oqarib, shahlo ko'zida g'azab o'ti alangaladi. 6. Qirg'in qurollari yo'qotilsa, osmonimiz musaffoligi doim ta'minlanadi, xalqimiz osoyishta yashaydi, turmushimiz yanada farovon bo'ladi. 7. Qizimning yana bir yaxshi tomoni shundaki, qo'li ochiq, dili pok. 8. Kun shu qadar isidiki, chumchuqlarning ham ovozi chiqmay qoldi, hamma o'zini salqinga oldi. (M.Pirmatov) 9. Qo'shnilarning ko'nsa, hammalarning yerlaringni qo'shib yaxlit qilinglar, bir kunda haydab beraman. (A.Qahhor) 10. So'z oz bo'lsa ham, yolg'on bo'lsa, kishini halok qiluvchi zaharga teng.

MAVZU YUZASIDAN TESTLAR

1. Cho'llar chaman sochdilar, Tashlab anduhlarini, Jaranglatib ochdilar, Oltin sandiqlarini. **Bu gap qo'shma gapning qurilish qolipiga ko'ra qaysi turiga mansub?**

A. mutanosib tarkibli

B. sodda gap

C. teng tarkibli

D. tobe tarkibli

2. Qarasam, qaramaysan, qaramasam, qaraysan. **Ushbu gap nechta qismdan tashkil topgan?**

A. Uchta

B. Ikkita

C. To'rtta

D. Bitta

3. An'aviy sintaksisda ergashgan qo'shma gaplarni turlarga ajratishda qanday xususiyatlar hisobga olinadi?

- A. Gapning mazmuni va strukturasi
- B. Bosh va ergash gapning mazmuni va strukturasi tashqari ergash gapning sintaktik vazifasi, grammatik vositalari
- C. Bosh va ergash gaplarning matndagi konkret mazmuni, strukturasi, ergash gap bosh gapning biror bo'lagini yoki bosh gapni butunlay izohlay olishi
- D. Tuzilishi va qismlarining joylashuvi

4. Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g'ora ichiga qamab bera oladi. **Bu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?**

- A. kesim tobe gapli qo'shma gap
- B. Bog'langan qo'shma gap
- C. Bog'lovchisiz qo'shma gap
- D. Ega tobe gapli qo'shma gap

5. Ona zoti yaralibdiki, hammadan erta turib, hammadan kech yotadi. **Bu qo'shma gapning qaysi turiga mansub?**

- A. teng tarkibli
- B. mutanosib tarkibli
- C. tobe tarkibli
- D. ohang yordamida birikkan

6. Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda. (H.Olimjon). **Ushbu gap tuzilishiga ko'ra qanday gap?**

- A. sodda gap
- B. qo'shma gap
- C. uyushgan gap
- D. hol ergash gapli qo'shma gap

7. Daryo tiniq, osmon beg'ubor. **Ushbu gapning lisoniy sintaktik qolipini belgilang.**

- A. [WPm, WPm]
- B. [WPm → WPm]
- C. [WPm ↔ WPm]
- D. [WPm]

8. [WPm, WPm] qolipiga ega gapni aniqlang.

- A. Keldimi, kirsin
- B. Charchaganimiz uchun uxlaymiz.
- C. Qalam, daftar sotib oldim
- D. Betobligim tufayli majlisga bormadim

9. Qo'shma gapning umumiy lisoniy qolipi berilgan qatorni belgilang.

- A. [WPm - WPm] B. [WPm ↔ WPm]
C. [WPm, WPm] D. [WPm → WPm]

10. Har ikkala qismidagi kesimlarining nomustaqilligi bilan xarakterlanuvchi qo'shma gapning sintaktik qolipini aniqlang.

- A. [WPm ↔ WPm] B. [WPm]
C. [WPm → WPm] D. [WPm - WPm]

O'ZGA GAPLI SINTAKTIK QURILMALAR

Tayanch tushunchalar: o'zga gap, muallif gapi, ko'chirilgan gap, ko'chirma, o'zlashtirma gap, qo'shma gap.

1-mashq. Berilgan gaplar tarkibidagi muallif gapi va ko'chirma gaplarni ajrating. Tinish belgilarini izohlang. Ko'chirilgan gapning uzilib qolgan qismining qanday davom ettirilayotganligiga diqqat qiling.

1. "Biz yagona daraxtning butoqlaridek bir butun bo'lgan taqdirimizdagina kuch-qudrat kasb etamiz", – dedi O'zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyeva. 2. "So'z san'atining qudrati shundaki, – deydi Asqad Muxtor, – u hayotda aynan bo'lmagan narsalarga, hodisalarga jon kiritib yuborad". 3. "Husayn voiz Koshifiy Sharqda ma'lum va mashhur shaxs, – deb yozadi Najmiddin Komilov "Tafakkur karvonlari" asarida. – U Navoiyga bag'ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan yaqin kishisi, muxlisi, do'sti edi". 4. "O'zga tillarni bilish yaxshi. – dedi muallim. – Chet tilini bilish fanni chuqur o'rganishda va mustaqil muloqotda juda zarur". 5. "Bu kishi, – dedi Rahmat, – bizga ikki tomonlama qarindosh bo'ladilarmi?"

2-mashq. Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gaplarni tushirilgan tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Yolg'on! jahl bilan qichqirdi Gulnor Yo'lchi hech gunohkor emas. (Oybek) 2. Ostimizdan olov daryo o'tadi dedi cho'pon ota bug' olov bo'lib yonadi. (I.V.) 3. O'rtoq Axmedov dedi O'rmonjon ertaga bayram oldi majlisimiz bo'ladi. 4. Yerning qadri o'tdi-a dedi Marat kulib Doim uni tepkilab yuramiz-u, bir qadam uzilsak, sog'inib qolamiz.

(O'.Hoshimov) 5. Jamiyat tafakkurini yuksaltirishda lug'atlarning roli beqiyosligi dedi prof. B.Mengliyev jahon tajribasi va amalda o'zini to'la oqlagan haqiqatdir. 6. Goh talashsak, haq so'zni onam aytsin der edik. (Qo'shiqdan)

3-mashq. Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilish sababini tushuntiring.

1. Shu topda cholga ikki dunyo bir, yakkash baqiradi: "Osmoningdan ne foyda menga! Javdiragan tuzsiz yulduzlaringni boshimga uramanmi! E, seni o'qitganning padariga la'nati!" (N.Norqobilov) 2. Ravshanbek aytdi: "...Sizlar mening ko'zimni boylab haydab keldinglar. Endi mening ko'zimni ochsanglar... men ham yorug' dunyoni ko'rsam..." ("Ravshan") 3. – Javob bersangiz... Ganjiravonga ketsam... Bitta go'rga bitta pichoq emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelaman... – dedi. (A.Qahhor) 4. Onam qad rostlab ulgurmay otamga iltijo qildilar: – Ostiga taxta qoqtiraman, iflos qilmaydi. (X.Do'stmuhammad) 5. – Endi bizga juda qiyin bo'ldi-da. Peshonam sho'r bo'lmasa... – dedi chol yerga qarab. (A.Qahhor) 6. – Qaldirg'ochchi, – dam hayajonlanib, dam bosiq davom etdi hikoyasida Qadriya, – uyasining devoriga ikki qator loy uradi, loyining nomi ketib quriguncha sabr qiladi-da, loy oqarib xom sopol tusiga kirguncha yana loy tashishga kiradi. (X.Do'stmuhammad) 7. – Kam bo'lmang, – dedi pulni uzatib, – yana xizmatingizdaman. (A.Qahhor) 8. – Yo'q, – dedi o'g'il qat'iy. – Bu xil ishlardan jirkanaman! (N.Norqobilov) 9. – Jirkanaman? – Shayman chol battar tutaqib, tag'in qo'llari bilan paypasladi. – Unda olimligingdan menga nima foyda! (N.Norqobilov) 10. "Haq, falak! – dedi. – Mayli, ketsam ketayin, beqadr bo'ldim, mayli xudodan toping". (M.M.Do'st)

4-mashq. Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirib ko'chiring. Gapda yuz bergan shakliy o'zgarishlarni aniqlang.

1. "Hozirgi yoshlarning iqboli porloq", – dedi o'qituvchi. 2. "O'g'lim, nega buncha parishonsan?" – dedi ona. 3. "Afsuski, bundan xabarimiz yo'q-da!" – dedi bolalar. 4. "Kamtarlik, – deydi Hamid Olimjon, – donolik yo'lining boshlanishi". 5. "Sen do'st emassan, – dedi Iskandar aka, – do'st o'rtog'ini yengilning ostidan, og'irning ustidan yurishga o'rgatmaydi". (A.Ko'chimov) 6. – Olcha juda serob, avval tatib

yenglar, keyin terasizlar, — dedi bir mo'ysafid. (Oybek)
7. "Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi", - deydi Tog'ay Murod.

MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIK

Tayanch tushunchalar: murakkab sintaktik butunlik, matn, bog'lovchi vositalar, olmosh, so'z-gaplar, mikrotekst, abzats.

1-mashq. Matn asosida quyida berilgan topshiriqlarni bajarung.

Adabiyot muallimi

O'zining aytishiga ko'ra "nafis adabiyot muallimi" o'rtoq Boqijon Baqoyev og'ilga kirib ta'bi xira bo'ldi: sigirning qulog'iga yana kana tushibdi! Kanadan ham ko'ra sigir uning achchig'ini keltirdi: kanani teray desa qo'ymaydi — boshini silkiydi, pishqiradi.

— Hayvon! Sigir emas, hayvon! — dedi og'ilning eshigini qattiq yopib. — Hayvon!

Xotini Mukarram hovlida samovarga suv qo'yar edi.

— Hayvon! — dedi Baqoyev. — Bu sigirni sotib puliga cho'chqa olish kerak!

— Shaharda cho'chqa asrash mumkin emas, — dedi Mukarram samovarga ko'mir solayotib.

— Nima uchun? Taqiq qilinganmi? Kim aytdi? Men aytib edimmi? To'g'ri, mumkin emas... albatta, mumkin emas...

— Uyga kiring, Hamida keldi.

Hamida o'n olti yoshlardagi tiyrak, quvnoq qiz, pochchasini ko'rib sevinib ketdi.

— Siz uyda ekansiz, bilsam, daftarimni olib kelar ekanman... esizgina...

O'rtoq Boqijon Baqoyevning ta'bi ochildi. — Sigirning qulog'idagi ko'm-ko'k kana, g'o'qillab tumshug'i bilan ariq yoqalarini buzib yurgan cho'chqa ko'z oldidan ketdi.

— Texnikumdan rabfakka o'tibsan deb eshitdim, rostanmi? — dedi. — Himm... yaxshi qilibsan. Rabfakka o't, deb men aytib edim shekili? Himm... Auff, zarda bo'libman... Rabfak yaxshi. Men bir bogan edim. Kanselyariyaning eshigiga praktikum deb yozib qo'yibdi. To'g'ri emas. Praktikum, minimum, maksimum bular hammasi lotincha yoki lotincha-ga yaqin so'zlar. Men shaxsan shunday deb bilaman.

Bir oz jim qolishdi.

– Boqijon aka, – dedi qiz uyalibroq, – bir narsani sizdan so‘ramoqchi edim: biz sinfda Chexovning “Uyqu istagi”ni o‘qididik, go‘dakni o‘ldirgan qizni sud qilmoqchimiz. Da‘vogar go‘dakni onasi – Rahima bo‘ladi, qoralovchi – Sharifjon. Sud’yalar ham bo‘ladi. Men qizni oqlab, butun gunohni uning ho‘jayiniga yosh qizni bu qadar berahm ekspluatatsiya qilgan kishiga qo‘ymoqchiman. Mana shu... Shuni yozdim. Shu to‘g‘rida sizning fikringizni bilmogchiman. Chexov shunday demoqchi emasmi?

O‘rtoq Boqoyev o‘ylab turib, so‘radi:

– Nafis adabiyot darsini sizlarga kim beradi? Hakimov? Ahmoq odam! O‘z ustida ishlaymaydi. Savol alomati hamma vaqt “mi” dan keyin qo‘yiladi desam, kuladi. Gap bunda ham emas...

Mukarram samovar ko‘tarib kirdi. Hamida irg‘ib turib, samovarni opasining qo‘lidan oldi va stolga qo‘ydi. U, homilador xotinga samovar ko‘tartirib o‘tirgan pochchasidan o‘pkalamoqchi edi, biroq uyaldi, indamadi. O‘rtoq Baqoyev juda chanqab turgan ekan, ustma-ust to‘rt piyola choy ichdi va terladi.

– Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, – dedi yuzidagi terni artib. – Himm... saqol ham o‘sipti, sartorash bo‘lmasa odamlar maymun bo‘lib ketar edi. Maymun, juni to‘kilib, odam bo‘lgan. Bu haqda Engelsning fikri bor...

– Haligini aytmadingiz, Boqijon aka, – dedi qiz, – Chexov shunday demoqchi emasmi?

O‘rtoq Boqoyev yana bir piyola choy so‘radi.

– Chexovmi? Him... burjuaziya realizmi to‘g‘risida so‘zlaganda eng avval uning obyektiga diqqat qilishi kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv voqelikni anglash lozim bo‘ladi. Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan-oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya‘ni...him... Mukarram, tovuqqa moyak qo‘ydingmi? Qo‘yish kerak, bo‘lmasa daydi bo‘lib ketadi... Tavba, tovuqdan ahmoq jonivor yo‘q – moyak qo‘ysang tug‘adi! Nima uchun moyak qo‘ysang tug‘adi? Xo‘roz nima uchun saharda qichqiradi? Ajoyib psixologiya? Biologiya o‘qiysizlarmi?

Hamida biologiyadan nimalar o‘qiganini, bu o‘qish yilida yana nimalar o‘tilajagini so‘zlab berdi va o‘zining oqlash nutqida fiziologik asoslar ham ko‘rsatish niyati bor ekanini aytib, yana so‘zni Chexov ustiga burdi.

– Him, – dedi Baqoyev, – Chexov to‘g‘risida o‘zimning fikrim bor. Boshqalar nima desa desin, har holda uning dunyoga qarashida... Uning

dunyo qarashi Pushkin va Lermontovlarning dunyoga qarashidan farq qiladi. Bir davr, bir sinf, bir mamlakat yozuvchilari bo'lishlariga qaramasdan mutlaqo farq qiladi!

– Chexov Pushkin bilan bir davrda yashagan emasku... – dedi Mukarram, – bizning kutubxonada uning Maksim Gorkiy bilan oldirgan surati bor. Chexov 1904-yilda o'lgan bo'lsa kerak.

– Sizlar qaysi Chexov to'g'risida gapirayotibsizlar? Choydan quy!.. Bu Chexov haqidami? To'g'ri, bu 1904-yilning birinchi yarimidami, ikkinchi yarimidami o'lgan... Boshqa ro'molcha ber, bundan piyoz hidi kelayotibti. Men ana u Chexov, ilk burjuaziya realizmning namoyandasi bo'lgan Chexov haqida so'zlayotibman.

– “Uyqu istagi” qaysi Chexovniki? – dedi Hamida.

– Hech shubhasiz bu Chexovniki. Bu narsa birinchi marta “Sovremennik” jurnalida bosilgan.

Shundan keyin o'rtoq Boqijon Baqoyev uzundan-uzoq so'zlab ketdi. Uning nima to'g'rida so'zlayotganini Hamida bilmas edi. Detirding degan allaqanday mashhur tanqidchi Shelling degan yozuvchiga “sen dastyorga zor bo'lguncha o'g'ling dastyor bo'ladi” deb xat yozgan; Marks Dobrolyubovni Mering bilan bir qatorga qo'ygan; Stending degan allaqanday bir dramaturg o'lar chog'ida Demping degan bir tanqidchiga: “Agar butun jonivorlarni xudo yaratgan bo'lsa, men uning zavqiga qoyil emasman, echkiemar ham jonivor bo'ldimi?” degan... Hamidaning boshi og'irlashib ketdi: ikki marta sekin bildirmasdan esnadi.

Hamida mezbonlar bilan xayrlashib ko'chaga chiqqanda qorong'i tushgan edi; “Uyqu istagi” to'g'risida pochchasidan hech qanday fikr ololmadi. Uning so'zlaridan nima olgani haqida o'ziga hisob berar ekan, g'uvvillab turgan boshida shundan boshqa hech narsa yo'q edi: praktikum, minimum, maksimum; Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping... (A.Qahhor)

Induksiyaga asoslangan tizimli topshiriqlar:

1. Matnning tarkibida qo'llangan gap, qo'shma gap, murakkab tuzilmali gaplar, supersintaktik birliklar, period, abzatlarni farqlang. Ularning o'zaro munosabatini yoriting.

2. Matn birliklarini kengaytiruvchi vositalar – kirish so'zlar, kirish gaplar, ajratilgan bo'laklar, uyushiq bo'laklar, undalmalarni aniqlang.

3. Matn tarkibiy qismini bog'lovchi vositalar – ohang, teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar, yuklamalar, nisbiy so'zlar, olmoshlar,

takrorlar, xiazmatik konstruksiyalar, fe'l shakllari, makon va zamon ifodalovchi soʻzlar, parselyatli tuzilmalarni aniqlang.

4. Matnning hajm belgisiga koʻra (minimal matn, maksimal matn, mikromatn, makromatn), ifoda maqsadi (ilmiy matn (tezis, maqola, maʼruza, taqrizlar), badiiy matn (nasriy va nazmiy asarlar), rasmiy matn (maʼlumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar), ommabop matn) va mazmun belgisiga koʻra (hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, izoh mazmunli matn, didaktik matn, xabar-darak mazmunli matn, soʻroq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matn) turini aniqlang.

5. Matnni lingvistik mikroskop ostida statistik tahlil qiling (fonetik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik tahlil).

PUNKTUATSIYA

Tayanch tushunchalar: tinish belgilari, ohang, sintaksis, muallif punktuatsiyasi, tire, ikki nuqta.

1-mashq. Berilgan mashqlarda vergulning ishlatilish sababini izohlang.

1. Opa, dardlashgani keling bir kecha. (Qoʻshiqdan) 2. Rivoyat qilishlaricha, bir kuni Luqmoni Hakim koʻchada ketayotgan ekan. Qizingiz bedavo dardga uchrabdi, afsuski, muolajaning iloji yoʻq. Xullas, shu bir ogʻiz soʻz oqibatida qiz ruhiy dardga giriftor boʻlib olamdan oʻtibdi. 3. — Qoʻy, mayli, ichmasang ichma. (Choʻlpon) 4. Singlimning, Maxbubaning ham uchta oʻgʻli bor. 5. B.R.Mengliyev, filologiya fanlari doktori, professor. 6. Choyxona qurilibdiki, shu joy uniki. (Oʻ.Umarbekov) 7. Ish oʻldirmas, ishkal oʻldirar. (E.Vohidov) 8. Koʻzni yumgil, koʻzga aylansin koʻngil. (Jaloliddin Rumiy) 9. Kunduzgi bulutlar tamom tarqagan, osmon asalarining uyasiday gʻuj-gʻuj yulduzlarga toʻlgan edi. (O.Yoqubov) 10. Toʻy tugagan boʻlib, hovli yuzida bir-ikkita xotin koʻrinardi. 11. Bugun kun boʻladi, ravshan va bedogʻ. (H.Olimjon) 12. Biz, sizning doʻstlaringiz, yoʻl qoʻygan xato halokatga olib borguncha indamay turarmidik?! (Sh.Rashidov) 13. Nafis chayqaladi bir tup naʼmatak. Yuksakda, shamolning belanchagida. (Oybek) 14. Men ketarman bir kuni, navolarim, zorim qolur... (M.Yusuf) 15. Ustida eski, biroq chiroyli paltosi bor edi. Sovuq, ammo rutubatsiz havoda u oʻzini ancha yengil his etdi. (Shuhrat) 16. Ayolga baxt bering, saodat bering, Demang yuribdi-ku, kulib, jilmayib. (Z.Moʻminova)

2-mashq. So‘roq belgisining ishlatilish sababini izohlang.

1. Qachongacha qorning o‘ylab o‘tadirsan? Qachongacha ko‘kdan chalpak kutadirsan? Axir vatan bitta, sen ham bittadirsan, Aytgil, do‘stim, nima qildik vatan uchun? (I.Mirzo) 2. Ertaga Samarqandga ketyapman. – Samarqandga? 3. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” qissasida (?) o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishi haqida hikoya qilinadi. 4. Ovqatga tajovuz (?) qilingandan so‘ng mehmonlar qo‘llarini dasturxonga (!) artdilar.

3-mashq. Undov belgisining ishlatilish sababini izohlang.

1. Sen beshik emassan, dorsan, tabiat, Sen ona emassan, jallodsan, dunyo! (A.Oripov) 2. Siz ham oyoqni ishlatning! – deb buyurdi. – Suv ostida o‘pqonlar ko‘p. Tortib ketmasin! (P.Qodirov) 3. Urush! Noming o‘chsin jahondan. (Zulfiya) 4. – Balli-balli! – dedi Rahim va Sharifga qarab im qoqdi. (A.Qodiriy) 5. Kun, izidan tun o‘tdi. Yana kun, yana tun... Yana... “Seni eslamayman!” degan gap biror daqiqa (!) xayolimdan yiroqlashgani yo‘q... (X.Do‘stmuhammad) 6. “Boburnoma”da tarix, etnografiya, til, adabiyot, geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g‘oyat qimmatli ma‘lumotlarni uchratish mumkin. 7. Charos kafti bilan yuzini to‘sgancha o‘zini orqaga tashladi. A-a-a!!! – dedi chinqirib. (O‘.Hoshimov) 8. – Chiqar buni jallod!!! Jallodlar harakatlandilar. – Hanjarimiz qonsirag‘on! (A.Qodiriy) 9. Kimdir seni kutsa, kimnidir sen ham sog‘insang, qanday baxt bu! (O‘.Hoshimov)

4-mashq. Qavsning ishlatilish sababini izohlang.

1. Ayni shu ichkilik (uni „chog‘ir“ deb ataganlar) umidli va suyukli nabira Mo‘min Mirzoning boshini uzgan. (Oybek) 2. Tangrim, meni do‘stlardan panohingda saqla, dushmanlarni o‘zim eplayman. (Volter. “Haqiqat manzaralari”dan) 3. Odam mevaga, ota-ona daraxtga o‘xshaydi. Daraxtni yaxshi parvarish qilsang, mevasi yaxshi va shirin bo‘ladi. (“Qobusnoma”dan) 4. 1925-yilda texnikumni tugatgan Oybek O‘rta Osiyo davlat universitetiga (hozirgi O‘zMUga) o‘qishga kirdi. 5. Demokratiya yunoncha so‘z bo‘lib, tarjimada xalq hokimiyati (demos – xalq, kratos – hokimiyat) ma‘nosini bildiradi. (Darslikdan) 6. Mavlono (eshikka qarab). G‘ulom Nabi! G‘ulom Nabi!

G‘ulom Nabi (kelib). Labbay!

Mavlono. Bizning bir ishimiz bor. Ichkariga kishi qo‘yma!

G‘ulom Nabi. Xo‘p. (Chiqar) (A. Fitrat)

5-mashq. Ko'p nuqtaning ishlatilish sababini izohlang.

1. Men seni tinchitmayman va lekin injitmayman... (Mirtemir) 2. Menga alam qilar, tilla baliqcha Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni... (A.Oripov) 3. Bugun... o'zingizning ustingizdan boychechak o'sib chiqibdi... Yo'q, yo'q oyijon... Yig'layotganim yo'q. Bilaman, men yig'lasam, siz bezovta bo'lasiz. Hozir... hozir o'tib ketadi. Mana, bo'ldi... (O'.Hoshimov) 4. Biz-chi, eh... ba'zi bir ko'zi ochiqlar, Eplab yurolmaymiz katta yo'lda ham. (A. Oripov) 5. "...Buncha chidam qaydan – po'lat, olovdan, Metindan yaralgan jonmidi otam..." (Zulfiya) 6. – O'g'lim! Meros sen...ga... o'tlurgan... joy... Vasiyatim... – o'qi... o'... qu... o'qu... o'qi... Men... r-r-ri...zomen, – deb jon taslim qildi.(A.Cho'lpon) 7. – Men aytib turaman, sen yozasan. Bu juda g'alati xat. Ana shu menga sovg'ang bo'ladi. Bo'ptimi?

– Bo'pti! – dedi Valijon.

– ...

– Yozmaymizmi? – so'radi Valijon zerikib. (O'.Umarbekov)

6-mashq. Tirening ishlatilish sababini izohlang.

1. Sarbadorning bitta aybi – uquvsizligi. (A.Oripov) 2. Har balo bo'lgandayam, shu yomon jivan – jigarimiz. (X.Sultonov) 3. Kurashi – qalbida qaynagan ilhom, Kitobi – erkka ishq, orzu va g'oya. (Zulfiya) 4. Amerika – sehrli diyor, Uxlar edi Kolumb ham hali... (A.Oripov) 5. Til – millat ko'zgidir. 6. Men – mana shu minglarning biriman. 7. Ishning oqibatini bilish – oqillikdan, ammo keladigan falokatga chora izlamay qayg'u chekib o'tirish – nodonlikdan dalolat beradi. 8. Bu – fikrlaringizga aniqlik kiritdi. 9. O'sha -- opamning hayotini o'zgartirib yubordi. 10. Shu – suratkashning mahoratini ko'rsatib turibdi. 11. Biri aks etadi gullarga, Biri olim – yoqimli, xushfe'l. (H.Olimjon) 12. Erkak, xotin, bola-chaqa – hammasining kiyimlarini tikaman. (Oybek) 13. Ne sababdan buncha ham yo'q oldingda qimmatim, Men axir yoqut, zumrad – jinsi nodir emasman. (Mirzo G'olib) 14. Cholning ayvoni – unga ustaxona vazifasini o'tasa kerak – oldi oynali, yozda derazalarini lang ochib salqinlatib qo'ysa bo'ladigan, keng go'sha edi. (N.Eshonqul) 15. Davlat tinch – xalq tinch. (Oybek) 16. Tiriksan – ko'rganing g'animat. (Oybek) 17. Birovga ayta ko'rmang – ikkovimiz ham baloga qolamiz. (S.Ahmad) 18. Qo'shiqlar to'qisam – no'noq bo'lmasa, sendan o'zga dilga qo'noq bo'lmasa! (Mirtemir) 19. Jismimiz yo'qolur – o'chmas nomimiz. (H.Olimjon) 20. Husn to'yda kerak – muhabbat kunda kerak. (Maqol) 21. Ustidan achchiq-achchiq choy ham ichdi – bo'lmadi.

(Oydin) 22. It hurar – karvon o'tar. (Maqol) 23. Yurgan daryo – o'tirgan bo'yra. (Maqol) 24. Xatingni o'qidim – o'zingni ko'rdim. (H.Olimjon) 25. Qor yog'di – don yog'di. (Maqol) 26. Hayot quyosh bilan go'zal, inson – xulqi bilan (Shukrullo). 27. Yigit so'zidan qaytmas, arslon – izidan. (Maqol) 28. – Voy-bo'y, yomon isib ketibdi-ku, – dedi u ichkari kirgan zahoti. (X.Sultonov) 29. – Javob bersangiz... Ganjiravonga ketsam... Bitta go'rga bitta pichoq emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelaman... – dedi. (A.Qahhor) 30. – Yo'q, – dedi o'g'il qat'iy. – Bu xil ishlardan jirkanaman! (N.Norqobilov) 31. – Jirkanaman? – Shayman chol battar tutaqib, tag'in qo'llari bilan paypasladi. – Unda olimligingdan menga nima foyda! (N.Norqobilov) 32. – Qaldirg'och-chi, – dam hayajonlanib, dam bosiq davom etdi hikoyasida Qadriya, – uyasining devoriga ikki qator loy uradi, loyining nomi ketib quriguncha sabr qiladi-da, loy oqarib xom sopol tusiga kirguncha yana loy tashishga kiradi. (X.Do'stmuhammad) 33. Ona – u, bag'rida millat beshigi... (M.Toir) 34. Tarbiyachining iste'dodi:

- favqulodda mehnatsevarlik;
- shaxsiy manfaatni butunlay unutish;
- bolalarga mehr;
- eng yaxshi his-tuyg'u va umid bilan yashashda ko'rinadi.

7-mashq. Qo'shtirnoqning ishlatilish sababini izohlang.

1. Ravshanbek aytdi: "...Sizlar mening ko'zimni boylab haydab keldinglar. Endi mening ko'zimni ochsanglar... men ham yorug' dunyoni ko'rsam..." ("Ravshan") 2. "So'z san'atining qudrati shundaki, – deydi Asqad Muxtor, – u hayotda aynan bo'lmagan narsalarga, hodisalarga jon kiritib yuboradi". 3. "Sakson yil lovullab so'nmagan o'tman", deydi Zulfiyaxonim she'rlarining birida. (Q.Rahimboyeva) 4. "Adabiyot – atomdan kuchli, ammo uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak". (A.Qahhor) 5. U "operatsiya" bo'lgan karbyuratorga qaradi-da, hushtak chalib yubordi. (O'.Hoshimov) 6. ...biz yashaydigan xona devorlarini tog' ungiriga o'ynab yurgan ohular emas, seryomg'ir kelgan bahorgi bulutning tomdan sizib o'tgan chakka dog'lari "bezagan". (E.A'zamov) 7. Kuntug'mish ikki o'g'liga buyurdi: "Mening "do'stim"dan o'chlarini olinglar. Men do'st otini tutganman, qoshiga bormayman, yuzini ko'rmayman..." ("Kuntug'mish") 8. "Punktuatsiya asoslari" o'quv qo'llanmasi. 9. "O'zbekistonda o'quv lug'atchiligini rivojlantirish muammolari" risolasi. 10. "O'zimmiki erur shu sozim" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 11. "Turkiston" saroyi. 12.

“Bekbaraka” savdo majmuasi. 12. “O‘zbekiston” ko‘chasi. 13. “Samarqand” mahallasi. 14. “Oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM”ning 30-bandi “e” kichik bandi.

8-mashq. Ikki nuqtaning ishlatilish sababini izohlang.

1. Birdan u o‘zini idora qilolmay qoldi: qo‘llari bo‘ysunmay olg‘a cho‘zildi, qaynoq qon vijir-vijir to‘lqin urib, tomirlari bo‘ylab yugura ketdi. (X.Sultonov) 2. Sizdan tashvishlandim: ba‘zi vaqtda haddan tashqari o‘zingizga ishonasiz. (Oybek) 3. Qora bo‘yoqning suratdan-suratga o‘tib borishi meni hayratga soldi: mavhumlik tasvirda ham, bo‘yoqda ham sezilardi. (N.Eshonqul) 4. Elning bir so‘zi bor: o‘zingga ehtiyot bo‘l, qo‘shningni o‘g‘ri tutma. (Oybek) 5. O‘zingizga ma‘lum: qadr tanqis. (Oybek) 6. Shu fe‘llari yaxshi: hech kimni bironing oldida behurmat qilmaydilar. (A.Qahhor) 7. Bildi ota: foydasizdir qiynamoq. (Hamza) 8. Mening bir jaydari falsafamdir shu: Hargiz iltimosga kuning qolmasin. (A.Oripov) 9. Odamlar bor: bo‘rini ham o‘rgatar qo‘lga, odamlar bor: o‘z bolasin sololmas yo‘lga. 10. Kampirning katalakday hovlisi misoli tandir: quyosh lovullab qizdiradi-yu, atrof uylar bilan o‘ralgani uchun, qilt etgan shabada yurmaydi. (M.Hazratqulov) 11. Rasulullohdan bir kishi so‘radi: “Islomda eng yaxshi xislatlar qaysidir?” Dedilar: “Ochlarga taom bermoqlik, tanigan va tanimaganga salom bermoqlik. Hayo imondandir”. (“Hadis”dan) 12. – Sizga bir qadar tinchlik kerak edi, Yormat aka, g‘am yomon bo‘ladi, deya izvoshga o‘tirib, davom etdi: – eski qadrtonsiz-da, to o‘zingiz jo‘natmaguncha, ko‘nglingiz tinchimaydi. (Oybek) 13. Daraxtlardagi barcha sayroqi qushlar: sa‘va, bulbul, mayna va boshqalar unga jo‘r bo‘ldi. (N.Fozilov) 14. Yig‘ilishga qatnashdilar: D.Mallayeva, N.Navro‘zova, A.Nazarova va b..

9-mashq. Nuqtali vergulning ishlatilish sababini izohlang.

1. Vaqt xuftondan o‘tgan; juvozxonada chiroq ko‘rindi. (Oybek) 2. Kim biladi, o‘g‘li ham otasi haqida shunday o‘ylasa kerak; u otasini zarracha hurmat qilmasdi. (N.Eshonqul) 3. Yer tosh qotgan; qor moylanmagan aravaday g‘ijirlaydi. (Oybek) 4. Kundan-kunga sarg‘ayib so‘la boshladi; uni g‘am ado qilmoqda edi. (M.I.) 5. Bir safar katta odamning gapini hadeb qaytaraverishga yuzi chidamay juma kuni kelishga va‘da berdi; kelganida qanday bo‘ldiki, ikki-uch soat o‘tirishni mo‘ljallagan odam kechasi soat o‘n birgacha o‘tirdi. (A.Qahhor) 6. She‘r

shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. (A.Oripov) 7. Rasmda chol nima demoqchiligini tushunmasam-da, lekin yigitning yuzidagi ishonchdan hayratga tushdim; qizg'ish va javdari bo'yoq yigitning ko'nglidagi hissiyotni to'la aks ettira olgan edi. (N.Eshonqul) 8. Ish kuchini elga berma, yerga ber; jamg'armani selga berma, elga ber! Yaxshini yomon dema, olishing bo'lsa ham; Yomoni yaxshi dema, yaqining bo'lsa ham. (Maqol) 9. Hayhotday hovli fayzsiz; daraxtlar ostini o't-o'lan bosgan, hovlining etak tomonida bir juft yirik-yirik qarg'a loqayd kezib yuribdi. (O.Otaxonov) 10. Gerb rangli tasvirda bo'lib, Humo qushi kumushrangda; quyosh, boshloqlar, paxta chanog'i va «O'zbekiston» degan yozuv tillaranga; g'o'za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog'lar havoranga; chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda beriladi.

10-mashq. Tinish belgilarining takror va qo'sha ishlatilishi sababini izohlang.

1. Suyunchi!!! Suyunchi beringlar!! 2. Insof? Insof deysizmi?? Hamma gapirsa ham, siz gapirmang bu gapni. 3. Faqat, ko'pdan buyon ko'nglimga tugib yurgan orzum-armonim hurmati so'nggi marta xat yoza qolay; Mayli, ularning soni ko'paygandan-ko'paysin, ammo Siz yolg'iz meni, xo'p? (X.Do'stmuhammad) 4. – Lekin, deylik, to'satdan yuzingizga bir chelak suv sepib yuborilsa, yoki bo'lmasa, mana shu eshikning har ikkala tavaqasi taraqa-turuqlab ochilsa-da, zunda shu xonani to'ldiradigan oqim yopirilib kirsam – unda qay ahvolga tushasiz?.. Tek tura olasizmi?... (X.Do'stmuhammad) 5. Yigitcha edim men havaskor, sodda, Bo'ldim oqibatda shoir Shayxzoda!... (M.Shayxzoda) 6. To'xtang!.. Shoshmang!... Voy, ichingizdan olov chiqyaptimi? (X.Do'stmuhammad) 7. “Hay, mayli, ketsang ketaber, Xatcha, Sho'rquduq borasanmi, nariroqqa o'tib ketasanmi, bir boshimda bir kunim, men ham sensiz uloqib ketmasman!...” (M.M.Do'st) 8. “Balki uch-to'rt uyni tintishayotgandir, – deb o'yladi u, – lekin o'lgan odamni topib berasan deb tiqilinch qilishmayotgandir?..” (T.Murod) 9. Undan ko'nglimni tamom sovuq yuboradigan xususiyatni atayin izlagan damlarim bo'ldi, shunday xususiyatni topguday bo'lsam oramizdagi inja munosabatlarga barham berilishiga bahonai sabab bo'larmikan degan xayollarda yurgan paytlarim bo'ldi, biroq izlashlar-izlanishlarning bari behuda ketdi (Shu emasmi, iztiroblarimizning ilohiyligi?!), yo'q, behuda ketdi desam, yolg'on aytgan bo'laman. (X.Do'stmuhammad) 10. Yozuvchining bu

fikri (“Qaydasan go‘zalim?!...”), dunyoqarashi uning yaxshi niyatda ekanini ko‘rsatadi. 11. – Qayerdasaannnn?????!!!! – deya oh chekadi. Tap topmay takrorlayveradi: – Qayerdasaannnn?????!!!! (X.Do‘stmuhammad)

12. Osmon baravar plan berdilar.

– Bazarasan! – dedilar.

– Bajarolmayman, – dedi.

– Bazarasan!! – dedilar.

– Bajarmayman!! – dedi.

– Qamalasan!!! – dedilar.

Bajardi... Bola-chaqasi ko‘p edi...


Orden berdilar... Planni oshirib bajargani uchun...

Bola-chaqasi ko‘p edi... (O‘.Hoshimov)

11-mashq. Ajratilgan bo‘lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilish sababini tushuntiring.

1. Bu xabar ko‘plarni, shu jumladan, Mahkamni ham juda quvontirdi. (P.Qodirov) 2. Axir uning, Vohidning ham o‘ziga yarasha obro‘si bor. 3. Biz – maktab, litsey, kollej talabalari ham bu kitobdan foydalansak bo‘ladi. 4. Sizni universitetda, “Yoshlar markazi” ro‘parasida kutaman. 5. Bu kampir Toshkentda ishlaydigan o‘g‘linikida bir oy turib, yana qishloqqa, boshqa bolalari, nevaralari huzuriga ketayotgan ekan. (M.Salom) 6. Pastlikka – Labzak tomonga tusha boshladik. 7. Biroq bir lahzada osmon-u falakni qoplagan kuzgi qarg‘alar kabi suratlariga qandaydir mavhumlik – qora rang yopirilib kirgandi. (N.Eshonqul) 8. Sho‘rquduqqa borganida bildillab qarshi oladigan tojik qiz – Sattorqulning xotini keyingi safar undan tortinib turgan edi. (M.M.Do‘st) 9. Qobil bobo, yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan, og‘il eshigi yonida turib, dag‘-dag‘ titraydi... (A.Qahhor) 10. Dadam shu atrofdan – qishloqning chiqaverishidan – do‘kon qidirdi. (A.Qahhor) 11. Ayol, sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq, ko‘chaga otildi. (S.Karomatov) 12. Ayol – nur, qalblarni yoqib ketguvchi. (M.Toir) 13. So‘zi e‘tiborli, ahdi vafoli Ajoyib bir xalqsan – topilmas tengi. (G‘.G‘ulom) 14. Hayotning poyonsiz ummoni ichra Bor shunday g‘ariblar – temirlar hissiz. (A.Oripov) 15. Bu gurgung – shoirlar musobaqasi – sharq she‘riy chamani, bu mushoira. (Zulfiya) 16. Ikki ovsin – Tursunoy bilan Sharofat – birga o‘tirib hasratlashar edi. (Oybek) 17. Yo‘llarda yotardi ko‘p begunohlar, fotihlar izlari – beson qabrlar. (M.Shayxzoda) 18. Tepa-tepa paxta – beg‘ubor, sara, Kuzgi zirmonlarning akslari go‘yo. (Mirtemir)

12-mashq. “Nima uchun?” metodi asosida quyidagi muammoni oydinlashtiring.



Savol: Nima uchun tinish belgilari sinonimiyasiga yo'l qo'yiladi?

13-mashq. Kiritmali gaplarda tinish belgilarining ishlatilish sababini tushuntiring.

1. Oyimlarning aytishicha, keyinchalik dadamlar ham bu qilmishidan pushaymon bo'lganlar. (O.Yoqubov) 2. Kim bilsin, ehtimol, boshiga og'ir musibat tushishini sezib yurgani uchundir, ehtimol, bir mahal dilimga ozor bergani esiga tushib uni ko'nglimdan chiqarmoqchi bo'lgandir, har qalay, umrimda birinchi bor boshimni silab muzqaymoq oberishga ahd qildilar. (O.Yoqubov) 3. U shu kuni yuk poyezdida (passajir poyezdlari bu yerda to'xtamay o'tib ketadi) yetib keldi. (Ch.Aytmatov) 4. O'zining bu xislatiga chuqur ishonar, bu bilan boshqalarga maqtanmasa ham (maqtanchoqlikni yomon ko'rar edi), ba'zi vaqt ichidan faxrlanardi. (Oybek) 5. Gulob – jaydari oq atirguldan (uni Toshkentda “qirqog'ayni”, Buxoroda esa “gulbuta” deyishadi) tayyorlangan sharbat. 6. ...lirik chekinish ... hatto liro-epik turda yozilgan dostonida (Navoiyning “Xamsa”sidagi dostonlar ham, “Lison ut-tayr” ham shunday asarlar sirasiga kiradi) ham uchrashi mumkin. “Begona bayt”ning hajmi – aniq (ikki misra), o'rni – tayin (asosan, maqta'dan oldin keladi). (S.Olim). 7. Qabulxonona – bu yer ilgari katta boyning mehmonxonasi bo'lsa kerak – qorong'i edi.

III BO‘LIM. SEMINAR MASHG‘ULOT MAVZULARI

Morfema, turlari, lisoniy xususiyatlari va nutqiy voqelanishi

Reja

1. Morfema morfemika birligi sifatida.
2. Morfemaning leksemaga munosabati.
3. Morfemaning xususiyatlari, variantlari.
4. Derivatsion morfemaning turlari.
5. Grammatik morfemaning turlari: lug‘aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar.
6. Morfemalarda shakl va ma‘no munosabatlari.
7. Morfema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta‘sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.

Foydalaniladigan adabiyotlar

